



VOLUME-23



ISSUE-2



January - 2024

# WORLD SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL



# **WORLD SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**International scientific electronic journal**

**Volume-23 \_Issue-2**

**January - 2024**

Jahon ilmiy tadqiqot  
jurnali

MUASSIS:

Qo'qon davlat pedagogika instituti,  
"Ustozlar uchun" MCHJ

TAHRIRIYAT | EDITORIAL

Tahririyat kengashi raisi:

D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent

Jamoatchilik kengashi raisi:

D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent

Bosh muharrir

D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent

Mas'ul muharrir:

N.S.Jo'rayev - psixologiya fanlari nomzodi,  
dotsent

Mas'ul muharrir yordamchisi:

O.Y.To'xtasinova- filologiya fanlari  
nomzodi, dotsent

Nashr uchun mas'ul:

Rasulov Inom Muydinovich -  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiyaragentligi  
tomonidan berilgan 1547 raqamli  
guvohnoma asosida ro'yhatga olingan

Tahririyat manzili:

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turon  
ko'chasi, 23-uy

Telefon:

(0373) 542-38-38

E-mail:

[info@wsrjournal.com](mailto:info@wsrjournal.com)

Tahrir kengashi:

Sh.Farmonov - O'zR FA akademigi  
Sh.Namozov - O'zR FA akademigi  
S.Rashidova - O'zR FA akademigi  
I.Asqarov - kimyo fanlari doktori, professor  
V.Xo'jayev - kimyo fanlari doktori, professor  
Sh.Abdullayev - kimyo fanlari doktori, professor  
M.Isakov - kimyo fanlari doktori, professor  
R.Rasulov - fizika-matematika fanlari doktori, professor  
B.Samatov - fizika-matematika fanlari doktori, professor  
D.Akbarov - fizika-matematika fanlari doktori  
A.Xusanov - fizika-matematika fanlarinomzodi, dotsent  
V.Isaqov - biologiya fanlari doktori, professor  
G'.Abdullayev - biologiya fanlari doktori  
A.Batashov - biologiya fanlari doktori  
D.Mamatqulov - biologiya fanlari nomzodi, professor  
H.Xonboboev - texnika fanlari nomzodi, dotsent  
B.Nu'monov - texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
I.Oxunov - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
R.Payg'amov - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
N.Valiyev - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
A.Gapparov - Kimyo fanlari nomzodi, dotsent  
N.Karimov - O'zR FA akademigi  
A.S.Sagdullayev - O'zR FA akademigi  
O.Akimova - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
V.Borisova - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
I.Artyushkov - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
M.Rasulova - filologiya fanlari doktori, professor  
Sh.Iskandarova - filologiya fanlari doktori, professor  
D.Nabiyeva - filologiya fanlari doktori, professor  
O.Bozorov - filologiya fanlari doktori  
A.Ziyayev - filologiya fanlari doktori (DSc)  
D.Jamoliddinova - filologiya fanlari doktori (DSc)  
Z.Qobilova - filologiya fanlari doktori (DSc)  
M.Hoshimova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
M.Siddiqov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
M.Jamoliddinov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
O.O.Bozorov - filologiya fanlari nomzodi  
M.Rasulova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
V.Karimova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
M.Djo'rayev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
G.Kislov - falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya)  
G.Abdullayev - falsafa fanlari doktori, professor  
M.Aminova - falsafa fanlari nomzodi, dotsent  
M.Temirboyev - falsafa fanlari nomzodi  
T.Fayzullayev - siyosat fanlari doktori, professor  
A.Rasulov - tarix fanlari doktori, professor  
R.Shamsiddonov - tarix fanlari doktori, professor  
Q. Akbarov- tarix fanlari nomzodi  
T.Haydarov - iqtisod fanlari doktori, professor  
N.Babayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent  
N.Erkaboyeva - pedagogika fanlari doktori, dotsent  
S.Alimsaidova - pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Z.Azimova - pedagogika fanlari doktori, dotsent  
V.Qodirov - pedagogika fanlari doktori, dotsent  
A.Tolibjonov - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
J.Azamov - yuridika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
D.Soliyeva - psixologiya fanlari doktori, dotsent  
O.Bektoshev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
M.Ergashev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
N.Aliboyeva - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
G.Nazirova - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
A.Abdurashitov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Kadirova Nigora Rashidovna, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fan tarmoqlari: Matematika, fizika, informatika, geografiya, psixologiya, ijtimoiy fanlar

## SURUNKALI LEYKOZ FONIDA YO'LDOSH TO'QIMASINING MORFOLOGIK XOS O'ZGARISHLARI

*PhD Allaberganov Dilshod Shavkatovich  
Mansurova Kamila Maxmud qizi  
Imomova Maxarram Azim qizi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Leykoz va xomiladorlikni o'tkazishga oid yangi talqinlar berilgan. Terapevtik va akusherlik amaliyotlarini olib borish chuqur bayon etilgan va ular amaliyotbop tarzda yo'naltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *surunkali leykoz, xomiladorlik, terapevtik va akusherlik amaliyotlari.*

Surunkali leykoz va xomiladorlik. Surunkali leykoz (SL) qon xosil qiluvchi xujayralardan (gemoblastozlardan) kelib chiqadigan va ilikni birlamchi zararlantiruvchi o'smalar turkumiga kiradi. SLda asosiy o'sma substrati pishib yetilayotgan va yetilgan xujayralar (IV va V sinf) hisoblanadi.

Xomiladorlarda va tug'ish yoshidagi ayollarda asosan surunkali miyeloleykoz (50%-ga yetib) uchraydi, uning boshqa turlari surunkali limfoleykoz, eritremitiya va b.q. aksariyat 40-60 yosh va undan keyin uchraydi.

O'tkir leykoz xech qachon SLga o'tmaydi, SL esa xech qachon qaytalanmaydi. Unga xos alomatlar:

- u miyelopoezning oldi xujayralaridan kelib chiqadigan o'sma, to yetilgan shakllarigacha (neytrofillar) tabaqalanib turadi;
- SL ni xujayraviy substratini granulotsitlar-neytrofillar tashkil etadi;
- Asosan ionizirlovchi radiatsiya va kimyoviy vositalar ta'sirida kelib chiqadigan, filadelfiyli xromosomalar (Ph)ni nuqsoniyli bilan tavsiflanadi;
- Ikkita faza orqali kechadi: yaxshi sifatli (surunkali) va o'tkir (blastli kriz) fazalar;
- SL qachondir albatta o'tkir fazaga o'tadi: bunda u O'Lga o'xshab xavfli tuslashadi, ilikda va qonda katta miqdorda blastli xujayralar paydo bo'ladi ( $\geq 30\%$ ), blastli kriz manzaralanadi; xolat keskin yomonlashadi, intoksikatsiya va isitmalash, suyak og'riqlari kuchayadi, kamqonlik va gemorragiyalar ortadi, gepatosplenomegaliya va blastli o'smali o'sishning ekstramedullyar o'choqlarini bo'lishi ifodali bo'ladi.

Blastli kriz goxida akseleratsiya fazasiga qo'shib o'rtacha 3-6 oygacha cho'zilib ketadi. O'tkir leykozdan, xomiladorlik fonida, farqli bo'lib ilk bora, kasallik boshlanishida SL neytrofilli leykotsitoz va splenomegaliya bilan namoyon bo'ladi. Umumiy intoksikatsiya simptomlari keyin paydo bo'ladi-quvvatsizlik, (ba'zida juda kuchli ifodalangan) sillani qurishi, ozib ketish kabilar.

Leykomoidli infiltratsiya barcha ichki a'zolarida, shuningdek jigarda xam kuzatiladi va buning natijasi bo'lib jigar kattalashadi.

SLni uchun ifodali o'zgarishlar eng ko'p qonda bo'ladi: a)yuz mingdan ortiqqa ortib namoyon bo'luvchi leykotsitoz (yoki leykopeniya); b)leykogrammada to miyelotsitar, promiyelotsitarlar va gohida uchrab turadigan miyeloblastlargacha yetib chapga siljish (leykotsitoz fonida) bo'ladi; v)bazofiliya va eozinofiliya doimo bo'ladi; g)trombotsitlarni o'zgarishi to'lqinsimon bo'ladi kasallik boshida meyorda turadi yoki meyoridan oshgan bo'ladi, kasallik nixoyasiga, o'tkir leykozga o'tish bosqichiga borgani sari trombotsitopeniya va unga qo'shilishib kamqonlikka xos jami alomatlar kelib chiqadi; d)SL ni boshqa variantlariday va chunonchi O'LDan farqlovchi yana bir spetsifik alomat, bu-suyak ko'migida eritroblastlar va megakariotsitlar ko'paygandan-ko'paygan bo'ladi, leykoz xujayralarining xromosomli markeri (Ph-xromosomlar)topiladi; ye)SLning surunkali fazasi 3-5 yilga cho'zilib davom etadi(xomiladorlik fanida bu tezlashadi va xavfli tusga o'tadi) va so'ngra, albatta, muqarrar bo'lib blastli kriz yuz beradi-ki, u 85% o'lim bilan tugaydi; j)

Bizga ma'lum bo'lgan manbalarda (2018 yil dekabr oyigacha amalga oshirilgan, oxirgi bir yildagi 45102 randomizatsiyalangan xalqaro tekshiruvlar ko'zda tutilayapti) yana bir marta M. M. Shextman xulosasi tasdiqlandi: to shu bugungacha SL dan qachon blastli kriz boshlanishi mumkinligini oldindan aytib beradigan sinama yo'q va aynan shu narsa xomiladorlar uchun uning eng "ojiz bo'g'ini" yoki xatar tug'diruvchi omili bo'lib xisoblanadi.

Lekin uning "shamoli, bo'rondan (blastli krizdan deyilmoqchi) oldingi" alomatlarini xomiladorlarda sezish mumkin: ko'tarila boshlanayotgan leykotsitoz →splenomegaliya →o'z-o'zidan shiddatlana boshlangan kamqonlik va trombotsitopeniya xamda ularni o'tkazilayotgan terapiyaga refrakterli bo'lib qolishi →gepatotomegaliya →limfadenopatiya →leykotsitozni birdaniga leykopeniyaga aylanib qolishi kabilar blastli krizlarni eng barvaqtiki klinik belgilari bo'lib xisoblanadi. Tashxis qo'yish, ayniqsa xomiladorlik va tug'ruq fonida, qiyin kechadi.

Tashxisga "5 qadamli yo'l prinsipi", bizning kuzatuvlarimiz bo'yicha, xomiladorlik davrida bexato aniqlash, davolash va xavfli asoratlarni SLdan profilaktika qilish imkoniyatini beradi. Ushbu "tashxisiy yo'l" quyidagi ketma-ketlikda davom etishi kerak bo'ladi:

1.Bemorda qon yaratuvchi a'zolar/to'qimalarni uzoq davom etib kelayotgan kasalliklari borligini taxmin qilish imkonini beruvchi belgilarni topish va ajratish. Ular 4 ta: a)kamqonlik belgilari (SL 1-chi bosqichida bo'lmasligi xam mumkin); b)gemorragik sindrom (SL terminal bosqichida); v)immunologik reaktivlikni o'jizlanishi alomatlari (isitmalash va tizimli yallig'lanish bilan ifodalanuvchi infeksiyaseptik jarayonlar-pnevmoniya, siydik yo'llari infeksiyasi, b.q.); g)qon yaratuvchi a'zolar/to'qimalar giperplaziyasini belgilari (chetki va visseral limfatik tugunlar va qorataloq xamda jigarni kattalashuvlari).

2. Xomilador ayolda proliferativ sindromga xos klinik xususiyatlarni topish, bir-biridan ajratish va baholash: a) limfoproliferativ sindromni-taloq va jigar aksariyat kattalashishmagan yoki yengil-o'rtacha kattalashishgan, limfatik tugunlari kattalashgan (og'riqsiz, xarakatchan, payvandlanishmagan, xamirlimomiy elastik konsistensiyali) va terining zararlanishlari (teri infiltratlari, ekzema, psoriaz, o'rab oluvchi temiratka); b) miyeloproliferativ sindromni: suyak og'riqlari, chap qovurg'a yoyi ostida og'riq, splenomegaliya, unchalik yaqqol ifodalanmagan gepatomegaliya, limfatik tugunlar va teri kam zararlanadi.

3. Periferik qon o'zgarishlarini baholash va SL tashxisini qo'yish, nozologik shaklini ajratish. SL ning uch turidan biri ajratiladi: surunkali miyeloidli limfatik leykoz (SLL) surunkali miyeloidli leykoz (SML) va surunkali miyelofibroz (MF). SLL uchun limfotsitlarning (yetilgan shaklini) to to'la ilikning limfotsitar metaplaziyasigacha yetib ko'payishi xos bo'ladi: leykemiya, nisbiy va mutloq limfotsitoz, leykoliz xujayralarini (botkin-Gumprexit soyasi) bo'lishi kabilar ustuvor manzaralanishi bo'lib xisoblanadi. SML uchun xos belgilar: Ph-xromosomani topilishi leykemik variant, miyelopoezning oraliq shakllari va megakariotsitlarning ehtimoliy giperplaziyasi bilan miyeloid o'sishning giperplaziyasi, leykotsitar formulaning miyelotsitlargacha yetib chapga og'ishi yoki xamma oraliq shakllari bilan yolg'izlanib miyeloblastlarni uchrashi. MF ga xos spetsifik alomatlar: subleykemik variant, miyeloidli, trombositlar va eritroidli "kurtak"ning giperplaziyasi, fibroz, osteomiyeloskleroz, leykotsitar formulani chapga o'rtacha og'ishi, trombositoz, eritrotsitoz (boshlanishida) va Ph xromosomani topilmasligi.

4. SLga "chehradosh" kasalliklarni istisno qilish. SLga o'xshash "chexradosh" kasalliklar

4 ta va ularni xar bir xomilador ayolda istisno qilinishi ahamiyatli bo'ladi: leykomoidli reaksiyalar (LR), o'tkir leykoz, limfagranulematoz va limfomalar. LR uchun xos alomatlar: a) miyeloidli boshlang'ich (ilk) bosqichda xech qachon bo'lmaydi;

b) doimo asosiy, LRni keltirib chiqargan, kasallik topiladi (infeksiyalar, intoksikatsiyalar, o'smalar, kollagenozlar kabilar);

v) splenomegaliya bo'lmaydi;

g) bazofillar sonini ortishi;

d) Ph-xromosoma sonining ko'payishi; ye) aniqlangan o'zgarishlar o'tkinchi xarakterga ega bo'ladi, SL da esa umrbod saqlanib qoladi.

O'L uchun xos alomatlar: a) unga o'xshashlik SLning miyeloidli shaklini blastli xurujida kuchayadi; b) anamnez ma'lumotlari ularni bir-biridan aksariyat ajratadi;

v) "leykemik barbod" simptomi mavjud bo'ladi, SLda esa-yo'q;

g) splenomegaliya yo'q yoki unchalik kuchli ifodalanmagan bo'ladi; d) Ph-xromosomalar bo'lmaydi. Limfagranulematoz va boshqa limfomalar uchun xos alomatlar:

a) o'xshashlik surunkali limfatik leykozda bo'ladi; b) SLdan farqi-qon va ilikda limfotsitoz bo'lmaydi, limfatik-tugunchalar biopsiyasi yakuniy tashxisiy xulosaga olib keladi.

5. Surunkali leykozlarning bosqichini va asoratlari aniqlash.

SL uchun, yuqorida aytib o'tilganidek, uchta birin-ketin o'tuvchi bosqich yo'li xarakterli bo'ladi: boshlang'ich bosqichi (bemorlar xolati-yaxshi, limfatik tugunlar va taloq-kam o'zgargan, unchalik katta bo'lmagan leykotsitoz, kamqonlik yo'q, asorati-yo'q), yoyilgan bosqichi (shikoyatlar paydo bo'ladi, taloq va limfati tugunlarkattalashgan, gematologik-yaqqon ifodalangan, kamqonlik-bor va asoratlari bo'lishi mumkin) va terminal bosqichi (bemor xolati yomonlashib-somatik dekompensatsiya, ya'ni yiqilish bo'ladi; limfatik tugunlar va taloq sezilarli kattalashadi, gematologik xos o'zgarishlar-yaqqol ifodalanadi, asoratlari doimo kelib chiqqan bo'ladi-xurujlar, gemorragiya, infarktlar).

Xomiladorlikni barcha davrida SLning uch toifadagi asoratlari xavfi, yo, o'ta yuqori bo'ladi, yo kelib chiqqan bo'ladi, yoki shiddatlanib taxdid soluvchi darajaga yetib kuchayadi: 1) Surunkali limfoleykoz (SL)da autoimmunli xuruj asorati sifatida kuzatiladi: (behollik, isitma, qovurg'a ostida og'riq yoki og'irlik, noto'g'ri bilirubin xisobiga sariqlik, ba'zan GS bilan trombositopeniya; ko'ksni ezilishi (nafas qisish, bo'yin venalarini shishishi, bo'yin shishi, qo'l shishi, qopqa venasini ezilishi (assit) va ichaklarni ezilishi (ichak tutilishi)sindromlari; xatarli limfomaga aylanishlimfatik tugunlarning tez o'sishi, toshsimon zichlik, tutashib ketish va ezish; 2) SMLda blastli xurujlar bo'ladi va o'tkir leykozni eslatadi; 3) qorataloq infarkti-chap qovurg'a ostida o'tkir og'riqlar, paypaslaganda og'rishlar, ishqalanish shovqini. Xomila o'sishi bilan, to'lg'oq kelishida, tug'ruq boshlanishi va kechishi davomida xamda tug'ruq tugagan davrlarda SL surunkali faza yoki akseleratsiya fazasi yoxud blastli kriz simitomlari tarzida xar xil namoyon bo'ladi: -surunkali fazasida qonda 20-100\*10<sup>9</sup>/l ga yetib leykotsitoz chapga siljish bilan aniqlanadi, juda oz miqdorda blastlar ayrim xollarda aniqlaniladi va sitogenetik tekshiruvda bosh spetsifik belgisi sifatida-filadelfiycha xromosoma va/ yoki abl-bcr gen aniqlanadi; -akseleratsiya fazasini ko'rinishlari bo'lib leykotsitoz to 100-200\*10<sup>9</sup>/l ga yetib ortadi, leykogramma siljuvi promiyelotsitlargacha boradi, yengil kamqonlik va trombositoz paydo bo'ladi, blastlar miqdori ko'payib 10% va undan ortib ortadi, bazofillar soni to 20%-gacha ortgan bo'ladi; -blastli kriz ko'rinishida yoki davrida periferik qonda blastlar miqdori 20% dan o'tadi, yetilayotgan shakllari yo'qolishib ketishadi-"leykemik barbodlanish" / "qo'porilish", o'tkir miyeloleykozga xos bo'lgan, shakllanadi. Kamqonlik, GS va trombositopeniyalarni shiddatlanishi bo'ladi.

Akusherlik taktikasini belgilashda tavsiya kiritilishi kerak-ki, surunkali miyeloleykoz (SML) xomiladorlikdan oldin kelgan bo'lsa xam, remissiya yoki ximioterapiya davrida bo'lgan bemor ayolda xomiladorlik boshlangan paytda kelib chiqqan bo'lsa xam konservativ yoki operativ yo'l bilan xomila to'xtatilishi kerak: aks

xolda o‘lim xavfi ona uchun saqlanib qoladi, to 37% ga yetib perinatal o‘lim kuzatiladi. Terminal bosqichida xomiladorlikni to‘xtatish va olib borish o‘tkir leykoz bilan birday bo‘ladi(batafsil yuqorida bayon etilgan, unga qarang!). Davolash jarayonida , o‘tkir leykozli xomilador ayollardagidan farqli o‘laroq, quyidagilarga ustuvorlik beriladi: 1) boshlang‘ich va II-chi bosqichda umummustahkomlovchi tadbirlar o‘tkaziladi, kuzatish va o‘choqlar infeksiyon tabiatliligida sanatsiya ishlari amalga oshiriladi(SLLda); leykotsitoz to 30\*10<sup>9</sup>/l gacha yetib ko‘paygan bo‘lsa-yu, taloq kattalashmagan yoki yengil o‘zgargan bo‘lib leykogrammaning chapga og‘ishi to miyelotsitlargacha (SMLda)yetib ifodalangan bo‘lsabirlamchi ushlab turuvchi terapiya o‘tkaziladi(ambulatoriya yoki QVP/ SHVSH sharoitida –miyelosan 2-4mg, 7-10 kunda bir marta buyuriladi); qonning nazorat analizlari oyda kamida bir marta amalga oshiriladi. 2)Yoyilgan bosqichida faol kursli sitostatik terapiya buyuriladi: uning sharti leykotsitoz ifodalanishini 120, 0-150.

### XULOSA

Alohida klinik vaziyatlar xisobga olinadi: 1)Agarda istalgan 1-chi xomiladorlik bo‘lsa, xomila oldirishdan bosh tortilsa va XK xomiladorlikning II-va III-chi trimestrida ilk ko‘rinish bergan taqdirda-diafragmadan ustki xududda joylashgan chetki limfatugunlarni lokal nurlantirish kursini o‘tkazib tug‘ishgaruxsat berish mumkin; 2)XK ni 1 va 2 –bosqichida bo‘lib 3 yildan uzoq muddat davomida to‘liq remissiyasi tasdiqlanadigan bo‘lsa, xomiladorlikka ruxsat berish mumkin; 3)XKning 3 yoki 4-chi bosqichida, 5-yillik turg‘un remissiyasi bo‘lgan taqdirda xam, xomiladorlik tufayli albatta retsidivlar bo‘ladi va shuning uchun, bu guruhdagi bemor ayollarga xomilador bo‘lish man etiladi; 4)XK faqat xomiladorlik davrida aniqlangan bo‘lsa-uni to‘xtatish va so‘ng kompleks davo o‘tkazish tavsiya qilinadi; 5)Bolalikda va o‘smirlikda XK boshdan o‘tkazilgan bo‘lsa-yu (u bola va onaga salbiy ta‘sir qilmaydi), kasallik retsidivlanib ko‘rinmayotgan bo‘lsa, kompleks o‘tkazilgan davodan 100%-li samara olingan bo‘lsa va uning natijasi bo‘lib 5 yildan uzoq davom etgan remissiya ishonchli tasdiqlanib berilgan bo‘lsa (mutaxassis gematolog jalb qilingan xolda)-xomiladorlik va tug‘ruq xavf tug‘dirmay o‘tadi, tug‘ishga ruxsat berish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Качковский М.А. , Мамасолиев Н.С., Шукин Ю.В. Ички касалликлар -2015. – “Наманган нашриёти”-Б. 397-410.
2. Гематология: Врачлар учун қўлланма// Н. Н. Мамаев, С. И. Рябов тахрири остида. – СПб.: Махсус адабиёт. -2008-Б. 449-541.
3. Клиник гематология: Врачлар учун қўлланма//А-Н. Богданов ва б. қ. мухаррилиги билан. -СПб.:ООО”Форлиант нашриёти”. -2008. -Б. 465-486.
4. С. Ю. Турсунов, Н. С. Мамасолиев Ички касалликларни аниқлаш ва даволаш. “Андижон нашриёти”. -1997. -Б. 288-294.
5. Померанцев В.П., Цкипура Ю.И. Ички касалликларни аниқлаш ва даволаш бўйича қўлланма. Тула. -1994. -Б. 224-228.
6. Джон Нобель бўйича Умумий Шифокорлик Амалиёти. -Практика. -Москва. -2005-Б. 993-1064.



## KASB -HUNAR MAKTABLARIDA ONA TILI VA ADABIYOTGA QIZIQTIRISH YO'LLARI

*Suvonova Dildora Obidovna*

*Buxoro tuman kasb-hunar maktabi  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada kasb -hunar maktablari o'quvchilarini ona tili va adabiyot faniga qiziqtirish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** notiq, xattot, lug'atshunos, rejissor, aktyor, san'atkor, pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, didaktika.

Ona tili va adabiyot faniga o'quvchilarni qiziqtirish uchun eng avvalo mazkur fan o'qituvchilari quyidagi kasbiy, shaxsiy, amaliy sifatlar sohibi bo'lishlari kerak.

1. Notiq. Mantiq ilmiga asoslangan, haqiqiy ijodiy tafakkurga boy, go'zal, aniq nutq sohibi bo'lishi lozim. Zero, o'quvchilarni tildan maqsadli va o'rinli foydalanishga, sof adabiy tilda so'zlashishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi sof, ta'sirchan nutqiy nafosat egasi bo'lishi talab etiladi.

2. Xattot. Ona tili fanining muhim vazifalaridan biri — o'quvchilarni olgan bilimlarini til me'yorlariga amal qilgan holda yozma nutqda to'g'ri va bexato ifoda etishga o'rgatish. Buning uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi imlo qoidalari asosida yozadigan, yozma savodxon, chiroyli husnixatga ega bo'lishi shart. Buyuk faylasuf Suqrot shunday yozadi: "Yaxshi so'z ko'ngilni, xushxat ko'zni yoritadi".

3. Lug'atshunos. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda lug'atlar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. "O'zbek tilining imlo lug'ati" so'zlarni to'g'ri yozish malakalarini shakllantirsa, "O'zbek tilining sinonimlar lug'ati" tilimizdagi so'zlarning ma'nodoshlik qatori, nutqda ulardan o'rinli foydalanish mahoratini rivojlantiradi. Masalan, 8-sinf ona tili darsligini tashkil etgan "Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash" darslari fan o'qituvchisidan lug'atshunos bo'lishni talab etadi.

4. Senarist. Maktabda muhim sana va bayramlar bilan bog'liq tadbirlar, shoir-yozuvchi, buyuk allomalarga bag'ishlangan g'azalxonlik, ruboiyxonlik, xotira kechalari, qo'yingki, maktab hayoti bilan bog'liq tadbirlar ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarisiz o'tmaydi. Tadbirlar dasturini tuzganda o'qituvchidan ijodiy mahorat va yangicha yondashuv talab etiladi. O'tgan yilgi senariylardan foydalanish o'quvchini zeriktirib, mavzuga bo'lgan qiziqishlari susayishiga olib keladi.

5. Rejissor. Rejissurasi kuchli kinofilmlar, sahna asarlari klassik asarlarga aylanganidek, rejissurasi kuchli o'qituvchilarining o'quvchilari ko'plab muvaffaqiyatlarga erishadi. Bunda o'qituvchining o'tayotgan dars, mashg'ulot va

tadbir bosqichlarini o'quvchilar qiziqishi, qobiliyatlaridan kelib chiqib namunali tashkil etish, boshqara olish mahorati namoyon bo'ladi.

6. Aktyor. Har bir pedagog, birinchi navbatda, "O'qituvchi" obrazini yaratishi lozim. Uyda, ko'chada, ish faoliyatida har xil vaziyatlar bo'lib turadi. O'qituvchining vazifasi har qanday sharoitda ham o'quvchiga yuqori optimistik ruhda sifatli ta'lim berish. Fan nuqtayi nazaridan, ayniqsa, adabiyot darslarida, mashg'ulot va adabiy kechalarda Navoiy, Bobur, Nodira, Zulfiya, badiiy asar qahramonlaridan Alpomish, Barchinoy, Farhod, Shirin, Otabek, Kumush obrazlarini mohirona gavdalantirish o'quvchilarda shaxsiy sifatlarning yuksalib borishiga xizmat qiladi. Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz hayotidan ibrat olish va ularga hurmat tuyg'ulari yuksaladi.

7. San'atkor. Adabiyot ham aslida san'at — so'z san'ati. Adabiyotni sevgan qalb, san'atning boshqa turlarini ham tushunadi. Shunday o'quvchilar borki, darslikdagi mavzuga oid (ilmiy) axborotlarni a'lo bahoga o'zlashtirmaydi. Lekin shu mavzuga doir mo'yqalamda, kashtada, zardo'zlikda (san'atning boshqa turlarida) bajargan ishlari kishini lol qoldiradi. Bunda fan o'qituvchisidan dars, mashg'ulot, sinfdan tashqari tadbirlarda o'quvchilarning iste'dod va qobiliyatlarini anglagan holda yondashish talab etiladi.

8. Shoir-yozuvchi. Maktab davrida qo'lga qalam olib she'r yoki hikoya qoramagan o'quvchining o'zi bo'lmasa kerak. "Yosh qalamkashlar", "Yosh ijodkorlar" kabi to'garaklarda "O'zim yozgan she'rimni, hikoyamni ko'rib bering", deya ustoziga talpinayotgan bu yosh yuraklarning hammasiyam kelajakda shoir yoki yozuvchi bo'lmasligi mumkin. Ammo ular qaysi sohani egallamasin yangilik yaratuvchi, tashabbuskor, ezgu g'oyalar ijodkori bo'lishlari, shubhasiz. Bunda o'qituvchining she'riyatga, badiiy adabiyotga oshuftaligi, adabiyot qoidalaridan xabardorligi, haqiqiy she'r, badiiy qimmatli yuksak asar yozishda muallif mahorati haqidagi bilimlarni o'quvchilar qalbiga singdira olishi maqsadga muvofiqdir.

9. Jurnalist. Ommaviy axborot vositalari ta'lim jarayonini aks ettiruvchi ko'zguidir. Jurnalistika haqidagi ilk tasavvurlar maktab devoriy gazetasi, maktab radioeshittirishlari, o'quvchilar tayyorlagan maxsus maktab nashrlaridan boshlanadi. O'quvchilar respublika yoshlarining "G'uncha", "Tong yulduzi", "Gulxan", "Klass" kabi nashrlarida maqola, reportaj, taassurot, lavhalari chop etilishini, matbuot e'lon qilgan tanlovlarda g'olib bo'lishni orzu qilishadi. Shuningdek, o'qituvchining o'zi ham faoliyati uchun muhim bo'lgan gazeta-jurnallar bilan doimo birga bo'lishi, o'quvchilarni ham shunga undashi, nashrlarning kundalik hayotimizdagi ahamiyati haqida targ'ibot ishlari nazarda tutiladi.

10. Kitobxon. O'quvchilar qalbida mutolaaga mehr uyg'otish, ularni kitobga do'st qilish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi kitobxon bo'lishi lozim.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik

texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to'g'ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo'lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o'quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

O'tilgan u yoki bu mavzu haqidagi nazariy ma'lumotni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda diktantning ahamiyati

katta. Chunki o'quvchi diktant yozayotganda xato qilmaslik uchun orfografik va punktuatsion qoidalarni eslashga harakat qiladi.

Topshiriq: «Har bir soʻz – sehrli texnologiyasidan foydalanib «Men sevgan kasbl mavzusidagi soʻzlarning sehrini oching. «Har bir soʻz – sehrli (10 daqiqali oʻyin). Oʻquvchilar berilgan soʻzlardan soʻz birikmalari tuzadilar, birikmalarning maʼnodoshlarini qoʻllab matn yaratadilar.


Masalan:

<b>Ota</b>	<b>Ona</b>
O – ila boshligʻi T – arbiyachi A – qlli maslahatchi	O – ila bekasi N – amuna koʻrsatuvchi A – ziz inson
<b>Aka</b>	<b>Uka</b>
A – dolatpesha, adolatli K – oʻmakchi doʻst A – ql koʻzgusi	U – mid chirogʻi K – elajak tayanchi A – hillik namunasi
<b>Shifokor</b>	<b>BEMOR</b>
Sh – irin soʻz birodar I – rodali shaxs F – idoyi inson O – riyatli K – amtarin O – dil R – ostgoʻy inson	B – E – M – O – R –

“Hasad bilan emas, havas bilan yashaylik” mavzusida ijodiy esse yaratish.

Unda “MYBT – 4” modulidan foydalaning va mohiyatini tushuntiring?

1. “MYBT- 4” moduli matn yaratishning bosqichli tizimi boʻlib, u 4 bosqichda amalga oshiriladi: soʻz tanlash, soʻz birikmalari hosil qilish, gap tuzish, matn yaratish).



2. «Soʻz, soʻz birikmasi, gap va matn” usulidan foydalanib «Bugungi fermer xoʻjaligining faoliyatil yoki «Men kichik fermer boʻlaman” mavzusida insho yozish. M: Shifokor, bemor, olma, jiyda, oʻquvchilar-ushbu soʻzlardan oldin soʻz birikmalari, soʻngra gap, undan matn hosil qiladilar.

3. «Xatosini toping” oʻyini bu ham guruhlar aro musobaqa tarzida oʻtkaziladi. Vazifani xatosiz, tez bajargan guruh 5 ball bilan baholanadi. Har bir xato uchun 1 ball olib tashlanadi.

4. «Tez va to'g'ri joylashtiring, misol toping deb nomlanadi. Bunda tovushlar kerakli kataklarga joylashtirilib 5 ta so'z yozish topshiriladi va albatta, xatolar hisobga olinadi. shundan so'ng har uchala topshiriq bo'yicha guruhlar to'plagan ball qo'shilib, g'oliblar aniqlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar o'quvchilarni haqiqiy kitobxon etib tarbiyalasak, kelajakda qaysi kasbni tanlamasin, shu sohaning zabardast vakili, yaxshilik qilishni o'z hayotiy shioriga aylantirgan barkamol inson bo'lishiga shubha yo'q.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , "Sharq", 2013.
- Mirsoliyeva M. Pedagogika kollejlarda o'quv – tarbiya jarayonini modernizatsiyalash. –T.: 2012.
- Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , "Iqtisodiyot", 2012.
- "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

**XALQARO VA MILLIY SIFAT MUKOFOTLARI  
MODELLARI VA MEZONLARI**

*Kuatova Shahnoza Baxadir qizi*  
*Maxamatova Nafisa Murodulla qizi*  
*Ismatova Sitara Nabi qizi*

*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti,  
Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish va sertifikatlashtirish kafedrası*  
*2-kurs magistranti*

[shahnozakuatova@gmail.com](mailto:shahnozakuatova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Asosiy xalqaro sifat mukofotlarini qo'llab-quvvatlovchi modellar va mezonlarning tarixiy rivojlanishi yutuqlarini takomillashtirishdan ko'ra ko'proq doimiy yoki bosqichma-bosqich takomillashtirish bilan bog'liq hisoblanadi. Ayniqsa, bunday mukofotlarga nisbatan eng bardoshli bo'lgan - Evropa sifat menejmenti fondi (EFQM) biznes mukammalligi mukofoti, Amerikaning Baldrige Milliy sifat mukofoti (MBNQA) va operatsion mukammallik uchun Shingo mukofoti. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari (UN SDG) kabi tashabbuslar va ular bilan bog'liq bo'lgan takomillashtirish, innovatsiyalar va o'zgarishlarning dolzarbligi, ayniqsa, ijtimoiy yoki ekologik muammolarga nisbatan zarur bo'lgan o'zgarishlarning ko'lami va kattaligi tufayli amalga oshirilyabdi.

**Kalit so'zlar:** sifat, motivatsiya, samaradorlik, mezonlar, model, raqobatbardoshlik, mukofotlar, tahlillar, tanlovlar, g'oliblar.

**Аннотация.** Считается, что историческое развитие моделей и критериев, поддерживающих основные международные премии в области качества, в большей степени связано с непрерывным или постепенным совершенствованием, чем с улучшением достижений. Особенно прочными в отношении таких наград являются премия Европейского фонда менеджмента качества (EFQM) за выдающиеся достижения в бизнесе, Национальная премия качества Америки имени Болдриджа (MBNQA) и премия Шинго за операционное превосходство. Такие инициативы, как Цели устойчивого развития Организации Объединенных Наций (ЦУР ООН), и актуальность улучшений, инноваций и изменений, связанных с ними, стали возможными, особенно благодаря масштабу изменений, необходимых в связи с социальными или экологическими проблемами.

**Ключевые слова:** качество, мотивация, эффективность, критерии, модель, конкурентоспособность, награды, анализ, конкурсы, победители.

**Abstract.** Historical development of models and criteria supporting major international quality awards is driven more by continuous or incremental improvement than by breakthrough improvement. This has been the case in particular relative the

most enduring such awards - the European Foundation for Quality Management (EFQM) Business Excellence Award, America's Baldrige National Quality Award for Performance Excellence (MBNQA), and the Shingo Prize for Operational Excellence. In possible contrast are initiatives such as the United Nations Sustainable Development Goals (UN SDGs) and the imputed urgency for improvement, innovation and change associated with these, due in large to the sheer scope and magnitude of change needed – especially with respect to societal or environmental challenges.

**Keywords:** quality, motivation, efficiency, criteria, model, competitiveness, Awards, analysis, competitions, winners.

## **KIRISH**

Umumiy sifat menejmenti nima va uni amalga oshirish doirasi haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Bir nechta mamlakatlardan kelgan tadqiqotchilar xalqaro sifat mukofotlari va mukammallik sifati modellari ushbu mezonlarga muvofiq sifat mavzularida mukammallikka erishish uchun hayotiy shakl ekanligiga qo'shiladilar. Ammo, agar biz butun dunyo bo'ylab ushbu mukofotlarning mezonlarini sinchkovlik bilan tahlil qilsak, geografik joylarga qarab qo'llanma va baholash sifatida eng heterojen elementni topishimiz mumkin. Ammo haqiqat shundaki, sifat universal tushunchadir va umumiy sifat menejmentiga erishish butun dunyo bo'ylab mezonlar va birlashtirilgan elementlarga muhtoj. Ushbu maqolaning maqsadi madaniy va geografik vaziyatlarga qaramay, dunyoning istalgan kompaniyasida umumiy sifat menejmentini baholash va qo'llash uchun mantiqiy tuzilmani topishdir. Muayyan mukofot modelini yaratish mezonlari va printsiplarining mazmuni tanlovda ishtirok etadigan yoki mukofot modelini boshqarish va takomillashtirish vositasi sifatida ishlatadigan tashkilotlarning biznes falsafasidir.

Mukofot modeli nima? Qoida tariqasida, model ichki munosabatlarga ega bo'lgan va grafik sxema bilan birlashtirilgan baholash mezonlari to'plamidir. Masalan, Rossiya Federatsiyasi hukumatining sifat mukofoti mezonlari va modeli Evropa sifat mukofotiga mos keladi, bu erda mezonlar ikki guruhga bo'linadi: "imkoniyatlar" va "natijalar". Imkoniyatlar guruhiga quyidagilar kiradi:

- 1) etakchilik;
- 2) siyosat va strategiya;
- 3) odamlar;
- 4) sheriklik va resurslar;
- 5) tashkilot jarayonlari. Natijalar guruhiga quyidagilar kiradi;
- 6) iste'molchilarning qoniqishi;
- 7) xodimlarning qoniqishi;
- 8) jamiyatga ta'siri;
- 9) faoliyatning asosiy natijalari;

Mukofot modeli asosida boshqaruv tizimini yaratish uning mezonlariga maksimal darajada mos kelish istagini anglatadi. Takomillashtirish jarayoni yanada aniqroq taqdim etilishi uchun har bir mezon umumiy tashkiliy baholashda raqamli ifoda va og'irlik tarkibiga ega (qoida tariqasida, 1000 ball). Masalan, etakchilik mezoni mos ravishda: Boldrij mukofoti va Yaponiya sifat mukofoti – 120 ball (12%), Evropa va Rossiya mukofotlari – 100 ball (10%). Model ishlab chiquvchilarining fikriga ko'ra, umumiy baholashda ko'proq yoki kamroq vazn boshqaruv tizimi uchun mezonning muhimligini ko'rsatadi. O'z-o'zini baholash va mukofotga asoslangan benchmarking

nafaqat g'oliblarning, balki tanlovning barcha ishtirokchilarining asosiy maqsadlaridan biri bu mukofot mezonlariga javob berish uchun tashkilotning o'zini o'zi baholash usulini ishlab chiqishdir. Va hatto tanlovda ishtirok etmasdan ham, har qanday tashkilot – rivojlanish darajasi qanday bo'lishidan qat'i nazar o'z-o'zini baholash uchun mukofot modelini qo'llashi mumkin. Bu boshqaruv tizimini tizimlashtirish va tuzish, biznes jarayonini tahlil qilish va ustuvor takomillashtirish sohalarini aniqlash imkonini beradi. Doimiy o'z-o'zini hurmat qilish yaxshilanish dinamikasini kuzatish va tashkilotda doimiy takomillashtirish mafkurasini shakllantirishga imkon beradi. 2002 yilgi Yaponiya sifat mukofoti sovrindori Calsonic Harrison kompaniyasining rahbarlari sifatni yaxshilashdagi muvaffaqiyatlarini o'z-o'zini hurmat qilish bilan bog'lashadi: kompaniyaning menejment sifatini yaxshilash bo'yicha ishi o'z-o'zini baholash bo'yicha mutaxassislarining seminarlari bilan boshlandi. 2000 yildan beri ishchilar biznes jarayonining har bir bosqichini ichki baholaydilar va sifatli hisobotlarni tayyorlaydilar. Natijada 2000 va 2002 yillarda mintaqaviy sifat tanlovlarida g'olib bo'ldi va 2002 yilda Yaponiya sifat mukofotiga sazovor bo'ldi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sifat mukofotlari nafaqat tashkilotlarni mukofotlash, balki biznesdagi sifatning ahamiyatini tan olishdir. Ushbu mukofotlar ko'pincha xodimlar va mijozlar o'rtasida sifatning ahamiyati to'g'risida xabardorlikni oshirish vositasi sifatida ishlatiladi. Ular, shuningdek, mijozlar ehtiyojini qondirish va xodimlarning ma'naviyatini yaxshilashga yordam beradi. Tashkilotda sifat menejmenti tizimlarini qurish muammolari nuqtai nazaridan, birinchi turdagi sifat mukofotlari modellari biz uchun ko'proq qiziqish uyg'otadi, chunki model mezonlari faqat individual faoliyat natijalarini baholashni, balki umuman kompaniya faoliyatini tashkil etish va boshqarishni qamrab oladi, bu esa sifat sohasida natijalarga erishishga imkon beradi.

Masalan, Rossiya kompaniyalari, shuningdek, mukofot mezonlari bo'yicha o'z-o'zini baholash usulini qabul qilmoqdalar. Bu erda milliy tanlov ishtirokchilarining ba'zi fikrlari keltirilgan:

- "Biz tanlovda ishtirok etishning asosiy maqsadi laureat yoki diplomat unvoni emas, balki o'z faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlarini maqsadli takomillashtirish orqali o'z-o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan o'z-o'zini hurmat qilish ekanligiga



o'z tajribamizdan amin bo'ldik "(N. V. Pushnitsa, "G'arbiy Sibir metallurgiya zavodi" OAJ).

- "Mukofot mezonlari bo'yicha o'z–o'zini baholash, birinchi navbatda, o'zimizga tashqi tomondan qarash, o'z faoliyatimizni tahlil qilish va uning bahosini tanlov g'oliblari olgan baho bilan taqqoslash imkoniyatidir. Shu sababli, rahbarlardan orqada qolishingizni yo'q qilish yoki kamaytirish uchun uni rivojlantirish va takomillashtirish kerakligi aniq bo'ladi. Shuning uchun, o'z–o'zini hurmat qilish o'zini takomillashtirish vositasi deb hisoblaydiganlar to'g'ri" (A. O. Juravlev, "Sevkabel"OAJ).

O'z-o'zini hurmat qilish sifat mukofotlarining asosiy xususiyatlaridan birini o'z ichiga oladi, bu ularni nafaqat xizmatni tan olish belgisi, balki tashkilotga o'z yutuqlari va kamchiliklarini, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yoki kelajakdagi vazifalarni aniqlashga yordam beradigan protsedura qiladi.

Sifat mukofotlari taqdim etadigan yana bir takomillashtirish imkoniyati – bu benchmarking.

Sifat mukofoti homiyligida benchmarking rivojlanishining yorqin namunasi Evropa sifat menejmenti jamg'armasi tajribasidir . Ushbu tashkilot Evropa tashkilotlariga benchmarking usulini o'rganish va qo'llashda yordam berish vazifasini qo'yadi, ya'ni:

- benchmarkingga o'z yondashuvingizni tizimlashtirish;
- bilim va tajriba almashish;
- o'z sohangizda va undan tashqarida boshqaruv muammolarini hal qilishning eng yaxshi yondashuvlarini bilib oling;
- global tarmoq orqali ma'lumot almashish va muloqotni rivojlantirish.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, biz kompaniyalar tanlovda qatnashish yoki mukofot modellarini boshqarish vositasi sifatida ishlatish orqali oladigan imtiyozlarni shakllantiramiz. Tanlovda g'olib bo'lish – bu biznes hamjamiyati va iste'molchilar tomonidan tashkilotning etakchiligini tan olish. Biznes sheriklari va barcha manfaatdor tomonlar tashkilotning yuqori sifatli ishlashi va ishonchliligi to'g'risida tasdiqlanadilar. Boshqaruv tizimining samaradorligini mustaqil ekspert baholash amalga oshiriladi va ustuvor yaxshilanishlar zarur bo'lgan sohalar aniqlanadi. Tanlovda ishtirok etish biznes sifatini yaxshilashga intilayotgan kompaniyaning imidjini shakllantiradi. Sifat mukofotidan boshqaruv vositasi sifatida foydalanish :

Mukofot modeli va mezonlari kompaniyani rivojlantirish uchun tayyor strategiyani taklif qiladi. Doimiy takomillashtirish tamoyillari asosida samarali boshqaruv tizimi yaratilmoqda. Sifatni yaxshilash bo'yicha barcha harakatlar tizimlashtirilgan. Ko'rib turganingizdek, boshqaruv vositasi sifatida sifat mukofotlaridan foydalanish ko'proq afzalliklarga ega. Va ko'plab mamlakatlarda mukofot modellari haqiqatan ham menejerlar arsenalida munosib o'rin egalladi. Biroq, Rossiyada milliy mukofotning modeli va mezonlari hali ham oz sonli kompaniyalar

uchun takomillashtirish vositasiga aylandi. Rossiya sifat mukofoti tashkilotlar uchun bunday tadbirlarga xos bo'lgan barcha ijobiy va salbiy tomonlari bilan ko'plab tanlovlardan birida mukofot bo'lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sifat menejmenti: 1-jild. Sifatni ta'minlash asoslari. V. N. M. Azarovning umumiy tahririyati ostida: MGIEM, 1999.326 s.ISBN 5-230-16284-8.
- 2.GOST R 59915-2021 Rossiya Federatsiyasi hukumatining viloyatdagi sifat mukofotlari.Tanlovni o'tkazish bo'yicha qo'llanma [elektron resurs] kirish. 01.04.2022 Texnik tartibga solish va metrologiya federal agentligining 9-sonli buyrug'i bilan N 1746-st/ kirish rejimi: <https://docs.cntd.ru/document/1200182096>
3. Kotler F. Armstrong G., Sonders D. Marketing asoslari. M., Spb, K.: Nashr. Wilyams Uyi, 1999 Yil. 1152 p. 39
4. Gusakov yu. A. menejmentning ilg'or modellari-Evropa metodologiyasini joriy etish. // Sertifikatlash. – 2011. – No 1.
5. <https://www.sluceartfair.com/2019/contributing/what-are-the-international-quality-awards/>
6. [studfile.nite](http://studfile.nite)
7. <https://www.cfin.ru/management/iso9000/awards.shtml>

## O'ZBEKISTON RESBUBLIKASIDA GENDER TENGLIGI

*Abdurahmonov Xudoberdi Erkinjon o'g'li*

*Namangan davlat unversiteti yuridik fakulteti yurisprudensiya yunalish*

*YU-AU8-23 guruh 1 bosqich talabasi*

**Anontatsiya:** ushbu maqolamda hozzirgi kundagi O'zbekiston Respublikasida gender tengligiga qanday etibor berilayotgani, va gender tengligi buyicha takkomillashuvga erishilyotgani,shuni ham aytib utamanki, O'zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasini amalga oshirish va gender tenglikka erishish uchun qanday say harakatlar olib borilayotgani.va gender tengligini asosiy maqsadi bu1) huquqiy va ijtimoiy normalar va qoidalarni o'zgartirish.2) ayollarning iqtisodiy va intellektual mustaqilligini oshirish, 3) ma'lumotlarni to'plash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish.haqida etirof etilgan.

**Kalit so'zlar:** gender tengligi, say harakat, strategiya, ijtimoiy norma, etibor, O'zbekiston Respublikasi.

Gender tengligi bu- Gender lotincha genus (inglizchada gender) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida jins ma'nosini beradi. Fanga genderlik tadqiqotlari tushunchasi XX asr o'rtalarida kirib kela boshladi. Gender terminini 1952-yilda Yangi Zelandiyalik Ruhshunos olim Jon Mani o'z ilmiy tadqiqotlarida birinchi qo'llagan.

Gender tengligi va jinsiy tenglik, haqida aniqroq malimot beradigan bulsak erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra [1], gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi[2]. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Bilamizki O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida bir necha ming, qonunun va shartnomalar imzolangan hisoblanadi. Ularning 100ga yaqini insoh huquq va erkinliklarini himoya qilish va gender tengligiga oid . Bular: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Asambleyasi tomonidan qabul qilingan, Inson huquqlari umum jahon deklaratsiyasi, BMTning ayollarga nisbatan barcha turdagi kamsitishlarni yuq qilish,to'risida konvensiyasi, Ming yillik rivojlanish maqsadlari,barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqala

O'zbekiston Respublikasining qonuni , Xotin va qizlar va erkakalar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'risida . qonuni qabul qabul qilindi ushabu qonuni masadiga keladigan bulsak, 1-modda.sida aytib utilgan, Ushbu Qonunning maqsadi. Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda

imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat Deb aytib utilgan. Yana bir qarorga tuxtaladigan bulsak,

O'zbekiston Respublikasi, Oliy Majlis Senati qarori 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida. Ushbu qarorni asosiy vazifasi shundan iboratki unda:

So'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi.

### **Oldingi tahrirga qarang.**

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. (Muqaddimaning uchinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrda SQ-682-IV-sonli qarori tahririda) O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so'm mablag' ajratib borish yo'lga qo'yildi.

Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egalladi. O'zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko'rsatib kelgan.

BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi qabul qilinib, mamlakatimiz

uchun dolzarb hisoblangan 16 ta milliy maqsadga erishish bo'yicha 125 ta maqsadli vazifa hamda 206 ta indikator ishlab chiqilgan.

Hozirgi dunyoda gender tengligini taminlash maqsadida turli hil qarorlar qabul qilinyabdi jumlada; Gender tenglikni ta'minlash masalasi dunyo bo'ylab muhim ahamiyatga ega. BMT tomonidan qabul qilingan hujjatlarda, xususan, 2015 yil qabul qilingan 70-sonli rezolyusiyada bu o'z ifodasini topgan. BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda "O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari" qabul qilingan. O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad – "Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"dir.

Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa choralarni qamrab oladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat organlari va tashkilotlari, muassasalari, shuningdek, davlat ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari mas'ul. 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida milliy qonunchiligimizda ham o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, joriy yil 2 sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda "gender" tushunchasiga ta'rif berildi. Unga ko'ra, gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. "Gender" tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha "genus", ya'ni "jins" ma'nosini anglatadi. Agarda, biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo'lsa, gender – bu ayol va erkaklarning jamiyatdagi o'rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ushbu oliy yuridik kuchga ega qonun hujjatida qonun va huquq ijodkorligi sohasida yangi yo'nalish – gender-huquqiy ekspertizasi joriy etildi.

Xususan, gender-huquqiy ekspertizasi normativ-huquqiy hujjatlar va uning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish hisoblanadi. Xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari sifatida mazkur qonunning 4-moddasiga muvofiq qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarga teng huquqlik, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik va shaffoflik kabi prinsiplar belgilandi. Gender-huquqiy ekspertizani o'tkazish

vakolatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlarga yuklatildi. Ularning har biri o'z faoliyati yo'nalishidan kelib chiqib normativ-huquqiy hujjatlar va uning loyihalarini tahlil qiladi hamda gender-huquqiy ekspertiza xulosasini qabul qiladi. Qonunda normativ-huquqiy hujjatlar va uning loyihalarini tahlil qilishning muhim jihatlari belgilangan. Jumladan, jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish imkoniyati yaratilgan normativ-huquqiy hujjat yoki uning loyihasi xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash prinsiplariga muvofiq emasligi aniqlanadi.

Bunday hujjat loyihasini qabul qilish oqibatlarini baholanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, kamsitish xususiyatiga ega xavflar aniqlanadi. Ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, gender statistikasini yuritish masalasini belgilash ushbu qonunda aks ettirilgan asosiy normalardan biridir. Unga ko'ra, davlat statistika organlari gender ko'rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig'adi, unga ishlov berib, to'plashni, saqlashni, tahlil va e'lon qilishni amalga oshiradi.

Qayd etish kerakki, qonun yurtimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Shuningdek, unda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari kabi masalalar ham belgilandi. Xususan, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasi gender tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi –xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish. Ushbu sohada davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha har yili Oliy Majlisga axborot taqdim etadi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash va bu borada xalqaro standartlarga rioya etish sohasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Qonunning e'tiborga molik jihati shundaki, unda insonlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini ta'minlashda gender tenglikni saqlashga oid normalar mavjud. Xususan, davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash, masalan, davlat xizmatida xizmatchilarning lavozim toifalarini hisobga olgan holda bir jinsdagi xodimlarning lavozimlarni egallashi uchun kvotalash tizimini belgilashni nazarda tutuvchi gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralarni qo'llashga ruxsat berilishi, davlat organlari rahbarlari lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqligiga rioya etilishi zarurligi kabi talablar belgilandi

Bundan tashqari, siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatligiga nomzodlar qo‘rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta‘minlanishi nazarda tutildi. Zero, Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga muvofiq ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o‘ttiz foizini tashkil etishi kerakligi belgilangan. Ushbu norma xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlashning asosiy prinsiplariga to‘liq mos keladi.

Qonun bilan iqtisodiy sohada xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari ham belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, davlat organlari va mulk shaklidan qat‘i nazar, tashkilot rahbarlari jamiyatning resurslaridan teng foydalanishini ta‘minlashi shart. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlaydi. Deb belgilab quyilgan.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunlarda gender tengligini takomillashtirish va rivolantirish uchun harakatlar amalga oshirib borilmoqda va Jumladan;

**O‘zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasini amalga oshirish va gender tenglikka erishish.**

**Loyihaning maqsadi:**

Gender tengligi va xotin-qizlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sohasidagi tizimli o‘zgarishlarni ilgari surish uchun jamiyatda mustahkam o‘rnashib olgan stereotiplar va me‘yorlarni o‘zgartirish maqsadga muvofiq.

Buning uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- 1) huquqiy va ijtimoiy normalar va qoidalarni o‘zgartirish.
- 2) ayollarning iqtisodiy va intellektual mustaqilligini oshirish,
- 3) ma‘lumotlarni to‘plash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish.

Loyihaning asosiy hamkori O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Xotin-qizlar va oila masalalari qo‘mitasi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat statistika qo‘mitasi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy qo‘mita, Ombudsman, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

**Kutilayotgan natijalar:**

2025 yilga kelib yoshlar, ayollar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari turmush sharoitlari yaxshilanadi, munosib mehnat va keng qamrovli hamda adolatli iqtisodiy o‘sish natijasida yaratilgan imkoniyatlardan bahramand bo‘ladilar ayollar, yoshlar va chekka qishloqlar aholisi yaxshi malaka, barqaror ish o‘rinlari va mustahkamlangan turmush sharoitlaridan foydalanadi.

Nliklardan foydalanishda jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik ayrim ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etilmaydi. Chunonchi, bola tug'ish va ona suti bilan oziqlantirish, muddatli harbiy xizmatga chaqirish, gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar, xotin-qizlar va erkaklarning mehnatini muhofaza qilishda reproduktiv salomatlikni saqlash xususiyatlari, kasbiy malakaga doir tavsiyalar berish, qamoqda saqlash, jazoni ijro etish joylarida saqlash tartibi va shartlari hamda huquqiy jihatdan ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini tartibga solishda farqlarni belgilash jins bo'yicha kamsitish hisoblanmaydi. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda gender tenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu mamlakatimizning inson huquqlari sohasidagi ilg'or qadamlaridan biri sanaladi. Yangi qonun buning yaqqol dalili bo'lib, kelgusida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tanlashga hissa qo'shadigan tarixiy hujjat bo'ldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan. O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

#### **Foynalanilgan Adabiyotlar:**

1. <https://lex.uz/docs/44948> O'zbekiston
2. Oiy majlis senati qarori Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasini amalga oshirish va gender tenglikka erishish.
3. Gender i kultura. – Dushanbe: Aziya-plyus, 1999. – 96 s. 3. Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulture. – Moskva, 1985. – S. 142-159.
4. <http://www.gender-cent.ryazan.ru/lecturers.htm#blohina>
5. Money, John. (1952). Hermaphroditism: An Inquiry into the Nature of a Human Paradox. Thesis (Ph.D.), Harvard University press.



6. Stoller R. J. Sex and Gender: The Development of Masculinity and Femininity. – United Kingdom: Routledge, 1994. – 400 p.
7. Zdravomislova Ye.A., Temkina A.A. Sotsialnoe konstruirovaniye gendera. Sb. “Vozmojnosti ispolzovaniya kachestvennoy metodologii v gendernix issledovaniyax”. – Moskva, 2001. – S. 49.
8. Jamoldinova O.R. Ta’lim tizimida gender yondashuvni tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O‘zbek ILMIY-METODIK JURNALI. 2022-yil, 1-son. B. 17- 25. <https://doicode.ru/doifile/regdoi/2022/06/doicode-2022.055.pdf>.
9. Бахронова Д.К. ГЕНДЕР И ЦЕЛЕВЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ // Гендерные исследования в гуманитарных науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. № 3. – Новосибирск: СибАК, 2015.
10. Жамолдинова О., Эгамбердиева Т., Солихўжаева Д. Олий таълим тизимида гендер ёндашув: бугун ва келажак тамойиллари. Услубий қўлланма – Тошкент,
11. O‘zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasini amalga oshirish va gender tenglikka erishish qaror
12. O‘zbekiston Respublikasi, Oliy Majlis Senati qarori 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida.or

## ВОПРОСЫ ДИАГНОСТИКИ ОСТРОГО ПАНКРЕАТИТА (Обзор литературы)

*Муродуллаев Сардорбек Олимжон угли*

*Самаркандский филиал Республиканского Научного Центра*

*Экстренной медицинской помощи*

*Шоназаров Искандар Шоназарович*

*Самаркандский государственный медицинский университет*

**Резюме.** В литературном обзоре отмечено, что несмотря на постоянное совершенствование диагностических подходов, развитие новых методов консервативной интенсивной терапии и принципов хирургического лечения, частота летальных исходов острого панкреатита сохраняется на высоком уровне. В настоящее время данный показатель колеблется от 10 до 30%. При этом летальность на ранней стадии заболевания в большинстве случаев не превышает 15%, тогда как на поздней стадии при развитии гнойно-септических осложнений достигает 70%. Поэтому, разработка и развитие новых методов диагностики, консервативной интенсивной терапии, и внедрение принципов доказательной медицины в течение последнего десятилетия позволило несколько изменить структуру летальности.

**Ключевые слова.** Острый панкреатит, прогнозирование, диагностика.

Тяжёлый острый панкреатит (ТОП) это первоначально асептическое воспаление поджелудочной железы, при котором имеется поражение окружающих тканей, органов и функциональных систем. Распространённость острого панкреатита в разных странах составляет от 32 до 389 случаев на 1 млн населения (12). При этом частота деструктивных форм заболевания достигает 25% (11).

Задача успешного лечения больных с тяжёлым острым панкреатитом представляется актуальной для неотложной хирургии. Тенденция последних десяти лет указывает на увеличение частоты развития острого панкреатита более чем в два раза, в том числе его тяжёлых форм. Острый панкреатит на протяжении многих лет занимает ведущее место в структуре причин госпитализации пациентов в хирургический стационар (18)

Частота летальных исходов ТОП сохраняется на высоком уровне, находясь в диапазоне от 10 до 30%. При этом летальность на стадии гнойно-септических осложнений ТОП достигает 70%.

Неблагоприятные исходы наблюдаются не в фазу ферментной токсемии и развития панкреатогенного шока, а на стадии инфекционно-воспалительных осложнений, когда причиной летальных исходов становится развитие тяжёлого

септического состояния (12). Развитие гнойно-септических осложнений ТОП наблюдается с частотой от 30 до 50%. Данные осложнения являются ведущим фактором летальных исходов при ТОП.

Одной из наиболее актуальных задач лечения ТОП остаётся выбор оптимальной тактики хирургического пособия в стадии гнойно-септических осложнений (18). Исследования показывают неэффективность подхода к лечению ТОП в стадии гнойно-септических осложнений, подразумевающего консервативную тактику ведения больных (15). На сегодняшний день не разработано комплекса согласованных унифицированных принципов хирургического лечения ТОП. Также не определено оптимальное время начала оперативного вмешательства, продолжается дискуссия по поводу основных технических аспектов хирургического лечения и методов дренирования (17).

Причиной развития острого панкреатита, на которую приходится более половины всех случаев заболевания, является алиментарный фактор. Развитие заболевания происходит вследствие рефлексорного спазма сфинктера Одди. При невозможности попадания панкреатических ферментов в просвет двенадцатиперстной кишки происходит их активация с последующим аутолизом поджелудочной железы и окружающих тканей. Доля острого панкреатита в структуре заболевания составляет 55% (2).

Второй по частоте причиной развития ТОП является билиарный фактор, приводящий к рефлюксу желчи в панкреатические протоки в условиях билиарной гипертензии, являющейся следствием таких патологических состояний, как холедохолитиаз, папиллит. Доля билиарного панкреатита составляет 35% от всех факторов заболевания (12,18).

Значительно реже встречается острый травматический панкреатит, развивающийся в результате травмы поджелудочной железы. В эту же категорию относят послеоперационный панкреатит. Кроме этого, заболевание может быть следствием проведения эндоскопической ретроградной холангиопанкреатографии (ЭРХПГ). Частота острого травматического панкреатита составляет 2 – 4% от всех этиологических факторов заболевания (Graham P.M., 2018).

На другие этиологические факторы ТОП (4) приходится 6 – 8%, среди данных причин выделяют: аутоиммунные заболевания; сердечно-сосудистую недостаточность; воздействие различных лекарственных препаратов (меркаптопурин, гипотиазид, гормональные средства, нестероидные противовоспалительные препараты); васкулиты; инфекционные заболевания (гепатит, вирусный паротит, цитомегаловирус); аллергические и анафилактические реакции (лекарственные препараты, бытовые и пищевые аллергены); нарушение гормонального статуса в период беременности и во время менопаузы; заболевания органов, граничащих с поджелудочной железой

(дуоденит, пенетрация язвы двенадцатиперстной кишки, новообразования в гепатопанкреатодуоденальной области).

В настоящее время применяется классификация острого панкреатита, разработанная обществом хирургов. Основой для разработки данной классификации стали классификации Атланта–92, и модификация предложенная Международной Ассоциацией панкреатологов в 2011 году и Международной рабочей группой по классификации острого панкреатита в 2012 году (10).

В основе современных классификаций острого панкреатита лежит разделение заболевания на три степени тяжести:

1) Острый панкреатит лёгкой степени. Данная форма заболевания предполагает развитие отёчного панкреатита, при этом не происходит формирование некрозов поджелудочной железы и органной (полиорганной) недостаточности.

2) Острый панкреатит средней степени. Для данной формы характерно наличие одного из местных проявлений острого панкреатита: перипанкреатического инфильтрата, отграниченного инфицированного некроза поджелудочной железы, псевдокисты, абсцесса, развитие системных проявлений в виде транзиторной органной (полиорганной) недостаточности длительностью не более 48 часов.

3) Острый панкреатит тяжёлой степени. Предполагает наличие одного, либо двух следующих признаков:

- гнойно-некротический парапанкреатит, неотграниченный инфицированный некроз поджелудочной железы;

- персистирующая органная (полиорганная недостаточность) длительностью более 48 часов.

Разделение заболевания на три формы имеет практическое значение, так как в зависимости от степени тяжести острого панкреатита должна быть реализована тактика проведения лечебно-диагностических мероприятий. Больные со средней и тяжёлой формой заболевания должны быть помещены в условия отделения реанимации и интенсивной терапии, пациенты с лёгкой формой проходят лечение в хирургических отделениях (7).

Важным в практическом отношении аспектом является патогенетическое разделение ТОП по фазам течения (6,12);

I фаза (ранняя) – первые 14 суток от начала заболевания – два периода:

- фаза IA – первая неделя развития ОП. Характеризуется формированием очагов некроза в поджелудочной железе, окружающей клетчатке, а также развитием эндогенной интоксикации (ЭИ). Клиническими проявлениями ЭИ являются признаки органной или полиорганной дисфункции.

- фаза IV длится в течение второй недели развития заболевания. Клинические проявления ОП в данной фазе связаны с реакцией организма на очаги некроза и проявляются резорбтивной лихорадкой. Также для IV фазы характерно формирование перипанкреатического инфильтрата.

II фаза (поздняя) – фаза секвестрации, начинается после 14-ых суток от начала ОП, и может продолжаться в течение нескольких месяцев. В данной фазе происходит формирование секвестров. Фаза секвестрации может протекать в виде одного из следующих вариантов:

- асептическая секвестрация – представляет собой стерильный вариант течения заболевания, характеризуется формированием псевдокист поджелудочной железы и изолированными скоплениями жидкости;

- септическая секвестрация имеет место при развитии инфицированного некроза ПЖ и гнойно-септических осложнений, характерным для данного варианта является образование абсцесса или гнойно-некротического парапанкреатита (3,5).

Перечень методик, необходимых для проведения диагностических мероприятий во многом зависит от фазы развития ТОП, а также от возможностей лечебного учреждения. Основными клиническими признаками заболевания, выявляемыми при первичном осмотре пациента, является триада симптомов (8): боль в эпигастриальной области с иррадиацией в спину или опоясывающая боль, рвота, как правило, многократная, ригидность мышц живота.

В большинстве случаев в первичной диагностике ТОП существенное значение имеют анамнестические данные: употребление алкоголя, обильный приём жирной пищи, наличие желчнокаменной болезни.

Одним из наиболее доступных и точных методов инструментальной диагностики ТОП является ультразвуковое исследование (УЗИ). Характерными признаками острого панкреатита при проведении УЗИ являются изменения поджелудочной железы (снижение эхогенности, увеличение размеров, нечёткость контуров), а также наличие свободной жидкости в брюшной полости. (11). При сомнительных признаках заболевания по данным УЗИ пациенту показано выполнение спиральной или мультиспиральной компьютерной томографии с контрастным усилением. (4) Данные методики позволяют более чётко визуализировать очаг поражения, определить размер некроза поджелудочной железы. С этой же целью возможно применение магнитно-резонансной томографии (МРТ) (1). Среди показаний для проведения КТ или МРТ при диагностике ТОП выделяют: необходимость проведения дифференциальной диагностики с другими заболеваниями; необходимость выявления тяжёлой формы заболевания при наличии клинических признаков ТОП; отсутствие положительной или наличие

отрицательной динамики течения ТОП, несмотря на проведение консервативной терапии в полном объёме (3,12).

Оптимальными сроками для проведения КТ или МРТ с целью диагностики ТОП считают 4 – 14 сутки от начала заболевания, выполнение данных исследований в срок до 4-х суток может быть недостаточно информативным, так как в этот период происходит формирование некроза поджелудочной железы.(7,12). Целесообразно выполнение КТ или МРТ перед проведением оперативного вмешательства с целью определения его возможного объёма и уточнения характера патологических изменений. Необходимо выполнение КТ или МРТ в случае прогрессирования ТОП, при развитии гнойно-септических осложнений для определения очага инфицирования перед выполнением дренирующих операций. С целью определения тяжести заболевания и прогнозирования его течения возможно применение КТ–индекса тяжести панкреатита по Balthazar (12).

Среди лабораторных методов исследования основным является определение уровня панкреатических ферментов в крови и в моче. Наиболее простым методом лабораторной диагностики является определение уровня амилазы в крови. Диагностически значимым считается повышение данного показателя в три и более раза по сравнению с верхним референтным значением. Повышенные уровни амилазы в крови наблюдаются при паротите, патологии лёгких и ЖКТ. При тяжёлых формах некроза поджелудочной железы уровень амилазы в крови может быть повышен незначительно или находится в пределах нормы. Данное обстоятельство обусловлено тем, что при обширном поражении поджелудочной железы активированные ферменты не резорбируются в кровеносное русло, а попадают в брюшную полость.

### **Литература.**

1. Каприн И.А. Хирургическое лечение и осложнения операций при остром панкреатите тяжёлого течения / Каприн И.А., Эльдарова З.Э., Глабай В.П. // Исследования и практика в медицине. 2018. - Т. 5. - №4. - С. 72-81.
2. Agha R.A. The SCARE 2018 statement: updating consensus Surgical CAse REport (SCARE) guidelines / Agha R.A., Borrelli M.R., Farwana R. et al. // Int. J. Surg. 2018. –60. – P. 132–136.
3. Bartoş D. Endoscopy-assisted, single trans-gastric trocar, laparoscopic pseudocysto-gastrostomy. A minimally invasive alternative for drainage of large pseudocysts / Bartoş D., Bartoş A. // Ann. Ital. Chir. 2020. – 91. – P. 112-115.
4. Cho J.H. Comparison of scoring systems in predicting the severity of acute pancreatitis / Cho J.H., Kim T.N., Chung H.H., Kim K.H. // World J. Gastroenterol. 2015. – 21. – P.2387–2394.
5. Dhir V. EUS-guided pseudocyst drainage: prospective evaluation of early removal of fullycovered self-expandable metal stents with pancreatic ductal stenting in selected patients /Dhir V., Teoh A.Y., Bapat M. et al. // Gastrointestinal endoscopy. 2015. -

82(4). – P. 650–657.

6. Dieker W. Pancreatitis, panniculitis and polyarthritits (PPP-) syndrome caused by post-pancreatitis pseudocyst with mesenteric fistula. Diagnosis and successful surgical treatment. Case report and review of literature / Dieker W., Derer J., Henzler T. et al. // *Int.J. Surg. Case Rep.* 2017. – 31. – P. 170–175.

7. Dua M.M. Isolated pancreatic tail remnants after transgastric necrosectomy can be observed / Dua M.M., Jensen C.W., Friedland S. et al. // *J. Surg. Res.* 2018. – 231. –P.109–115.

8. Fei Y. Predicting and evaluation the severity in acute pancreatitis using a new modelingbuilt on body mass index and intra-abdominal pressure / Fei Y., Gao K., Tu J. et al. // *Am.J. Surg.* – 2018. – 216. – P. 304–309.

9. Gallyamov E.A. Comparison of minimal invasive technologies for treatment of infected pancreatic necrosis / Gallyamov E.A., Agapov M.A., Busyrev Y.B. et al. // *Khirurgiia (Mosk).* – 2020. – 3. – P. 22-28.

10. Gomatos I.P. Outcomes from Minimal Access Retroperitoneal and Open Pancreatic Necrosectomy in 394 Patients with Necrotizing Pancreatitis / Gomatos I.P., Halloran C.M.,Ghaneh P. et al. // *Annals of surgery.* 2016. - 263(5). – P. 992–1001.

11. Gomes C.A. Severe acute pancreatitis: eight fundamental steps revised according tothe 'PANCREAS' acronym / Gomes C.A., Di Saverio S., Sartelli M. et al. // *Ann. R.Coll. Surg. Engl.* – 2020. – 11. – P. 1-5.

12. Hines O.J. Management of severe acute pancreatitis / Hines O.J., Pandol S.J. // *BMJ.*2019. – 367. – P. 16227.

13. Jacob A.O., Stewart P., Jacob O. Early surgical intervention in severe acute pancreatitis:central Australian experience. *ANZ J. Surg.* 2016. - 86(10). – P. 805–810.

14. Langenhan R. Osteomyelitis: A rare complication of pancreatitis and PPP-syndrome /Langenhan R., Reimers N., Probst A. // *Joint Bone Spine.* 2016. - 83. –P. 221–224.

15. McPherson S.J. The use of imaging in acute pancreatitis in United Kingdom hospitals:findings from a national quality of care study / McPherson S.J., O'Reilly D.A., SinclairM.T., Smith N. // *Br. J. Radiol.* 2017. - 90(1080). – P. 20170224.

16. Siddiqui A.A. Fully covered self-expanding metal stents versus lumen-apposing fullycovered self-expanding metal stent versus plastic stents for endoscopic drainage of pancreatic walled-off necrosis: clinical outcomes and success / Siddiqui A.A., KowalskiT.E., Loren D.E. et al. // *Gastrointestinal endoscopy.* 2017. - 85(4). – P. 758–765.

17. Stigliano S. Early management of acute pancreatitis: a review of the best evidence /Stigliano S., Sternby H., de Madaria E. et al. // *Dig Liver Dis.* 2017. – 49. – P. 585–594.

18. van Grinsven J. Timing of catheter drainage in infected necrotizing pancreatitis: NaturePublishing Group / van Grinsven J., van Santvoort H.C., Boermeester M.A. et al. // *Nat.Rev. Gastroenterol. Hepatol.* 2016. – 13. – P. 306–312.

## HOMILA GEMOLITIK KASALLIGIDA INVAZIV DAVOLASH USULI EFFEKTIVLIGINI O'RGANISH

*Nasirova D. Y., Saidjalilova D. D.*

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston*

### ANNOTASIYA

Hozirgi kunda perinatal tibbiyotning sezilarli rivojlanishiga va rezus immunizatsiya profilaktikasi o'tkazilishiga qaramasdan, rezus nomutanosiblik fonida homila va yangi tug'ilgan chaqaloqlar gemolitik kasalligini aniqlash va davolash dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Homila va yangi tug'ilgan chaqaloqlar gemolitik kasalligi asosan ona va homila rezus nomutanosibligi natijasida yuzaga keladi. Buning oqibatida antenatal, intranatal hattoki erta neonatal davrda ham homila va chaqaloqlar o'limi kuzatiladi. Homila gemolitik kasalligini (HGK) erta aniqlash va og'irlik darajasini to'g'ri baholagan holda invaziv diagnostik va davolash usullarini qo'llab homilani saqlab qolish perinatal tibbiyotning asosiy maqsadidir [1]. Homila gemolitik kasalligida homila ichi qon quyishning effektivligi o'rganildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gemolitik kasallik tashxisi 0,6-0,9 % holatda qo'yilmoqda. O'z vaqtida tashxislash va davolash homila ichi gipoksiyasini rivojlanishini, shuningdek kasallikning og'ir shakllarini yuzaga kelishini oldini oladi.

**Kirish.** Yangi tug'ilgan chaqaloqlar va homila gemolitik kasalligi – izoimmun gemolitik kamqonlik, homila va ona qoni eritrositar antigenning bir biriga mos kelmasligi bo'lib, unda antigen homila eritrositida joylashgan bo'lib, antitana esa ona organizmida ishlab chiqariladi [2]. Hozirgi kunda O'zbekistonda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gemolitik kasallik tashxisi 0,6-0,9 % holatda qo'yilmoqda. O'z vaqtida tashxislash va davolash homila ichi gipoksiyasini rivojlanishini, shuningdek kasallikning og'ir shakllarini yuzaga kelishini oldini oladi. Homila gemolitik kasalligi hozirgi kungacha dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. HGK jiddiy asoratlarga, erta invalidizatsiyaga va bolaning hayot sifatining pasayishiga sabab bo'ladi. Rezus immunizatsiyaning oldini olish usuli anti-Rh(D) - immunoglobulinini yuborish bo'lib, rezus antitananing hosil bo'lishini oldi olinadi va bu HGKni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Lekin kuzatuvdagi bemorlarimiz anti-Rh(D) - immunoglobulinini o'z vaqtida olmagan. Yuqoridagilar mavzuning dolzarbligini va homila va ona eritrositar antigenining nomutanosibligida homila ichi qon quyishning samaradorligini baholash muhimligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Homila gemolitik kasalligida homila ichi qon quyishning samaradorligini o'rganish



**Tekirish materiallari va usullari.** Respublika perinatal markazi homiladorlar patologiyasi bo'limidagi bemorlarda retrospektiv tekshiruv o'tkazildi. (60 nafar bemor) Tekshiruv davomida ona va ota hayot anamnezi, bemorning akusherlik anamnezi (homiladorlik, tug'ruqlar va abortlar soni). Asosiy e'tibor instrumental va laborator tekshiruvlarga qaratildi. (UTT, homila qog'onoq suvlari va qoni tekshiruvi, homila o'rta miya arteriyasi doplerometrik tekshiruvi), shuningdek ginekologik tekshiruvlar o'tkazildi. [3]. Rezus manfiy qonga ega bo'lgan 60 nafar homilador kasallik tarixi retrospektiv tahlil qilindi. Ulardan asosiy guruhni 40 ta homilador tashkil etib, ular rezus manfiy qonga ega bo'lgan va qonida rezus antitanalar mavjud bo'lganlar. Asosiy guruh 2 ta guruhchaga bo'lindi, ya'ni 19 nafar rezus manfiy homiladorlarda homila gemolitik kasalligining kamqonlik formasi bo'lgan va homila ichi gemotransfuziyasi amalga oshirilgan. Qolgan 21 nafar rezus manfiy homiladorlarga homila operativ muolajasi o'tkazilmagan va ular 2-guruhchaga kirgizildi. Taqqoslash guruhini 20 ta rezus manfiy qonga ega bo'lgan, homiladorligi normal kechgan va rezus nomutanosiblik rivojlanmagan homiladorlar tashkil etdi

**Natija va ularning tahlili.** Yoshi, oilaviy holati, yashash joyi kriteriyalari bo'yicha barcha tadqiqot ishtirokchilariniki bir xil. Homiladorlarning yoshi 22-36 yosh. Akusherlik tarixini tahlil qilish orqali oldingi homiladorlikning keyingi homiladorlikning og'irligiga ta'sirini ko'rsatdi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi natijalarga alohida e'tibor qaratildi: bilvosita Kumbs testi, homila o'rta miya arteriyasida qon oqimining maksimal tezligi va Rh antitanalarining titri. HGKning og'irlik darajasini aniqlash uchun bemorlarga kordosentez o'tkazildi. Bu amaliyot o'tkazish uchun ko'rsatma bo'lib ultratovush markerlari (ko'psuvlilik, qorin bo'shlig'ida va perikard da erkin suyuqlikni aniqlanishi, yo'ldoshning va jigarning qalinligining oshishi, gestatsion muddatga nisbatan miya o'rta arteriyasining sistolik qon oqimining cho'qqi tezligining oshishi) .Homila gemolitik kasalligida homila kamqonligini tashxislashda asosiy tekshirish usuli doplerometrik usuli hisoblanadi. Tegishli homiladorlik davri uchun homilaning o'rta miya arteriyasida qon oqimining maksimal tezligining oshishi homilada qon aylanishining giperdinamik turining rivojlanishini, indikator qiymatlarining 1,5 MoM dan oshishi esa kamqonlikning yaqqol rivojlanganligini ko'rsatadi. [4]. Umumiy 41 ta homila ichi gemotransfuziyasi o'tkazilgan bo'lib, bu amaliyotning necha marotaba o'tkazilishi gestatsiya muddatiga, homila gemolitik kasalligi og'irlik darajasiga va miya o'rta arteriyasi cho'qqi tezligiga bog'liq holda amalga oshirildi. 12 holatda homila ichi gemotransfuziyasi bir marotaba, 4 nafar homiladorga ikki marotaba, yana 4 nafar homiladorga uch marotaba o'tkazildi, shuningdek bir marotaba bu muolaja 4 va 5 marta o'tkazilgan holat ham bo'ldi. Ko'p marta takroriy instrumental tekshiruv natijalari va laboratoriya tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, homila ichi qon quyish homila gipoksiyasini kamaytirishga, Doppler ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga, homiladorlikning 34 haftagacha uzaytirilishiga va tug'ruqdan keyin bolalarning yaxshi moslashishiga yordam berdi.

Homila ichi gemotransfuziyasidan oldingi tekshiruv guruhdagi gematologik ko'rsatkichlar.

Tekshirilgan ko'rsatkichlar	Kamqonlik 1 daraja. (n=2)	Kamqonlik 2 daraja (n=10)	Kamqonlik 3 daraja (n=7)
Gemogloblin , g/l	120±4,0	89,0 ±2,59	50,0 ±3,16
Gemotakrit , %	34,5 ±1,15	25,8 ±0,69	15,6 ±0,83

O'tkazilgan 41 ta homila ichi gemotransfuziyasidan 12 (29,2%) homilador homila ichi gemotransfuziyasini bir marotaba, 4 (9,75%) homilador ikki marotaba, yana 4 (9,75%) homilador uch marotaba, shuningdek bir nafar (2,43%) homiladorda bu muolaja 4 marotaba va yana bir nafarga (2,43%) 5 marotaba takrorlandi.

Homila ichi gemotransfuziyasidan keyin tekshiruv guruhdagi gematologik ko'rsatkichlar.

Tekshirilgan ko'rsatkichlar	Asosiy guruh		Taqqoslash guruhi
	1-guruhcha	2-guruhcha	
Gemogloblin , g/l	168,8±9,25	147,2±10,42	192,6±6,73
Gemotakrit , %	52,1±2,9	40,8±3,16	53,8±2,45

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, homila ichi gemotransfuziyasi o'tkazilgandan so'ng homila gemogloblin va gemotokrit ko'rsatkichlari barqarorlashgan va homila holati yaxshilanganidan darak bermoqda.

**Xulosa.** Shunday qilib, HGKni homila ichi qon quyish yo'li bilan davolash zamonaviy akusherlik amaliyotida juda samarali bo'lib, u tug'ilishda homiladorlik muddatini sezilarli darajada oshirishi va yangi tug'ilgan chaqaloqlarning holatini yaxshilashi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, rezus-izoimmunizatsiya profilaktikasini amalga oshirish HGK rivojlanishining oldini olishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida HGK bilan kasallanishni va homiladorlikni boshqarish va davolash harajatlarini kamaytiradi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Антонов А. Г., Дегтярев Д. Н., Нароган М. В., Карпова А. Л., Сенькевич О. А., Сафаров А. А., Сон Е. Д., Малютина Л. В. Гемолитическая болезнь плода и новорожденного. Клинические рекомендации // Неонатология: Новости. Мнения. Обучение. . – 2018. – №2 (20)

2. Ona va homila qonlarining izoserologik mos kelmasligini tashxislash va davolash bo'yicha milliy klinik bayonoma. 20.03. 2021

3. Бессонова М.А., Буслаева Г.Н., Никушкин Е.В., Цимбалова Т.Е., Коноплянников А.Г. Изменения в системе гемостаза у плодов с гемолитической болезнью // Педиатрия. Журнал им. Г. Н. Сперанского. –2008. – №1

4. Y. Q. D jabbarova, F. M. Ayupova. Akusherlik. Akusherlikda rezus omil./2013. B. 190-199.

**ISLOM DININING TASHKIL TOPISHI. ISLOM DININIG TARBIYAVIY AHAMIYATI VA BOSHQA DINLAR ORASIDA ISLOM DININING O'RNI**

*Shukurullayev Suhrobjon Azamat o'g'li*  
*Samarqand davlat universitetining Denov*  
*Tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix*  
*(mamlakatlar va yo'nalishlar) sirtqi talabasi*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada islom dinining tashkil topishi va dunyoga tarqalishi, tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek islom dinining boshqa dinlar orasida tutgan o'rni va islom dinining muqaddas kitobi bo'lgan "Qur'oni Karim" da Alloh tomonidan nozil qilingan ta'lim -tarbiya, odob-axloq, ilm -ma'rifat to'g'risidagi oyiti kalimalarni o'rganamiz. Shu bilan birga Sahobalarning islom dinini dunyoga yoyishdagi xizmatlari

**Kalit so'zlar:** Islom, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v), Qur'oni Karim, Faqih, Qibla, kaba, Badr jangi, uhud jangi, fe'tishizm, animizm, totemizm, Movorounnahrda islom dini, "Niso" – "ayollar" surasi, Holid Ibn Valid, sahoba.

Islom so'zi (arabcha, - "bo'ysunish", "itoat etish") -jahonda keng tarqalgan uch dindan biri islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha "muslim" ("sadoqatli", ko'pligi "mulimun") deb ataladi. "Muslim", "musilmun" so'zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffuz etish (masalan, forslardan-musilman, o'zbeklarda- musilmon, qirg'iz va qozoqlarda ham musulmon, Ukraina va Rossiyada basurman) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi, lekin bularning ichida hozir musilmon iborasi keng tarqalgan. Jahonda dunyo aholisining 24.9% ya'ni 1.9 mlrd kishi islomga e'tiqod qiladi. Musilmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20% DAN ortig'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musilmonlar Afrikaga to'g'ri keladi. Dunyoda musilmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 DAN ortiq mamlakatdan 40 DAN ziyodida musilmonlar aholining ko'pchiligini tashkil etadi. Islom VII asrda Hijoz (G'arbiy Arabiston)da paydo bo'ldi. Uning asoschisi Muhammad (s.a.v) sanaladi. Islom dinining paydo bo'lishi hususida islom manbalarida asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa insonlarni to'g'ri yo'lda solish uchun alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb hisoblanadi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu xudo ya'ni alloh odamlarga payg'ambarlar yuborgan. Ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun alloh insonlarga oxirgi Rasul e'tib Muhammadni tanladi, unga o'zining kalomi Qur'onni nozil qildi. Muhammad (s.a.v) oldin o'z hamshaharlarini so'ng, barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish yagona xudo alloh taologa e'tiqod qilish, solih hayot kechirish u dunyoda jannatga tushish uchun bu dunyoda ezgu-ishlar qilishga da'vat etadi. Qur'onga ko'ra,

arablar va yahudiylarning umumiy bobo kalomi Allohga birinchi bo'lib iymon keltirgan. Demak, Islom yangi e'tiqod emas balki Ibrohimga nozil bo'lgan dindir. Islomning muqaddas kitobi Qur'onidir. Islom vujudga kelgan paytda Qur'on yozish uchun ishlatilgan til va alifbo Nabatey mintaqasida rivojlangan birinchi arab tili edi. Umaviylar xalifasi Abdulmalik davrida alifbo va uning oxirgi shaklini berish orqali shakllangan Qur'on haqida tadqiqotlar olib borildi va bu til davlatning rasmiy tiliga aylandi va tezda boshqa mintaqalarga tarqaldi. Payg'ambarlar va ularning kitoblari (Qur'onda Alloh tomonidan yuborilgan deb aytilgan) o'zlarini boshqa xudolarga (masalan, Yahovaga) havola qiladilar. Masalan, Elijah (Arabchada Ilyos) – ibroniycha so'z bo'lib, "xudoyim Yahu/Jah" degan ma'noni anglatadi. Qur'onda Jabroil va Mikoil kabi farishta ismlari boshqa Ibrohim dinlarida bo'lgani kabi El (yoki Il) bilan bog'liq. Allohmma, Qur'onda ham tilga olingan va Islomda odatda duo qilish uchun ishlatilgan, (ehtimol) ibroniycha Elohim so'zining arabcha talaffuzi bo'lgan. Elohim ibroniy tilida ulug'vor ko'plik sifatida ishlatilgan. ("Sening ulug'vorliging!" iborasida bo'lgani kabi, "xudolar!" degan ma'noni anglatadi). "Rab" so'zi (Rabbiy), ("Yahovaning o'rniga" Muqaddas kitobda "Egangiz Xudoning ismini behuda ayt mang") buyrug'i tufayli ishlatilgan) Qur'onda ham ko'pincha Xudo uchun ishlatiladi. Qur'onda Alloh uchun eng ko'p ishlatiladigan ism/sifatlardan yana biri bu (arabcha bo'lmagan) Rahmondir. Ushbu sifat atamasining (Rahmanan/Rahman) ma'lum bo'lgan eng qadimgi qo'llanilishi Hadadga bag'ishlangan akkad va oromiy tillarida yozilgan yozuvda uchraydi.

Alloh taolo Qur'on tili etib tanlab olgan buyuk til. Haqiqatda u har bir musulmonning qalbiga yaqindir. Arab tili u haqida gapirishgandek juda murakkab til emas, balki juda boy til. Aslida esa talaba arab tilini o'rganish mobaynida duch keladigon barcha muammolar arab tilining murakkabligida emas, balki boshqa sabablarga bog'liq. Arab tili hozirgi kunda 6 jahon tilining biri hisoblanadi. YUNECKO axborotiga ko'ra hozirgi kunda 5600 DAN ortiq til va shevalar mavjud. BMT ish yuritish kengashida ish yuritish uchun qo'llaniladigon 7 tildan bittasi.

Islomning tarqalishi taxminan 1400-yildan buyon davom etmoqda. Muhammad (s.a.v) vafotidan so'ng musulmonlar tomonidan olib borilgan istilolar ulkan geografik hududni egallagan xalifaliklarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Islomni qabul qilish arab musulmon kuchlarining vaqt o'tishi bilan keng hududlarni bosib olishi va imperiya tuzilmalarini qurishi tufayli kuchaygan. Muhim kengayishning aksariyati 632-yildan 661-yilgacha bo'lgan Roshidun hukmronligi davrida ro'y bergan, bu Muhammadning birinchi to'rtta xalifaligi hukmronligi edi [1]. Bu ilk xalifaliklar, musulmonlar iqtisodiyoti va savdosi, Islom oltin davri va Islomiy porox imperiyalari davri bilan birgalikda islomning Makkadan tashqariga, Hind, Atlantika, Tinch okeanlarigacha tarqalishiga va musulmon dunyosining yaratilishiga olib keldi. Uch qit'ada (Osiyo, Afrika va Yevropa) arab imperiyasining barpo etilishi bilan yakunlangan islom istilolari musulmon dunyosini boyitib, islom ta'limotiga berilgan

e'tibor tufayli uni kengroq tarqatish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarga erishdi[2]. Indoneziya kabi dunyoning ayrim hududlarida Islom dinining tarqalishida savdo muhim rol o'ynagan. Tez orada musulmon sulolalari tashkil topdi va undan keyingi Umaviylar, Abbosiylar, Mamluklar, Saljuqiylar va Ayyubiylar kabi imperiyalar dunyodagi eng yirik va eng qudratli davlatlar qatoriga kirdi. Ajuran va Adal sultonliklari va boy Mali imperiyasi, Shimoliy Afrikada, Dehli, Dekan va Bengal sultonliklari, Boburiylar davlati va Durrani imperiyalari, Hindiston yarimorolidagi Maysur va Haydarobod Nizom qirolligi, G'aznaviylar, G'uriylar, Forsdagi Somoniylar, Temuriylar va Onado'lidagi Usmonlilar imperiyasida tarixning borishini sezilarli darajada o'zgartirdi. Islom olami xalqlari islomning Oltin Asriga hissa qo'shgan keng qamrovli savdo tarmoqlari, sayohatchilar, olimlar, ovchilar, matematiklar, tabiblar va faylasuflarga ega bo'lgan ko'plab ilm-fan va madaniyat markazlarini yaratdilar. Temuriylar Uyg'onish davri, Janubiy va Sharqiy Osiyodagi Islomning tarqalishi Hindiston yarimoroli, Malayziya, Indoneziya va Xitoyda kosmopolit hamda eklektik islom madaniyatini rivojlantirdi.

Alloh subhanahu va taolo birinchi hijriy asrda Movarounnahr diyorini O'zining oxirgi va mukammal dini Islom nuri bilan munavvar qildi. Bu diyor ahlining ko'pchiligi Islomni ochiq qalb bilan qabul qildi. Ularning Islomi go'zal bo'ldi. Zotan Alloh taoloning O'zi bu diyor odamlarini ularga bergan ajoyib tabiat va qobiliyatlarga mos va ularning rivojiga omil bo'luvchi qiyomatgacha boqiy qoluvchi dini Islomga hidoyat qilgan edi. Movarounnahr aholisining Islom diniga kirishi ularning ko'plab qobiliyatlarining ochilishiga, hayotning ko'plab jabhalarida o'zlarining peshqadamliklarini isbot qilishga olib keldi. Tez orada Islomning turli soha va ilmlari bo'yicha Movarounnahrlik namoyondalar yetishib chiqqan boshladilar. Bu harakat tezlik bilan rivoj topdi va turli ilmlarda umumdunyo miqyosidagi buyuk allomalar yetishib chiqqan boshladi. Shu tariqa Movarounnahrda Islom dini va Islomiy ilmlar rivoji boshlandi. Tez orada Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf kabi shaharlarning nomi islomiy shaharlar sifatida butun dunyoga tanildi. Movarounnahrdan o'sha vaqtda mavjud bo'lgan barcha ilmlar bo'yicha yetuk allomalar chiqibgina qolmasdan, balki bir qancha yangi ilmlarga asos solgan ulug' zotlar ham yetishib chiqdilar. Ushbu holatning o'zi Movarounnahr aholisining insoniyat tarixiga, ilm, fan, madaniyat rivoji tarixiga kirishiga Allohning qiyomatgacha boqiy dini Islom sabab bo'lganining yorqin dalilidir. Islom yurtimizning boshqa burchaklarida ham tarqalib, yerli aholi Islomni yaxshi o'zlashtirib oldi. Alloh taoloning oxirgi va mukammal dini bo'lmish Islomda kishilarni irqi, millati, yashash joyi, tiliga qarab ajratish yo'q edi. Hamma ixlosiga, e'tiqodiga, qilgan mehnatiga yarasha qadr topar edi.

Ta'lim bilim berish malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Tarbiya -shaxs muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy-ma'naviy, sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon: Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishni

ta'minlash yo'lida ko'riladigon chora tadbirlar yig'indisi .Tarbiya insonning insoniyligini ta'minlaydigon eng qadimiy adabiy qadriyatdir.Tarbiyasiz alohida odam ham kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi.Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigon qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.“Biz XV asrga yaqin vaqt davomida islom dinini dunyoga tarannum etuvchi xalq sifatida tanilganmiz. Ayollarga nisbatan zo'rvonlik haqida gapirganimizda birmuncha uyalishimiz kerak, chunki islom dini nozil bo'lganidan keyin ayollarga nisbatan hurmat yuqori darajaga ko'tarildi. Islomdan avvalgi johiliya davrida ayollar inson sifatida tan olinmagan.Alloh taolo Qur'oni karimda “Niso”, ya'ni “Ayollar” surasini nozil qilganidan keyin eng zabardast xalifalardan, ya'ni ikkinchi xalifa Hazrati Umar (raziyallohu anhu) “Alloh taolo “Niso” surasini tushirma, ayollarni umuman e'tiborga olmas ekanmiz”, deganlar, chunki sahobalar, ayniqsa zodagon sahobalar 5 yoshli qizini tiriklayin ko'mganini yig'lab eslashgan. Oilada qiz bolaning dunyoga kelishi or hisoblangan. Kambag'al oilalarda qiz bola tug'lsa, uning peshonasiga cho'rilik tang'asi bosilgan, uning avlodlari ham shu tariqa tahqirlangan. O'sha davrlarda zodagonlar tug'ilgan kunlariga bir-biriga 4-5 nafarlab qizlarni tortiq qilishgan, ya'ni qiz bolalar qandaydir bir buyum sifatida sovg'a qilingan.Buning oldini olish maqsadida Payg'ambarimiz (s.a.v.) ko'plab hadisi shariflarida ayollarni yuqoriga ko'targanlar. “Jannat onalar oyog'i ostidadir”, “Yaxshilikni eng avvalo onangga, onangga, onangga va undan keyingina otangga qil”, “Uch qiz farzandni tarbiya qilgan erkak jannatiydir”, deb bejiz aytilmaydi, ularda katta ma'no bor”, - deydi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi o'rinbosari.Nuriymon Abulhasanning so'zlariga ko'ra, “Niso” shunday bir suraki, unda ayollarning huquqlarini ta'minlash uchun barcha ko'rsatmalar o'z aksini topgan. Eng qiziqarli dalil shundan iboratki, “Niso” surasida “erkaklar” so'zi necha marotaba takrorlangan bo'lsa, “ayollar” so'zi ham xuddi shuncha takrorlangan. Alloh taolo Qur'oni karimda shu tariqa ayollar bilan erkaklar baravar haq-huquqqa ega ekanligiga ishora qilgan.Shu o'rinda Rasululloh (s.a.v.) hadislaridan misollar keltirildi:“Ey insonlar, ayollar haqlariga rioya etingiz. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo'lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo'rqingiz! Ayollar sizlarga Allohning omonatidir, ularni Alloh nomi bilan oldingiz. Ular amri ilohiy ila sizlarga halol bo'ldi. Sizlarning xotinlaringiz ustida haqlaringiz bo'lgani kabi, xotinlaringizning ham sizlarda haqlari bor”.Payg'ambarimiz (s.a.v.) dan “Bizlarning zimmamizdagi xotinlarimizning haqlari nimada?” deb so'rganlarida ular shunday javob berdilar: “O'zing ovqatlanganingda unga ham yedirmog'ing, o'zing libos kiyganingda uni ham kiyintirmoqliging va unga xushmuomala bo'lmoqliging zarur. Hech qachon uning yuziga urma. Hech qachon Allohni o'rta qo'yib, uni so'kma. Uyingdan tashqariga chiqib ketib, arazlab yurmagin”.Muqaddas Islom dini ayollarni shunday madh etib turgan paytda musulmon aholisi bugungi kunda eng ko'p bo'lib turgan O'zbekiston ahliga ma'ruzalar va davra suhbatlari orqali ayollarga hurmat qanday bo'lishi kerakligiga oid ma'lumotlar yetkazilmoqda.

Payg‘ambar (s.a.v) DAN keyin sahobalar davrida fiqh ilmi rivoj topdi. Lekin, sahobalarning adadi mashhur rivoyatga ko‘ra yuz ming ekani , ularning orasida ham boshqalardan ko‘ra fiqhni yaxshi biluvchilari tanilgani va biror savol tug‘ilib qolsa mazkur faqih sahobalarga ko‘pchilik murojaat qilganini qayd etish o‘rinli. Masalan: sahobalar orasida “Abodilai arba’a” ,ya’ni “To‘rt Abdulloh “ nomi bilan tanilgan faqihlar alohida ehtiromga sazovor bo‘lgan. Ular Abdulloh Ibn Ma’sud , Abdulloh Ibn Abbas , Abdulloh Ibn Umar va Abdulloh Ibn Amr Ibn Os (r.a) lar edi .Yoki xulafai roshidindan Abu Bakr Siddiq (r.a) ning boshqa sahobalardan ilmda ustunligi naql qilingan. Umar Ibn Xattob va Usmon Ibn Affon (r.a) lar haqida ham shunday deyish mumkin. Faqih ilmi haqida: Faqih -faqih ilmi bilimdoni , shariatning mohiyatini anglagan va boshqalarga tushuntirib bera oladigon olim . Zero , ya’ni bir ta’rifda: “fiqh -bu Alloh taolo o‘z payg‘ambari Muhammad (s.a.v) orqali nozil qilgan shariatni teran fahmlamoqdir”, deyilgan. Fiqh ilmining rivoji bevosita islom dini tarixi bilan bog‘liqdir. Muhammad (s.a.v) davrida kishilarda biror hukm borasida savol tug‘ilsa, u zotga murojaat qilar edilar . Payg‘ambar bu savolga javob berar ekan, yuzaga kelgan masalalarni qanday hal qilish yo‘lini o‘z sahobalariga ta’lim bergan. Ka’ba (arabcha- “al-ka’ba” ) -kub shaklidagi bino bo‘lib, Saudiya Arabistonidagi Makka shahrida Masjid al- Haram masjidining ichida joylashgan. Masjid dastlabki ,ka’ba atrofida bunyod etilgan .Ka’ba islom olamida eng muqaddas joy hisoblanadi. Qibla , musulmonlar namoz vaqtida yuzlanadigon joy ka’badir . Musulmonlar ta’rafidan amalga oshiriladigan haj va umra ka’ba atrofida amalga oshiriladi. Xolid Ibn Valid (to’liq ismi – Xolid ibn al-Valid ibn al-Mug‘iyra al-Maxzumiy) 585-yilda tug‘ilgan va 642-yilda vafot etgan, ko‘pincha Xolid ibn al-Valid nomi bilan mashhur bo‘lgan, dastlabki ikki “Odil xalifalar” Abu Bakr Siddiq va Umar ibn Xattob qo‘mondonligi ostida qo‘shin qo‘mondoni bo‘lgan. Muhammad payg‘ambarimizning sahobalaridan bo‘lgan. Muhammad payg‘ambar vafotidan keyin islom olamiga bosh bo‘lgan birinchi xalifa Abu Bakr. Yangi paydo bo‘lgan dinda boshlangan dinga qaytish va isyon harakatlarini oldini olish maqsadida Xolid ibn Validni turli bosqin va yurishlarga jo‘natgan. “Ridda urushlari” deb nomlanuvchi ushbu ekspeditsiyadagi muvaffaqiyat va g‘alabalaridan so‘ng Abu Bakr: “Onalar Xolidga o‘xshagan zotni tug‘ishga qodir emaslar”, dedi. Xolid ibn Validning qanchalik qahramon ekanligini tushuntiradi. Arabiston yarim orolida tinchlik o‘rnatilgandan so‘ng, Abu Bakr Muhammadning islomni yoyish yo‘lidagi sa’y-harakatlarini davom ettirdi va Xolid bin Validni 18 ming kishilik qo‘shin boshlig‘ida Sosoniylar nazorati ostida bo‘lgan Mesopotamiyaga ekspeditsiyaga yubordi. Xolid 633-yil aprel-may oylarida bu mintaqada sosoniylar va nasroniy arablar bilan olib borgan Zanjirlar jangi, Valaja jangi va Ullais janglarida g‘alaba qozondi ,Hiro (hozirgi Najaf) qal’asini zabt etdi, mintaqani islom dini bilan tanishtirdi va qabul qilmaganlarni jizya to’ladi. Iyun oyida qo‘shiniga dam berib, Anbar qal’asini qamal qildi va qattiq qarshilikka uchrasa ham, iyul oyida qal’ani egallab oldi. Keyinchalik u Ayn at-Tamr jangida sosoniylarning vassali bo‘lgan



ko'chmanchi arab qabilalari bilan ularni qaytardi .Xolid ibn Valid o'z muvaffaqiyatlari bilan Mesopotamiyaning katta qismini o'z hukmronligi ostiga oldi. Lekin bu muvaffaqiyatlardan bezovta bo'lgan Sosoniylar hukmdori III . Yazdigirt , mintaqaga birlashgan fors-arab kuchlarini kuchaytirish orqali bosqinni to'xtatishni maqsad qilgan. Xolid ibn Valid bergan razvedka ma'lumotlariga ko'ra; Sosoniylar qo'shini Furot daryosi sohilidagi Hanafiz, Zumail, Saniy va Muzayya hududlarida qarorgoh qurganini bildi . Bunday katta qo'shin bilan birdaniga bardosh bera olmasligini anglagan Xolid hozirgi qo'shini bilan qarorgoh qurgan dushman qo'shinlariga qarshi tungi bosqin uyushtirishga qaror qildi. Muzayya jangi , muvofiqlashtirilgan hujumlar bilan Saniy jangiva nihoyat Zumail jangida Sosoniylar qo'shinini yo'q qildi .Qo'lidagi oz kuch bilan katta muvaffaqiyatlarga erishgan Xolid Bin Valid Sosoniylar imperiyasining janubi va g'arbidagi deyarli barcha qo'shin muvozanatini vayron qilib, poytaxt Tizponni himoyasiz qoldirdi. U Sosoniylar poytaxti tomon yurish uyushtirib, bu ishga nuqta qo'yimoqchi bo'lgan, ammo sosoniylar hukmdori Vizantiya imperatori bilan kelishib, katta qo'shin bilan unga qarshi chiqqanini bilgach, bu qaroridan voz kechadi. III. Yazdigirt , GerakliyU yuborgan xabarda; U o'zi bardosh bera olmagan Xolid ibn Validga qarshi birgalikda harakat qilishni taklif qildi, navbat o'z imperiyasiga kelishini e'lon qildi va ular o'rtasidagi ko'p asrlik adovatga chek qo'yishni taklif qildi. Gerakliy bu taklifni qabul qilib, Suriyadan sosoniylar bilan birlashish uchun yordam qo'shinlarini yuboradi. Tuzilgan qo'shin Xolidga qarshi yuborildi, biroq Firoz jangida musulmon qo'shini mag'lubiyatga uchradi . Bu so'nggi urush bilan Mesopotamiya ustidan nazoratni butunlay o'z qo'liga olgan Xolid ibn Valid yo'lda bir qal'ani qamal qilmoqchi bo'lganida Abu Bakrdan olgan maktub bilan Vizantiya qo'shinlariga yurish uchun Suriya frontiga yuborildi.

Animizm ( lotincha anima-jon, ruh ) jon va ruhlar borligiga ishonish. ibtidoiy davrda paydo bo'lgan. Ibtidoiy odamlar tabiat kuchlariga qarshi kurashga ojizlik qilgan, o'z hayoti va tanasidigi turli hodisalar ( tush ko'rish ,galyusinatsiya , o'lim va h.z) ni tushunmagan. Fetishizm (fransuzcha , portugalcha sehrli narsa , tumor ) - g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar fetishlarga sig'inish. Totemizim (Shimoliy Amerika indislarning , o'jibve qabilasi tilidagi " Ototem"- "uning urug'i" so'zidan ibtidoiy diniy e'tiqodlarining ilk shakllaridan biri.

"Badr" jangi 623-yil 13-mart kuni seshanba tongida Badr maydonida bo'lib o'tadi. Alloh taolo bu jang haqida o'z kalomida shunday deydi: " Bu g'azot haq bilan botilni ajratgan birinchi jang" . Badr jangida musulmonlar 300 kishi , qurayshlar esa 1000 kishi edi. Ayni shu jangda Jabroil (a.s) ming nafar farishta bilan "Badr" jangiga keladi. "Uhud" jangi 625-yil 23- martda Uhud tepaligida musulmonlarning makkaliklar bilan bo'lgan jangi. Abusufiyon boshchiligida 3000 nafar Quraysh makkaliklari , Madinadagi Muhammad qo'rg'ong'lari tomon qo'mondonlik qildilar . Bu jang musulmonlarning mag'lubiyati bilan tugaydi.

Xulosa qilib aytganda: “ Islom dini” tozalik va poklik ustiga qurilgan din hisoblanadi. Unda ezgu ishlar, e’zgu amallar , yaxshilik va saxiylik , mehr-muruvvat kabi fazilatlar mavjud . Avvalo tarbiya oiladan boshlanadi. Farzand yaralibdiki uni oiladan ya’ni go’dakligidan tarbiyalash joiz .Har bir ota-ona o’z farzandini yaxshi ilmi , ziyoli va xalqqa manfaati tegadigan qilib tarbiyalashi , yomon illatlardan yiroq yurishlikni uqtirishlari farzand oldidagi burchi hisoblanadi.

### **Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan manba va adabiyotlar:**

1. A.Jo’zjoniy .Islom huquqshunosligi , hanafiy mazhabi va O’rta Osiyo faqihlari. O’quv qo’l .-T: “ Toshkent islom universiteti “ nashriyot -matbaa birlashmasi, 2002.
2. Islom ensiklopediyasi.-T: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
3. Husniddinov Z.M.Islom: yo’nalishlar, mazhablar , oqimlar.-T: Movarounnahr,2000.
4. Abdulvahob Zohid. HAYOT al- aymma al-arba’a -Chonju .Janubiy Koreya , 2003.
5. Muhammad Abu Zahra.Tarix al -mazahib al-islamiya .-Qohira: Dor al-fikr al-rabiy,1996.
6. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
7. Ahmad Nozim Mamatoxunov arab tili birinchi kitob 2013.
8. Lutfiy Ahmad Sodat asri qissalari (birinchi kitob.Intizor kutilgan tong)2003.
9. Karimov I.A. Xushyorlikka da’vat. O’zbekiston axborot agentligining savollariga javoblar. «O’zbekiston ovozi», 1999, 25 iyun soni.
10. Yo’ldoxo’jayev H. Rahimjonov B., Komilov M., «Dinshunoslik».-T.: 2001.. 13.Jabborov Iso, Jabborov Sanjar. Jaxon dinlari tarixa.- T.: «O’zbekiston» 2002. 4. Dinshunoslik asaolari.-T.: «O’zbekiston», 1995.
11. Менглибоев, А. (2021). Сурхон воҳасида миллий озодлик ҳаракати натижалари ва оқибатлари. Academic research in educational sciences, 2(4), 1655-1674.
12. Менглибоев, А. Х. (2018). СТРАТЕГИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ В БОРЬБЕ С МЕЖДУНАРОДНЫМ ТЕРРОРИЗМОМ. Гуманитарный трактат, (29), 40-43.
13. Mengliboyev, A., & Qalandarova, M. (2023). ORIYLAR MUOMMOSI: ORIY QABILALARINING HINDISTONGA KIRIB KELISHI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 167-170.
14. Mengliboyev, A. (2022). СУРХОН ВОХАСИДА ҚИЗИЛ АРМИЯ БОСҚИНИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ БОШЛАНИШИ. Adad Plyus.
15. Mengliboyev, A. (2022). ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ БУХОРОДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎРНАТИЛИШИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА, 1920-1930 ЙИЛЛАР). Scienceweb academic papers collection.
16. Mengliboyev, A. (2021). СУРХОН ВОХАСИДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИ НАТИЖАЛАРИ ВА ОҚИБАТЛАРИ.

**ZAYNIDDIN ABDULAZIZOV ZARIFJON OG'LI**  
**XALQARO TIJORAT ARBITRAJ SUDIDA DALILLAR**

**Annotatsiya:** Biz ushbu maqola orqali xalqaro tijorat arbitraj sudida dalillar juda muhim qismi ekanligini va dalillarni olish, dalillarni ko'rib chiqishni tartibga doir belgilab qoyilgan bir qancha normalar bilan birma-bir tanishib chiqamiz. Dalillar - bu ishtirok etuvchi shaxslarning talablari va e'tirozlarini asoslovchi holatlar, shuningdek ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa xolatlar bor yoki yo'qligi aniqlanishda eng muhim bir vosita hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosalari, guvohlarning ko'rsatmalari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari bo'lishi mumkin. Dalillar kelib chiqayotgan muammo va undagi protsessni yanada ochib berish va ishlarni odil va haqqoniy hal qilishga yordam beradigan muhim omil sanaladi. Ushbu maqolada, shuningdek, davlatlarning milliy qonunchiligida dalillar bilan bog'liq masalalarni ham bilib olish mumkin. Xalqaro sudlarda dalillarning mohiyatini hamda uning kelib chiqishi uni qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash va shu aniqlash jarayonida bo'ladigan protsesslarni o'rganish juda muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada orqali turli xil muammolarga birma bir yechimlar berishga harakat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro tijorat arbitraji, dalillarni olish, ularning turlari, tekshirish tartibi, amaliyot.

**KIRISH**

**XALQARO TIJORAT ARBITRAJ SUDI QOIDALARI**

Zamonaviy xalqaro xususiy huquqning muhim institutlaridan biri bu xalqaro tijorat arbitrajidir. Xalqaro tijorat arbitraji asosan tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida vujudga keladigan chet el elementi tomonidan murakkablashgan fuqarolik nizolarini hal qilish vositasi hisoblanadi. Xalqaro tijorat arbitraji va milliy tijorat arbitraji xalqaro xususiy huquqning global va mahalliy jihatlari bilan birlashtirilgan masalalaridir. Xalqaro tijorat arbitrajidagi tartib qoidalari butun dunyoda turlicha bo'lib, milliy qonunchilikning kuchli ta'siri bilan uyg'unlashadi va arbitraj jarayonidan oldin hakamlik sudyalari tomonidan o'tkaziladigan joy bilan belgilanadi. Xalqaro tijorat arbitraji tashqi savdo munosabatlari sohasida taraflar o'rtasida vujudga keladigan nizolarni davlat sudlaridan boshqa, alternativ tarzda, o'zlari tanlagan arbitrlar ishtirokida ko'rib chiqishga asoslangan, nizoni hal etish usulidir. Endi mediatsiya va arbitrajda nizoni hal etishning umumiy jihati borki, unda taraflar shartnoma tuzish jarayonida yoki undan keyin o'rtada vujudga keladigan nizoni mediatsiyada yoxud arbitrajda ko'rish uchun avvaldan yozma rozilik bo'lishi talab etiladi. Ya'ni sudlovga taalluqlilik–mediatsiya yoki arbitrajga doir kelishuv mavjud bo'lsagina uni ko'rish mumkin bo'lsagina, uni tegishliligi bo'yicha ko'rib chiqish imkoniyati mavjud bo'ladi. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda tribunal yoki vakolatli organ bu masalani

yechimini topadi va ishni ko‘rish mazkur yechimlarga og‘ishmay hal qilinadi. Xalqaro tijorat arbitraji va milliy tijorat arbitraji xalqaro xususiy huquqning global va mahalliy jihatlari bilan birlashtirilgan masalalaridir. Xalqaro tijorat arbitrajidagi tartib qoidalari butun dunyoda turlicha bo‘lib, milliy qonunchilikning kuchli ta‘siri bilan uyg‘unlashadi va arbitraj jarayonidan oldin hakamlik sudyalari tomonidan o‘tkaziladigan joy bilan belgilanadi. Tijorat arbitrajida dalillarni olish ham yuqorida qayd etilgan jihatlarga bog‘liq. Hakamlar umumiy huquq tizimi, fuqarolik huquqi tizimining ta‘siri va hakamlik muhokamasi jarayonida ega bo‘lgan vakolatlari va tashabbuskorlik imkoniyatlari haqida iloji boricha ko‘proq bilishlari kerak. Tizim va mavjud tartib qoidalari to‘g‘risidagi bilim ularga arbitrajning eng muhim qismini, masalan, mukammal mukofotni ishlab chiqarishga imkon beradi. Dalilning yagona yoki universal ta‘rifi yo‘q. <sup>1</sup>Ko‘pgina mamlakatlar o‘z qonunchiligida aniq yoki yagona ta‘rifni taqdim etmaydilar. Bunday mamlakatlar uchun berilgan ta‘riflar bir-biridan farq qiladi, ammo o‘xshashdir. Xalqaro arbitrajda bir qancha printsiplar muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan. Tortishuvchalik prinsipi. Taraflar pozitsiyalarini o‘z vaqtida aniq bildirishlari va uni aniq dalillar bilan tasdiqlashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq davlatlarning o‘z yurisdiksiyasidagi sudlardagi isbotlash tartib-taomili xalqaro arbitrajidagi tartibga har doim ham to‘g‘ri kelavermaydi. Xalqaro tijorat arbitraji qoidalari dalillar va isbotlash instituti bo‘yicha aniq qoidalarni o‘rnatib bermagan. Masalan, 1998-yilda qabul qilingan Reglamentda ham mazkur masalaga oid aniq normalar belgilanmagan. Shu sababli bu masala odat normalari bilan belgilanadi Xalqaro tijorat arbitrajida dalillar va isbotlash bo‘yicha aniq normalar bo‘lmasada, Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi tomonidan odat normalari yagona hujjatga yig‘ilgan:

- Xalqaro tijorat arbitrajiga dalillarni taqdim etish va ularni tekshirishga oid qo‘shimcha qoidalar;
- Yangi tahrirdagi IBA qoidalari;

Shuningdek. IBA qoidalarining xususiyati:

- Majburiy kuchga ega bo‘lmasdan, tavsiyaviy, dispozitiv xarakterda;
- Shartnoma taraflari mazkur qoidalar asosida ishlashlari uchun buni shartnomada nazarda tutishlari lozim;
- Xuddi shu tartib arbitraj protsessi boshlanganda ham kelishib olinishi mumkin;

Shu bilan birgalikda dalillarni taqdim etish tartibi ham belgilab qoyilgan. Ya‘ni:

- Har bir taraf arbitraj sudida ishga aloqador istalgan dalilni taqdim etishga haqli;
- Dalillarni taqdim etayotganda nafaqat arbitrlar, balki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar ham dalil bilan xabardor qilinishi kerak. Ya‘ni bu dalilni arbitrga taqdim etayotganda uning nusxasini boshqa shaxslarga ham berishni nazarda tutadi;

<sup>1</sup> [https://www.researchgate.net/publication/322704816\\_Evidence\\_in\\_International\\_Commercial\\_Arbitration](https://www.researchgate.net/publication/322704816_Evidence_in_International_Commercial_Arbitration)

- Milliy qonunchilikdan farqli ravishda, IBA qoidalariga ko‘ra taraflar nafaqat “xususiy” hujjatlar, balki e‘lon qilingan qonunlar va ularning normalarini ham dalil sifatida havola qilishlari lozim.<sup>2</sup>

Shu kabi bir qancha odat normalar belgilab qoyilgani ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro tijoratda arbitraj sudi va unda qo‘llaniladigan dalillar, ularni qanday aniqlash, dalillarning qaysilari sud muzokaralari uchun qabul qilinadi, dalillar qanday holatlarda yoki qanday dalillar nizo jarayoniga qabul qilinmasligi kabi munosabatlarni o‘rganishdan iboratdir. Xalqaro tijorat arbitraji sohasidagi barcha mutaxassislar arbitraj tijorat nizolarini hal qilishning eng samarali usullaridan biri sifatida rivojlanganligini bilishadi. Xalqaro tijorat arbitrajining ahamiyati tobora ortib bormoqda va xalqaro aspektlar bilan savdo huquqi sohasida milliy sudlarni solishtiruvchi xalqaro arbitraj nizolarni hal etishning yetakchi usuli hisoblanadi. Xalqaro tijorat arbitrajidagi dalillar arbitrajning o‘zi bilan bir xil tarixga ega. Aksariyat ekspertlar uchun xalqaro arbitrajning fuqarolik huquqi tizimlarida ko‘proq afzalligi va ma‘lum bo‘lishi ajablanarli holdir. Xalqaro tijorat arbitraji Qo‘shma Shtatlarning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risidagi konventsiyasini ratifikatsiya qilishi bilan umumiy huquq tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. 1970 yilda ratifikatsiya qilinganidan beri umumiy huquq tizimidan ishtirok etuvchi davlatlar soni ortib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konventsiyasi ratifikatsiya qilinganidan buyon alohida jihatlar kiritildi. Hozirda xalqaro tijorat arbitrajleri ishida oldindan eshituvlar va o‘zaro tekshiruvlar kuchliroq mavqega ega. Umumiy huquq tizimining ta‘siri hakamlik muhokamasidagi dalillar qoidalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Huquqiy tizimlarning tabiatiga ko‘ra, turli mamlakatlarda dalillar qoidalari bir xil emas. Xalqaro tijoriy arbitrajda dalil qoidalarining ta‘rifi tomonlardan biri aytib o‘tgan hujjatli va og‘zaki dalillarning ahamiyatini, shu jumladan guvohlar, ekspertlar, hujjatlar va mahalliy tekshiruvlarni tayyorlash va taqdim etishni tartibga soluvchi qonunlar yig‘indisini tavsiflaydi. Xalqaro tijorat arbitraji uchun qoidalar atamasidan foydalanish yaxshiroq bo‘lar edi. Bu nafaqat barcha milliy huquq tizimlaridagi tafovutlar tufayli, balki butun dunyo boylab hakamlik sudlarida mavjud bo‘lgan turli xalqaro tijorat arbitraj qoidalaridagi ko‘plab farqlar tufayli. Agar tomonlar turli huquq tizimlaridan kelgan bo‘lsa, muammo birlashtiriladi. Arbitrlar dalillarning ahamiyati va ahamiyatini aniqlashlari shart. Umumiy huquq tizimi va fuqarolik huquqi tizimini taqqoslashning eng katta farqi fuqarolik huquqi tizimlari tomonidan afzal qilingan yozma dalillar va umumiy huquq tizimlarida guvohlarning bayonotlari bilan birlashtirilgan og‘zaki dalillarning dolzarbligidadir. Bu muammo, ehtimol, fuqarolik protsessuallari va milliy sudlar tomonidan ko‘rib chiqish an‘analari bilan birlashtirilgan. Shunga o‘xshash jarayonlarda hakamlar hay‘atidan foydalanish va umumiy huquq tizimlarida adolat tamoyiliga

<sup>2</sup> <https://www.carlsonssolicitors.com/news/2021/4/28/admissibility-of-evidence-in-international-arbitration>

ishonish milliy sudlardan arbitrajga ushbu an'anaviy farqlarni olib keladi protsessda, ayniqsa xalqaro arbitrajda muvozanatga ega bo'lishdan kuchli manfaatdorlik hisoblanadi. Shunday qilib, hakamlar xalqaro tijorat arbitraji uchun xalqaro qoidalardan foydalanadilar. Biz xalqaro tijorat arbitraji ad hoc ishlayaptimi yoki xalqaro arbitraj sudi oldidagi institutsional tijorat arbitrajini farqlashimiz kerak. Sudda hakamlar amal qilishi mumkin bo'lgan qoidalar mavjud. Boshqa hollarda, ad hoc deb ataladigan hakamlar ko'pincha XBA qoidalaridan foydalanadilar. Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasining tijorat arbitrajida dalillarni olish qoidalari – “XAB qoidalari” – xalqaro arbitraj uchun ekspertlar guruhi tomonidan xalqaro miqyosda tayyorlangan qoidalarga, xususan, xalqaro tijorat arbitrajiga yaxshi misoldir. Qoidalar umumiy huquq va fuqarolik huquqi tizimlaridan kelgan amaliyotchilarning talablarini qondirish uchun tayyorlangan.<sup>3</sup> Qoidalar dalil qoidalari bilan bog'liq bo'lib, dalillar amaliyotida murosaga keladi. Ularning tuzilishidagi qoidalar tomonlarga qarama-qarshi tomondan cheklangan miqdordagi hujjatlarni taqdim etishni so'rashga imkon beradi. Bu ish bo'yicha xarajatlarga nisbatan, shuningdek, hujjatlar toifasini belgilash va ko'rsatish va hujjatning ahamiyatini aniqlash uchun juda muhimdir. Ko'pgina institutsional arbitraj qoidalariga qaraganda ancha batafsilroq XBA qoidalari yuqorida qayd etilgan. XBA qoidalari xalqaro arbitrajda dalillarning beshta asosiy turini tavsiflaydi. Birinchi o'rin 3-moddada hujjatli dalillar bilan qoplangan. 4- modda guvohlarning dalillarini tavsiflaydi va 5 va 6-moddalarda tomonlardan biri yoki hakamlar tomonidan tayinlangan ekspert dalillari tasvirlangan. 8-modda joyida tekshirish va dalillarning qabul qilinishi va baholanishi bo'lgan XBA qoidalariga muvofiq dalillarning beshta eng muhim qismini tavsiflaydi.

### **XALQARO TIJORAT ARBITRAJ SUDIDA DALILLARNING TURLARI**

Xalqaro tijorat arbitrajda dalillarning bir qancha turlari belgilab qoyilgan. Ya'ni ularga quydagilar kiradi:

- Taraflar, uchinchi shaxslar va vakillarning tushuntirishlari;
- Yozma va og'zaki dalillar;
- Guvohlar tushuntirishlari;
- Ekspertlar xulosalari va boshqalar;<sup>4</sup>

**Taraflar, uchinchi shaxslar va vakillarning tushuntirishlari** - Hujjatli dalillarga hakamlik muhokamasi taraflari tomonidan taqdim etilgan dalillar va ularning tinglash uchun tayyorlangan taqdimnomalari kiradi. Ikkala tomonning qo'lida bo'lgan hujjatli dalillar ham taqdim etilishi mumkin. Xalqaro tijoriy arbitrajdagi hakamlar ko'pincha tomonlarning ixtiyorida bo'lgan hujjatlarni ishlab chiqarishni buyuradilar. Umumiy huquq tizimiga rioya qilgan holda, tomonlarning har biri tegishli hujjatlar deb hisoblagan narsaga nisbatan, tomonlar o'z pozitsiyalariga mos keladigan har bir tegishli

<sup>3</sup> <https://blog.ipleaders.in/evidence-arbitral-proceeding/>

<sup>4</sup> [https://www.researchgate.net/publication/322704816\\_Evidence\\_in\\_International\\_Commercial\\_Arbitration](https://www.researchgate.net/publication/322704816_Evidence_in_International_Commercial_Arbitration)

hujjatni sudga taqdim etishlari shart. Arbitrlar har bir tarafga ko'rsatuv berish vaqtini cheklashlari mumkin. Arbitraj, albatta, eshitish jarayonini samarali boshqarish va ikkita muhim natijani ta'minlash o'rtasida muvozanatni saqlashga intilishi kerak: tomonlarga teng munosabatda bo'lishlari va ular o'z ishlarini taqdim etish uchun adolatli imkoniyatga ega bo'lishlari kerak. Ba'zi arbitrlar juda qattiy muddatlar belgilaydilar. Har bir tomon aynan bir xil daqiqalarni oladi va arbitrlarga ma'lum vaqtni ajratib qo'yadi. Bu katta, murakkab ishlarni boshqarishda va arbitrlar belgilangan vaqtda yakunlanishini ta'minlashda muhim bo'lishi mumkin. Tomonlar o'zlarining qancha vaqtlari borligini aniq bilishadi va ular berilgan chegaralarda bo'lishlarini bilishadilar. Dalillash jarayonining birinchi bosqichi taraflar taqdim etganidan so'ng, guvohlar so'zlari almashish va tinglashdan oldin amalga oshiriladi.<sup>5</sup>

**Yozma va og'zaki dalillar** - sud guvohlarning uning ishtirokida faktlarning haqiqati to'g'risida aytishiga ruxsat bergan yoki kutgan barcha bayonotlar og'zaki dalillar deb ataladi. Yozma dalillar ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan hujjatlar, xizmatga daxldor va shaxsiy yozishmalar hisoblanadi. Hujjatlar arbitrajda dalil vositasi ekanligi aniq. Ideal holatda tomonlarning pozitsiyasi hujjatlar bilan aniq tasdiqlangan, ammo bir nechta holatlar ideal va hujjatli dalillar har doim ham to'liq va yakuniy natijaga olib kelmaydi. Amalda, hakamlar bir nechta tegishli hujjatlarga ega bo'lib, ularga tayanishi mumkin. Hujjatlarning yozma shakli bilan bog'liq muammolar ko'p uchraydi. Hujjat muallifi o'z fikrini chet tilida ifodalashga harakat qilgan hollarda, ba'zan tushunarsiz bo'ladi. Faqatgina chet tillarini bilish muammo tug'dirmaydi. Ba'zi hujjatlar ahamiyatsiz, lekin ko'p miqdorda ishlab chiqariladi. Hakamlar nuqtai nazaridan, bu jarayon bilan birgalikda xalqaro arbitrajning juda yuqori narxini oshiradi.<sup>6</sup>

**Guvohlar tushuntirishlari** - Guvohlarning ko'rsatuvlari Xalqaro tijorat arbitraji guvohni tinglash mumkin bo'lgan har qanday shaxs, jumladan, taraf vakili yoki xodim deb tushunadi. Xalqaro arbitrajning zamonaviy tartibida arbitrlar protsedura xarajatlarini hisobga olishlari kerak. Shunday qilib, ular tomonlardan guvohlarning bilimlari va tegishli holatlarni tushunishlarini tavsiflovchi yozma guvohlik ko'rsatmalarini taqdim etishlarini so'rashning umumiy amaliyotini o'rnatdilar. Protessual nuqtai nazardan, so'roq va hakamlarning savollari bilan keyingi sud muhokamasi juda muhim. Ko'pincha guvohlar guvohlarning ko'rsatmalarini o'zlari yozmaydilar. Hujjatlar advokat yoki partiya tomonidan tayyorlanadi. Va bu bayonotning mazmuniga ta'sir qilishi mumkin. Og'zaki imtihon hakamlar sudyalari uchun ham, jarayon uchun ham muhimdir, chunki u guvohning yozma ko'rsatmalarining ishonchliligini tekshiradi. Hakamlar yozma ko'rsatmalarining og'zaki tasdiqlanmagan baholariga juda tez-tez duch kelishadi.<sup>7</sup>

<sup>5</sup> [https://www.researchgate.net/publication/322704816\\_Evidence\\_in\\_International\\_Commercial\\_Arbitration](https://www.researchgate.net/publication/322704816_Evidence_in_International_Commercial_Arbitration)

<sup>6</sup> <https://www.ibanet.org/MediaHandler?id=4F797338-693E-47C7-A92A-1509790ECC9D>

<sup>7</sup> <https://www.carlsonssolicitors.com/news/2021/4/28/admissibility-of-evidence-in-international-arbitration>

**Ekspertlar xulosalari va boshqalar** - Ekspert dalillari xalqaro tijorat arbitrajida muhim o'rin tutadi. Ekspert bayonoti ham nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri bo'lib, ekspert nuqtai nazari xalqaro tijorat arbitrajida dalil sifatida qo'llaniladi. Ekspert dalillari texnik, huquqiy, moliyaviy yoki boshqa ekspert masalalari bilan bog'liq bo'lib, nafaqat hakamlar ekspert tayinlash huquqiga ega, balki bu imkoniyat tomonlarga ham tegishli. yoki undan ortiq ekspertlar tayinlanishi mumkin. Imkoniyat jarayonning yuqori xarajatlari xavfi bilan uyg'unlashadi va hakamlar ekspert dalillarining dolzarbligi haqida qayg'uradilar, chunki hakamlar o'zlari va o'zlari mutaxassis bo'lishlari kerak. Ekspertlarni tayinlash yo'lidagi vaziyat murakkab. xalqaro tijorat arbitrajida qoidalar yo'qligi sababli, lekin amaliyotda ekspertni tayinlash ikkala tayinlash usulidan ham qo'llaniladi. Ikkala tomonning arbitrlari o'rtasidagi kelishuv yaxshi amaliyotdir, chunki har ikki tomon o'z arbitrlarini tayinlash irodasi tufayli. Shuningdek, tomonlar muammolarni diqqat bilan tanlashlari kerak qaysi ekspert dalillari zarur va bu ularning bayonotlarini kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin bo'lgan jihatlarini hisobga oladilar. Arbitrlar ekspertlarning xulosalari bilan bog'lanmaydi va ekspert hakamlik sudi yoki taraflar tomonidan tayinlanganmi, muhim emas. Ba'zi hollarda ekspertlar qarama-qarshi fikrlarni ishlab chiqadilar va hakamlar qaysi fikr ishonchliroq ekanligini hal qilishlari kerak. Bunday vaziyatda og'zaki tushuntirishlar hakamlarga yordam beradi. Shuningdek, ekspertning pozitsiyasi va uning ishdagi bayonoti muammo bo'lishi mumkin. Ekspertlarga maslahatchi sifatida yoki hakamlik sudyasi lavozimiga o'xshash lavozimda ishlashga ruxsat etilmaydi. Mutaxassislar ishlarni hal qila olmaydilar, faqat fikr bildiradilar holos. Yuqoridagi ekspertlardan biri (tribunal yoki taraf tomonidan tayinlangan) har qanday saytni, mulkni, mashinalarni yoki boshqa tovarlarni, namunalarni, tizimlarni, jarayonlarni yoki Hujjatlarni sud tegishli deb hisoblagan holda tekshirishi mumkin. <sup>8</sup>

Shuningdek. Qoidalarning qayta ko'rib chiqilishi har qanday masofaviy dalillarni eshitish imkon qadar adolatli bo'lishini ta'minlash uchun jiddiy tushuntirishlar berdi. Aslida, og'zaki guvohlik beruvchi guvohlarga noto'g'ri ta'sir o'tkazmaslik yoki chalg'itmaslik kerak va hakamlik sudyasi o'zi tegishli deb hisoblagan har qanday savolni, guvohning javobini yoki uning chiqishini istisno qilishi mumkin. Hakamlik sudyasi yakunda dalillarning maqbulligi, ahamiyatliligi, ahamiyatliligi va og'irligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Dalillar ish uchun ahamiyatsizligi, qonuniy to'siq bo'lishi, imtiyozli xususiyati yoki kimgadir taqdim etish uchun asossiz yuk yuklashi sababli hakamlik sudyasi tomonidan chiqarib tashlanishi mumkin. Arbitr o'zida mavjud bo'lgan eng yaxshi ma'lumotlarga asoslanib xulosa chiqarishi mumkin. Masalan, agar taraf so'ralgan dalillarni taqdim etmaslik uchun asosli sabab ko'rsata olmasa, arbitr etishmayotgan dalillar ushbu tomonning manfaatlariga zid ekanligini aniqlashi mumkin.

<sup>8</sup> <https://www.carlsonssolicitors.com/news/2021/4/28/admissibility-of-evidence-in-international-arbitration>



## **DALILLARNING AHAMIYATI**

Xalqaro tijorat arbitrajida arbitrlar moddiy faktlarni aniqlash va isbotlash uchun barcha mumkin bo'lgan dalillarni olishga harakat qilmoqdalar. Elektron hakamlar dalillar va ko'rsatuvlarni o'rganishda faol rol o'ynaydi va ular xolis qarorga kelish uchun ishning moddiy faktlarini izlashlari kerak. Xalqaro arbitrajdagi dalillar har bir tomonning argumentini baholashga yordam beradi va hakamlar dalillarni ko'rib chiqish jarayonida muvozanat va adolat tamoyillarini hisobga olishlari kerak. Elektron arbitrlar nafaqat dalillarni olish va baholash uchun o'z vakolatlaridan foydalanishlari, balki tomonlarning huquqlarini himoya qilishlari va adolatli qaror qabul qilish uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qilishlari kerak. Arbitrlar o'zlariga taqdim etilgan dalillarning turli vositalarini sinchkovlik bilan tahlil qilishlari va xalqaro arbitraj sudlaridan yoki institutlardan yoki Xalqaro advokatlar uyushmasidan kelgan qoidalarni diqqat bilan tanlashlari kerak bo'ladi.<sup>9</sup>

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak. Milliy sudlar ko'pincha sud muhokamasiga qabul qilingan dalillarni tartibga soluvchi murakkab qoidalarga amal qiladilar. Biroq, dalillarni olish va taqdim etish tartib-qoidalar va har qanday dalilning yoki ma'lum bir turining og'irligi ko'rsatilishi kerak - xalqaro arbitrajda yanada muhimroq rol o'ynaydi. Buning sababi, ish odatda sudda qabul qilinishi mumkin bo'lmagan hujjatlarga tayanishi mumkin. Hakamlar, shuningdek, har bir tomonning jamoat mulkiga kirish manfaatlariga zid bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori darajadagi, siyosiy yoki o'ta maxfiy ma'lumotlarga ega bo'lgan dalillarni o'z ichiga olishi yoki chiqarib tashlashi mumkin. Xalqaro arbitrajda ishni taqdim etish strategiyasini ishlab chiqishda, har qanday jarayondan oldin tajribali hakamlar va yuridik maslahatchilardan ekspert maslahati olish kerak bo'ladi. Xalqaro tijorat arbitrajining ahamiyati Yevropada ham, ayniqsa, tijorat huquqiga oid nizolarni xalqaro jihatlar bilan hal qilish sohasida ham ortib bormoqda. Xalqaro arbitraj nizolarni hal qilishning yetakchi usuli bo'lib, milliy sudlarda ko'rib chiqish muddatini taqqoslaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konventsiyasi ratifikatsiya qilingan kundan boshlab xalqaro arbitrajga yangi o'ziga xos jihatlar kiritilmoqda. Biz xalqaro tijorat arbitraji ad hoc ishlayaptimi yoki xalqaro arbitraj sudi tomonidan boshqariladigan institutsional tijorat arbitrajini farqlashimiz kerak. Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasining tijorat arbitrajida dalillarni olish qoidalar – “XAB qoidalar” – xalqaro miqyosda tayyorlangan qoidalarning yaxshi namunasi, biroq arbitrlar isbotlash tartib-qoidalarida hal qiluvchi so'zni aytadilar. Shuningdek, XBA Qoidalar kabi batafsil qoidalar bilan birgalikda xavf mavjud, ulardan foydalanish - arbitrajning asosiy afzalligi sifatida egiluvchanlik ba'zi hollarda yo'qolishi mumkin. Barcha mumkin bo'lgan dalillarni to'plashning asosiy ahamiyati moddiy faktni aniqlash va isbotlashdan iborat va shuni yodda tutishimiz kerakki, har

<sup>9</sup> [https://www.researchgate.net/publication/322704816\\_Evidence\\_in\\_International\\_Commercial\\_Arbitration](https://www.researchgate.net/publication/322704816_Evidence_in_International_Commercial_Arbitration)

bir hakam dalillarni tartibga soluvchi qonun, lex loci arbitrii ga bog'liq qoidalar haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Biz yuqorida xalqaro arbitraj sudida dalillarni keltirish tartibi va ularning turlariga doir barcha ma'lumotlar bilan anishib chiqishga harakat qildik.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Bowden, B. (2009), *The Empire of Civilization: The Evolution of an Imperial Idea*, (Chicago and London: The University of Chicago Press),
2. *Commentary on the revised text of the 2020 IBA Rules on the Taking of Evidence in International Arbitration*
3. *Rules of Evidence in International Arbitration: An Annotated Guide* by Nathan D. O'Malley (2012).
4. MALACKA, Michal. Evidence in International Commercial Arbitration. *International and Comparative Law Review*, 2013, Vol. 13., No. 1, pp. 97–104. DOI: 10.1515/iclr-2016-0061

**Tavsiya etiladigan internet saytlari:**

- [https://www.researchgate.net/publication/322704816\\_Evidence\\_in\\_International\\_Commercial\\_Arbitration](https://www.researchgate.net/publication/322704816_Evidence_in_International_Commercial_Arbitration)
- <https://www.carlsonssolicitors.com/news/2021/4/28/admissibility-of-evidence-in-international-arbitration>
- [https://uoanbar.edu.iq/LawRamadiCollege/catalog/file/22/library/Rules\\_of\\_Evidence\\_in\\_International\\_Arbitration\\_An\\_Annotated\\_Guide.pdf](https://uoanbar.edu.iq/LawRamadiCollege/catalog/file/22/library/Rules_of_Evidence_in_International_Arbitration_An_Annotated_Guide.pdf)
- <https://www.ibanet.org/MediaHandler?id=4F797338-693E-47C7-A92A-1509790ECC9D>
- <https://blog.ipleaders.in/evidence-arbitral-proceeding/>
- <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-tijorat-arbitrajida-arbitraj-bitimining-ahamiyati-ingliz-huquqi-va-amaliyoti/viewer>

## OMMAVIY MADANIYATNING MILLIY MENTALITETIMIZGA TAHDIDI

*Husniddin O'sarov*

*NavDPI katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Kelajagimiz bunyodkorlari bolmish yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat" bugun barchamizni hushyorlikka chaqirmoqda. Zero, globallashuv tomon intilayotgan yoshlarimiz har qanday "yangilik" ham yaxshilik keltirmasligi xususida o'ylab ko'rishlari darkor. Binobarin, ushbu maqolada "ommaviy madaniyat"ning millat kelajagiga ta'siri, unga qarshi mafkuraviy immunitet yaratish yollari, shuningdek, mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ma'naviy-targ'ibot ishlari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** "ommaviy madaniyat", ta'lim, ma'rifat, yuksak ma'naviyat, internet, ijtimoiy tarmoqlar, globallashuv, milliy qadriyatlar, mafkuraviy immunitet.

XXI asrning katta muammolaridan biri "mafkuraviy ta'zyiq"dir. Uning yoshlarga yetkazayotgan ta'sirlari ko'pgina davlatlar qatori mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi. Fan va texnika taraqqiy etgan ushbu asrda, ayniqsa, axborot texnologiyalari aql bovar qilmaydigan darajada rivojlanib bormoqda. Shuning bilan birga "Ommaviy madaniyat" zararlari ham kirib kela boshladi. Avvalo madaniyat so'zi haqidagi allomalar fikrini ko'zdan kechirsak. Qori Niyoziy ushbu so'zning keng qamrovli tushuncha ekani haqida shunday deydi: "Madaniyat tarixi g'oyat darajada murakkab bo'lib, uning hamma tomonlarini o'z ichiga olgan kitob hech qaysi bir tilda yo'q va bo'lishi ham mumkin emas". Ishoqxon Ibrat esa madaniyatni oziqlantirib turuvchi omil yaxshi axloq ekanini ta'kidlaydi: Madaniyat jahondan osoyish, Xulq husni anga oroyish. Madaniyat xaloyiqqa rohat, ko'rماغay g'amni hech soat. E'tibor bersak, bu tushunchaning negizi ezgulikdan iboratdir.

Biroq, bugun tilimizda qo'llanayotgan "ommaviy madaniyat" iborasi bu mazmuni inkor etayotgani rost. Yoshlar ongidagi g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan kirib kelayotgan, biz uchun yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tuban illatlarni o'z ichiga olgan bu "madaniyatlar" ko'plab falokatlarning ibtidosidir. "Ommaviy madaniyat" degan ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig'dirolmaydigan ko'plab axloqiy buzuqlik g'oyalari mavjud. Xususan, zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, ana shu axloqsizlik orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning qadim an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar ana shular jumlasidandir. Ayniqsa, ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni "madaniyat" deb atalishi, yoyinki, ming yillik ma'naviy qadriyat va an'analarni bepisandlik bilan "eskilik sarqiti" deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda. Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan ezgu qadriyatlarni boshqa an'analarni bilan almashtirish ongli insonga xos

bo'lmagan odatdir. Taniqli o'zbek adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek shunday degan ekan: "O'zbek xalqi azaldan buyon madaniyat bulog'ining boshida bo'lgan." Bugun yozuvchimiz A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida tasvirlagan oila, muhabbat, burch, hayo, iffat, ma'suliyat, e'tiqod, hurmat, mehr-oqibat kabi har bir millatdoshimiz uchun ibrat bo'la oladigan qadriyatlarning hayotdagi aksini to'laqonli uchratishimiz qiyin ekanligiga ko'pchiligimiz guvoh bo'lib turibmiz. Buyuk yozuvchimiz ularni millatdoshlarimizning ongi va qalbiga singdirish, uni ommalashtirish uchun o'z jonini qurbon qilgan edi. Uning millatimiz ma'naviyatini saqlab qolish yo'lidagi fidoiyligi hammani qolipga solish, yagona ma'naviyatni shakllantirishni maqsad qilgan, shu yo'l bilan sobiq ittifoqdagi barcha millat va elatlarning ma'naviyati o'rniga o'zga xalq ma'naviyatining hukmronligini ta'minlash yo'lida kamarbasta bo'lgan ma'naviy qashshoq siyosatchilar va shovinistlarni dahshatga solgan edi. Masalan, millatimizda asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onamizni ulug'lash, oila muqaddasligini himoya qilish, farzandning ota-ona oldidagi burchi, ularning gapiga quloq solish, qilinadigan katta ishlarni bamaslahat amalga oshirish, aka-ukalar opa va singillar, kelin qaynota, qayinonalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, mehr-oqibat, ustoz va shogird hurmati kabi muqaddas qadriyatlarni qayta tiklash milliy tarbiyamiz oldida turgan eng dolzarb vazifadir.

Ammo, bugun Yevropaga xos bo'lgan individualizm, ota-ona holidan xabar olmaslik, aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi yaqinlikning bo'lmasligi va ularning bir-birlarini qo'llab-quvvatlamasliklar va boshqa bir qator holatlar millatimiz hayotiga kirib bormoqda. Bunday salbiy jarayonlarning oldini olish uchun ham milliy tarbiyamizning bosh yo'nalishi globallashtirish jarayonida sodir bo'layotgan ana shu salbiy holatlarni barataraf etish taraqqiyotimiz talabi hisoblanadi. Bu xususda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani-ayni haqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi," degan edilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda biz uchun ommaviy madaniyat-bu bir guruh boylikka o'ch odamlar tomonidan zamonaviy axborot-texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda axloqiy buzuqlik, zo'rovonlik, o'z manfaatini o'zgalardan manfaatidan ustun qo'yish, "Men"ni ulug'lash kabilarni aks ettiruvchi har xil o'ta sayoz madaniyat asarlarini moddiy va ma'naviy hayot maydonlariga tashlab, ko'ngilocharlik bahonasida tijoratga asoslangan iste'molchilikni yo'lga qo'yib xalqlarni o'z milliy qadriyatlariga asoslangan madaniyatidan judo qilish evaziga katta daromad topishga qaratilgan aksilmadaniyatdir. Darhaqiqat, "Ommaviy madaniyat" tahdidlarining inson ongiga salbiy ta'sirlari quyidagilardan iboratdir: "ommaviy madaniyat" inson ongini

real hayotdan uzoqlashtiradi va soxta yaratilgan obrazlarga yo'naltiradi; aldovga oson ishonadigan shaxslarni paydo qiladi; insonni ishlab chiqaruvchiga emas, faqat iste'molchiga aylantiradi. insonni milliylikka borib taqaluvchi ildizlarini kesadi va ma'naviy jihatdan qashshoqlashtiradi. Afsuski, bugungi kunda ham jamiyatimizda "ommaviy madaniyat" niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning yoshlarimiz ongiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarini kuzatishimiz mumkin, jumladan: bizga ma'lumki Internet orqali yoshlarimiz ko'plab ijtimoiy tarmoqlardan ro'yxatdan o'tishgan.

Oliy o'quv yurtlarining deyarli 90% talabalari internetning ijtimoiy tarmoqlaridan keng foydalanib kelishmoqda. Albatta bu quvonarli holat, ammo hozirgi kunda yoshlarning 2 mln.dan ortiq qismi eng mashhur «Odnoklassniki.ru» deb nomlangan ijtimoiy tarmoqdan ro'yxatdan o'tganlar. Shuningdek, «V kontakte» ijtimoiy tarmog'ida 200 mingdan ortiq foydalanuvchilar mavjud. Amerika ijtimoiy tarmog'i hisoblangan Facebook tarmog'ida esa O'zbekiston yoshlari 130 mingdan oshib ketdi, ulardan 72% o'smirlar va yoshlardir. Ammo ushbu ijtimoiy tarmoqlarni yoshlar ma'naviy ongi uchun to'liq ijobiy ma'lumotlar beradi deya olmaymiz. Ayrim yoshlarimiz ushbu ijtimoiy tarmoqlardan o'z yaqinlari bilan uzoqni yaqin qiluvchi vosita sifatida foydalanishsa, ko'pchilik yoshlar zerikish natijasida axloqsizlikni targ'ib qiluvchi pornografik ma'lumotlar olishga, ma'naviy ongi va fikrlash doirasi axloqiy jihatdan past bo'lgan o'rtoqlar izlashga va ular bilan axloq chegaralaridan chetga chiqqan intim mavzularda suhbat qurishga harakat qiladilar. Shuningdek, "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilari oilalarga, ayniqsa yosh oilalarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, har bir millatning, har bir insonning ma'naviyati va o'ziga xos madaniyati shakllanishida oilaning o'rni beqiyos. Aksincha, oilaning biror muammosi, oilaning ikkinchi yarmini tashkil qilgan ayolsiz yechilmagan va amalga oshirilmagan. Shu ma'noda, ayollarimiz o'zlarining oilada siqilgan, huquqlari cheklangan tarzda his qilmaganlar.

Ammo "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilari Sharq oilasida ayollar kamsitilishi, ularning erkaklar bilan teng huquqli emasligi haqida fikr yuritadilar. Ayniqsa yosh oilalarga bu o'zining kuchli ta'sirini o'tkazmoqda. Binobarin, ommaviy madaniyat niqobi ostida turli g'arazga yo'g'rilgan noxolis axborotlar xuruji ta'siridan saqlanish (bunday axborotlar nihoyatda ko'p yo'llar bilan tarqatiladi; ko'ngilochar telekanallar, radio efirlar, gazeta-jurnallar, kino, serial, multfilm va hokazolar), "san'at asar"lari zamirida targ'ib etilayotgan zo'rovonlikni, axloqsizlikni, egosentrizm g'oyalarni o'z vaqtida anglab ularga qarshi mafkuraviy immunitetni hosil qilish bugun faqat bizning mamlakatda yoki mintaqada emas, butun jahonda eng dolzarb masala bo'lib turibdi. Bizning oldimizdagi vazifa xalqimizni, yoshlarimizni ana shu taqlidchilikdan, ko'r-ko'rona ergashuvchanlikdan saqlashga erishmog'imizdir. Buning uchun esa, avvalo, ziyolilarning o'zi chin va soxta qadriyatlar orasidagi nozik farqni teran anglab ola bilmog'i lozim. Bizningcha, buni soddagina qilib yoshlarga bunday tushuntirish kerak:

ommaviy madaniyat targ'ibochilari tashviq etayotgan xorijiy dangir-dungirdan o'zimizning do'mbiraning navosi yaxshi.

Chunki u qalbimizga tutash. Faqat bizda ulardan farqli ravishda hayo, ibo degan insoniy tuyg'ular bor... Ommaviy madaniyatni o'ta mavhumlashtirib yubormasdan shu tarzda oddiygina usulda yoshlarimizga tushuntirib borilsa, har bir narsaga ko'r-ko'rona taqlid qilish emas, har qanday masalaga tanqidiy ruhda yondashish, yaxshi-yomonning farqini bilish ko'nikmasini shakllantirishga erishish oson bo'ladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi.

Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketayapti!" Umuman olganda "ommaviy madaniyat" bizning qadriyatlarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan madaniyatlar qatoriga kiradi. Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, katta avlodning oldidagi vazifa - yoshlarning bekorchi vaqtini qoldirmasdan ularni doim bir foydali ish bilan band qilib qo'yish; ularga mutolaa sirlarini o'rgatib, zehni o'stiradigan, qalbini yumshatadigan, vatanparvarlik tuyg'usini jo'shtiradigan kitoblarni tanlashlashda yordamchi bo'lish; oldi-choqdilardan san'at asarini farqlash sirlarini o'rgatish; behayolik go'zallik emas, aksincha, nafrat uyg'otadigan millat ekanini hayotiy misollar yordamida ta'sirchan usulda tushuntirish; halol-haromni anglatish masalasida o'ta qat'iyatli bo'lish; ko'rgan kechirganlariga taqlid qilib ketavermasdan, ularni aql tarozisiga solib foyda-ziyonini chamalab ko'rish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar, kundalik hayotimizda amalga oshiriladigan, bo'lsa ommaviy madaniyatning milliy mentalitetimizga qarshi qaratilgan tahdidlarining oldini olish uchun keng yo'l ochib beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Sh.M.Mirziyoyev. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent, "O'zbekiston" - 2017.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda/ - Toshkent: O'qituvchi MU MCHJ, 2021. 184 b.
4. Shavkat Mirziyoyev Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir "Tasvir" nashriyot uyi Toshkent 2021.

5. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.

6. 8. Ibragimov S.E. Yoshlar tarbiyasida "Ommaviy madaniyat" tahdidi. "Sohibqiron yulduzi" jurnali 2022 yil № 1, b-140.

**O'ZBEKISTON FARZANDIGA DO'STONA FIKR!**

*Po'latov Inomjon va Karimova Madinaxon*

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzey xodimlari*

**Annotatsiya**

Ushbu maqoladabugungi yoshlarimizning bir vakili bo'lgan oliy ta'lim talabasining yoshlarning orasidagi hayotga bo'lgan munosabatlarini ijobiy va salbiy tomonlari tanqidiy tahlil qilinadi .O'ylaymizki bu yerda bayon qilinadigan ezgu fikr va g'oyalar sizni befarq qoldirmaydi.Maqolani shunchaki o'qish emas, og'riqli jarayonlarni dard bilan qabul qilish,jamiyatdagi o'z hayotiga,Vataniga befarq bo'lgan insonlarni to'g'ri yo'lga chorchash, ularni kelajakdagi o'z o'rinlarini topa olishlariga ma'nan yordam ko'rsatasiz degan umiddamiz!

*“Vatanni sevish iymondandir”*

**Kalit so'zlar:** talaba, vatan, XXI,O'zbekiston,g'oya,,bolalar,kelajak,kadrlar, har doim,yoshlar,motivatsiya,maktab.

XXI asrda tug'ulish bizning fikrcha, ulkan sharaf bo'lishi bilan birga, nihoyatda e'tiborli bo'lishni, bir on bo'lsada, g'aflatga berilmaslikni talab qiladi.XXI asrda tug'ulish sharafli deyilganda, sizubizni bugungi rivojlangan,hamma hamjihatlikda musaffo osmon va tinch oila bag'rida erkin nafas olayotganimizni tushunish mumkin, bu totuvlikga positive javob qaytarmaslik vijdotsizlikdir.Positive javob berish deganda - qo'limizdan kelganidan ortiq darajada kerak bo'lsa tunu-kun zahmat chekish orqali tinch va farovon O'zbekistonning rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishni tushunishimiz kerak.Albatta eng kamida Vatanimizning rivojlanishiga o'z hissamizni sifatli va samarali ta'lim olish orqaligina qo'shish mumkin.Shunday imkoniyatlari keng bo'lgan diyorda o'z taffakurimizni bemani narsalar bilan band qilish jaholatning eng oliy darajasidir.Bugungi kunda o'smir yoshdagi yigit va qizlarning faqat o'zlarini o'ylab fikr yurutishlari kishi g'azabini junbushga keltiradi.Aslini olganda 1 soniya vaqtni befarq o'tkazish organizimga keraksiz bo'lgan malhamdan foydalanish kabidir.Keraksiz malham foyda o'rniga zarar keltirganidek bemaqsad o'tkazilgan vaqt ham jaholatga yetaklaydi.Axir sizni dunyoga keltirgan volidangizni kuchga to'lgan paytingizda tashlab qo'ymaysizku.Vatanga ham shunday munosabatda bo'lishingiz lozim.

Turli xil jinoyatlar va ekstremistik g'oyalar ostiga tushib qolishning tag zamirida bilimsizlik yotadi.O'z vaqtida kerakli ilmni ongiga joylagan inson bunday xatolarga yo'l qo'ymaydi.Nega ajdodlarimiz kabi butun dunyoga ilm-ziyo tarqatib, butun dunyoni eng madaniyatli hamda ilmi inoslari bo'lishga harakat qilmyapmiz?

Ibn Sino,al-Xorazmiy,al-Moturudiy, al-Beruniy,at-Termiziylarni ham sizubizdek jasad va tafakkurlari bo'lgan.Lekin bugungi kundagi sharoit ularda 100% bo'lmagan.Lekin ular o'sha holatlarida ham harakat qilganlar.Asrida ular manabu oliy tuhfa hisoblanadigan hayotda befoyda yashashni kechirilmas qilmish deb hisoblaganlar.Biz ham faqat bugunni o'ylamasdan ertaga boqishimiz,kelajakavlodga kerakli nimadir qoldirishimiz lozim.



Avvalo insonlardagi fikrni ertangi kunga qayg'urish tuyg'usini rivojlantirish uchun ishni eng kamida maktabgacha ta'lim muassalaridan boshlash darkor. Ularga ertalabdan kechgacha 2x2 ni emas buning o'rniga ularning yoshiga mos tushinishi oson bo'lgan mavzularni ta'lim jarayoniga qo'shish shart. Masalan 3-6 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan ertaklar soni milliondan ortiqni tashkil qiladi. Bu ertaklar esa malikaning o'g'irlanishi bilan boshlanib ajdarhoni o'limi bilan yakunlanadi. Aytish mumkinki Vatanga muhabbat, jamiyatni sevish, kelajakda potensial lider bo'lishga chorlovchi ertaklar yozilishi va bolalarga yoshligidan ongiga quyulishi lozim.

Maktablardagi ta'lim tizimini tahlil qilsak! Ustozlarga juda katta e'tibor berilmoqda. Oylik maoshlari oldin bo'lmagan darajaga ko'tarildi. Maktablarga ma'naviy va moddiy ko'maklashuv beto'xtov davom ettirilmoqda. Albatta bu rag'batlantirish kelajak avlodga sifatli ta'lim berish uchundir. Lekin bu rag'batlantirishga mos javob bermayotgan pedagoglar 1/10 ni tashkil etadi. 11 yil Ingliz tili darsi o'tilsayu o'quvchi "I love You" dan boshqa narsani o'rgana olmasa. Axir bu achinarli holatku. Buni sababini o'qituvchidan so'rasangiz osongina bola o'zi o'qishni hohlamaydi degan javob olasiz. Ha siz qiziqтира olsangizgina bola sizni darsingizni qunt bilan tinglaydi, keyingi mashg'ulotni sabrsizlik bilan kutadi. Mening fikrimcha, o'rta maktab o'quvchilaridan to bitiruvchi sinflarigacha har haftaning juma kuni 1-soatda o'tiladigan sinf soati o'rniga motivatsiya soati qo'shilishi kerak. Masalan biz 11-yil sinf soati darsida karidorda kim yugurgani, xona remontiga kim pul olib kelmagani haqidagi bo'lmag'urvabutonlaysafsatahisoblangan gap-so'zlar bilan band qilinganmiz. Demak, bir oyda 4 soat vaqtimiz befoyda sarflandi. Agar motivatsiya soatlari belgilansa, o'quvchilar ongidagi bo'shliq maqsad bilan to'ldiriladi.

38. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>
39. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>
40. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>
41. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from [https://bmpublgroup.com/assets/1\\_26\\_4\\_1.pdf#page=75](https://bmpublgroup.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75)
- ulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 6, 134 -138.
43. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. *Экономка и бизнес: теория и практика.. 4-2 (74)*. ISSN 2411 0450.
- akubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. *Web of scientist: International scientific research journal* ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2
45. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>.
- кубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(4), 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>.
47. Файзиев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 426-434. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2099](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099)

48. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>
49. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>
50. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. Журнал Инновации в Экономике, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>
51. Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма.-Т.;“Iqtisod-Moliya”, 2013. -390 б.

**KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA MOLIYAVIY RESURLAR TAHLILINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**G'olibjon Quvvatov**

*PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti (DSc)*

*Toshkent, O'zbekiston. Email: golibjonkuvvatov@gmail.com*

*ORCID: 0009-0008-4694-787X*

**IMPROVING FINANCIAL RESOURCE ANALYSIS TO INCREASE  
THE EFFICIENCY OF ENTERPRISE MANAGEMENT**

*Golibjon Kuvvatov,*

*PhD, doctoral student of Tashkent state university of economics (DSc)*

*Tashkent, Uzbekistan. Email: golibjonkuvvatov@gmail.com*

*ORCID: 0009-0008-4694-787X*

**Annotsiya.** Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslari, ularning turlari va xususiyatlari, ulardan korxonada faoliyatida boshqaruv samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va moliyaviy resurslar tahlilining jahon tajribasidan mamlakatimizda keng foydalanish bo'yicha ayrim ilmiy taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, korxonada moliyaviy resurslari va iqtisodiy holatini tahlil qilishda xalqaro tajribalardan keng foydalanish yo'nalishlari keltirib o'tilgan. Maqolada, korxonada moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish orqali uning kelgusi davrlar uchun uning qarzdorlik holati, moliyaviy resurslarning likvidliligi, to'lovga qobiliyati va faoliyatning rentabelligini doimiy tahlil va nazorat qilib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy faoliyat, moliyaviy resurslar, to'lov qobiliyati, likvidlilik, moliyaviy resurs, aktiv, kapital, majburiyat.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены финансовые ресурсы хозяйствующих субъектов, их виды и характеристики, особенности повышения эффективности управления в деятельности предприятия, а также некоторые научные предложения и рекомендации по широкому использованию мирового опыта анализа финансовых ресурсов в нашей стране представлены. Также упомянуты направления широкого использования международного опыта анализа финансовых ресурсов и экономического положения компании. В статье путем анализа финансовой отчетности предприятия расширяются возможности непрерывного анализа и контроля его задолженности, ликвидности финансовых ресурсов, платежеспособности и рентабельности деятельности на будущие периоды.



**Ключевые слова:** Финансовая деятельность, финансовые ресурсы, платежеспособность, ликвидность, способность к постоянному финансированию, финансовые ресурсы, активы, капитал, обязательства.

**Annotation.** This article examines the financial resources of business entities, their types and characteristics, features of increasing management efficiency in the activities of an enterprise, as well as some scientific proposals and recommendations for the widespread use of international experience in analyzing financial resources in our country. Directions for the widespread use of international experience in analyzing the financial resources and economic situation of the company are also mentioned. In the article, by analyzing the financial statements of an enterprise, the possibilities of continuous analysis and control of its debt, liquidity of financial resources, solvency and profitability of activities for future periods are expanded.

**Key words.** Financial activity, financial resources, solvency, liquidity, ability to permanent financing, financial resources, assets, capital, liabilities.

**Kirish.** Xalqaro integratsiya va dunyo mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasi tufayli korxonalarining barqaror rivojlantirish dolzarb iqtisodiy masalalar sifatida maydonga chiqmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning ishlab chiqarish faoliyati bilan birga moliyaviy faoliyatini barqarorlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois korxonalarining moliyaviy faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi moliyaviy resurslarni alohida tahlil qilish zaruriyati ortib bormoqda. Korxonalarni to‘g‘ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo‘jalik faoliyatini chuqurroq o‘rganishni talab qiladi. Korxonalar moliyaviy xizmatining vazifalari moliyaviy hujjatlar aylanishini, o‘zaro hisob - kitoblarni, mablag‘larni jalb qilish va joylashtirishni, moliyaviy - xo‘jalik faoliyatini nazorat qilishni, moliyaviy oqimlarni optimallashtirishni, biznes rejani tuzishni, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish va prognoz qilishni o‘z ichiga oladi. Biroq, bu funksiyalarni bajarish uchun moliyaviy xizmat korxonalar boshqa boshqaruv xizmatlaridan (xarid, ishlab chiqarish, sotish) ma'lumotga muhtoj bo‘ladi.

Bugungi kunda bankrotlikka yuz tutmaslik va yashab qolishga harakat mavjud moliyaviy resurslarni boshqarishni yaxshi bilishni, kapital tarkibini va tashkil topish manbalarini shakllantirishda moliyaviy mustaqillikni ( o‘z va qarz mablag‘lari ulushini) to‘g‘ri nisbatlashni, eng muhimi samarali va natijali ishlab chiqarishni, tijorat va moliyaviy faoliyatini yo‘lga qo‘yishni talab etadi [1].

Dunyo olimlarining kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, korporativ moliyalashtirishning asosiy funksiyalarini amalga oshirish ERP (Enterprise Resource Planing) va MRP II (Manufacturing Resources Planning) tizimlari yordamida ushbu vazifalarni samarali bajarish mumkin. Bu tizimlar korxonalar faoliyatining barcha sohalarini qamrab oluvchi yechimlar majmuini nazarda tutadi. Har bir sohaning

o'ziga xos axborot kompleksi bor. Ularning kiritilishida birlamchi hujjatlar qabul qilinadi, chiqishlar esa axborot modeli talablariga muvofiq qayta ishlanadi va keyingi ishlarga tayyorlanadi va korxonaning boshqa ko'rsatkichlari bilan umumlashtiriladi. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash korxonalar samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, korxonaning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishdan maqsad uning hisobot yilidagi faoliyati natijalarini baholash, korxonalar faoliyatining haqiqiy natijalarini rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirish; shuningdek, kompaniyaning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari baholash. Moliyaviy faoliyat tahlili moliyaviy hujjatlar asosida amalga oshiriladi: buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, pul oqimi to'g'risidagi hisobot va boshqalar.

**Material va metod.** Kompaniyaning biznes faoliyatini tahlil qilish jalb qilingan mablag'lar, biznes natijasi va takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy funksiyalarni kuzatish orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy tahlil kompaniyaning moliyaviy holatini va u bilan bog'liq o'zgarishlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Moliyaviy tahlilning asosiy qismi buxgalteriya balansi va daromadlar to'g'risidagi hisobotning qiymatini solishtirish orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy tahlil - bu kompaniyaning joriy moliyaviy holatini baholash va rivojlanishning potentsial tezligini baholash, shuningdek, kelajakdagi moliyaviy holatni bashorat qilish, mavjud mablag' manbalarini va ularni safarbar qilish imkoniyatlarini aniqlash uchun moliyaviy ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish usuli hisoblanadi.

Moliyaviy tahlilning predmeti, birinchi navbatda, kompaniya moliyaviy hisobotlari, ya'ni:

- balanslar varaqasi,
- daromad jadvali,
- pul oqimi to'g'risidagi hisobot,
- o'z kapitalidagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot va
- moliyaviy hisobotga izohlar.

Moliyaviy tahlil predmeti yillik hisobotning xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy bo'lmagan, ammo to'g'ri biznes va investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun muhimroq bo'lgan barcha boshqa segmentlari bo'lishi mumkin, masalan:

- aksiyadorlarga yo'llangan xat (aksiyadorga xat),
- qo'shimcha muhokamalar va boshqaruv
- Boshqaruv muhokamasi va tahlili.

Kompaniyada moliyaviy tizimni muvaffaqiyatli boshqarish uchun moliyaviy biznesni tahlil qilish faolligi ham paydo bo'ladi. Moliyaviy tahlil kompaniyaning kompleks biznes tahlilining ajralmas qismidir. Moliyaviy tahlil kompaniyaning moliyaviy funksiyalarining to'liq ta'sirini tahlil qilishi kerak:

- umumiy tamoyillar (hosildorlik, tejamkorlik, rentabellik),

- maxsus tamoyillar (likvidlik, barqarorlik, xavfsizlik), • ichki va tashqi omillarning harakatlari;
- moliyalashtirish bo'yicha qarorlar va boshqalar.

Daromadlar to'g'risidagi hisobot/balans moliyaviy siyosatning asosi sifatida kompaniyaning moliyaviy tahlilida asosiy omil hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, buxgalteriya balansi korxonada faoliyatini kompleks tahlil qilishning asosiy usullari va vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Moliyaviy tahlil turlari haqida gap ketganda, moliyaviy tahlilni quyidagilarga ajratish mumkin:

- mablag'lar va mablag'lar manbalarini tahlil qilish;
- likvidlik tahlili,
- xarajatlar va daromadlarni tahlil qilish
- kompaniyaning biznes faoliyatini tahlil qilish.

Aktivlar va mablag'lar manbalarini tahlil qilish, aslida, balans tahlili bo'lib, bu yerda balansning statik va dinamik tahlili haqida gapirish mumkin.

Buxgalteriya balansini statik tahlil qilish - bu faqat bitta balansning tahlili bo'lib, uning asosida aktivlar balansi va tuzilishi va ularning manbalari tasviri olinadi. Buxgalteriya balansini dinamik tahlil qilish deganda bir nechta shunday balanslarni tahlil qilish tushuniladi va u bitta kompaniyada ma'lum vaqt ichida sodir bo'lgan o'zgarishlarni ko'rish imkonini beradi.

Moliyaviy tahlilning yo'naltirilganligi nuqtai nazaridan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

· gorizontall tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'tgan davr bilan taqqoslanadi, ya'ni bu ko'rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

· vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o'rganiladi. Masalan, korxonada mablag'larining yoki ularni qoplovchi manbalarning hisobot davridagi tarkibi va uni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi ifodalanadi;

· nisbiy ko'rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqa o'rganiladi. Masalan korxonada mablag'larining va ularning manbalari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o'rtasidagi aloqa ifodalanadi;

· taqqoslash tahlilida korxonada bo'yicha moliyaviy holat uning alohida kichik bo'limlari moliyaviy holati bilan taqqoslanadi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarning moliyaviy holati bilan solishtiriladi va pirovardida, omillar tahlilida korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil etiladi. Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish, ya'ni moliyaviy tahlil – bu keng ko'rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir[5].

**Natijalar.** Bugungi kunda, korxonalar va tashkilotlarga berilgan imkoniyatlar, ularning o'z maqsadlariga erishishdagi har qanday sun'iy to'siqlarni bartaraf etilishi, erkinlik va mustaqillikni qaror topishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar va tashkilotlar xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarishda muhim dastak hisoblangan iqtisodiy tahlilning roli ham oshib bormoqda. Buni nimalarda ko'rish mumkin? Bugungi iqtisodiyot, rejali iqtisodiyot davridan farqli ravishda tahlilchilar oldiga bir qadar murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Ta'minot jarayonidan tortib korxonalar moliyaviy holatiga qadar bo'lgan kompleks jarayon qat'iy rejalashtirilgan bir sharoitda tahlilni mazmunini faqat uning o'zgarishlarini va o'zgarish sabablarini o'rganishdangina iborat deyish mumkin[4]<sup>1</sup>.

Kompaniyani moliyalashtirishdan avval uning kelgusi davrlar uchun moliyaviy holatini tahlil qilish zaruriyati tufayli, ushbu tahlildan asosiy manfaat nimalardan iborat ekanligini bilib olish zarur. Moliyaviy tahlil subyektlariga tahlilchilarning keng qamrovli guruhi kiritiladi. Ularni shartli ravishda ichki va tashqi subyektlarga bo'lish mumkin. Ichki tahlil subyektlariga faqat shu firma, kompaniya xodimlari kirsalar, tashqi subyektlarga ta'sischi, soliq organlari xodimlari, auditorlar, yuqori tashkilot va vazirliklar, xaridor va buyurtmachilar, mol yetkazib beruvchilar, sug'urta agentliklari, reklama agentlari, bank xodimlari va boshqa shaxslar kirishi mumkin. Tahlil subyektlarining manfaatlari albatta bir biridan keskin farq qiladi. Masalan; ta'sischi ko'proq firma va kompaniyalarning foydasi bilan, soliq idoralari ko'proq "daromad-xarajat-natija"lar aloqadorligi tahlilidan, kredit inspektorlari va bank xodimlari; firma va kompaniyalarning kreditga layoqatliligi va moliyaviy barqarorligi bilan, mol yetkazib beruvchilar; firma va kompaniyaning to'lov layoqatini o'rganishdan, tahlil etishdan manfaatdorlar. Moliyaviy tahlil va ularning manfaatlar mushtarakligini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rib chiqish mumkin. (1-jadval).

**1 – jadval.**

**Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlari<sup>2</sup>.**

<b>T/r</b>	<b>Moliyaviy tahlil subyektlari</b>	<b>Subyektlar manfaatlari</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
<b>1.</b>	Korxonalar xodimlari	Firma va kompaniyaning moliyaviy natijaviyligi va moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishdan
<b>2.</b>	Tasischilar	Firma, kompaniyaga qo'yilgan va qo'yiladigan mablag'larning foydaliligidan

<sup>1</sup> Raximov M.Y. Moliyaviy tahlil-2 (o'quv qo'llanma) T.:TMI. 2003 y. 166 b.

<sup>2</sup> Raximov M.Y. Moliyaviy tahlil-2 (o'quv qo'llanma) T.:TMI. 2003 y. 166 b.

3.	Auditorlar	E'lon qilinadigan hisobot shakllarini to'g'riligini huquqiy tamoyillar asosida baholash va firma, kompaniyalar moliyaviy holatini yaxshilashni ichki imkoniyatlarini ko'rsatib berishdan, mulk egalari manfaatlarini himoya etishdan
4.	Yuqori tashkilot	Mavjud moddiy va moliyaviy resurslar harakatini va samaradorligini o'rganish
5.	Soliq idoralari	Majburiy to'lovlar, soliqlar va ajratmalarni undirish yuzasidan resurslar holati, harakatini va faoliyat natijaviyligini o'rganishdan
6.	Sug'urta agentliklari	Firma, kompaniya mulkini turli tahlikalardan himoya qilish, saqlanishi yuzasidan ma'lumotlarni o'rganishdan
7.	Mol yetkazib beruvchilar	Shartnomaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishi, to'lov intizomiga rioya qilish, to'lovga qobilyatlilik holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan
8.	Xaridor va buyurtmachilar	Ta'minotdagi uzilishlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan firma va kompaniyalarning moliyaviy va iqtisodiy salohiyatning tayanchi to'g'risidagi ma'lumotlardan

Korxonalar moliyaviy resurslardan foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati bilan shug'ullanadilar. Investitsiya siyosati har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiyotida muhim yo'nalish hisoblanadi. Moliyaviy tahlilni amalga oshirishning tayyorgarlik bosqichi auditorlik xulosasi bilan tanishishdan boshlanadi va maqsad tahlilning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilishdir. Standart audit hisoboti - bu hisobotdagi ma'lum ma'lumotlarning ishonchliligi va ularning amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi bo'yicha auditor yoki auditorlik tashkilotining ijobiy bahosini o'z ichiga olgan qisqa hujjat. Nostandart yanada kengroq va qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

II bosqich buxgalteriya hisobini dastlabki ko'rib chiqish bosqichi bo'lib, unda hisobot davridagi ish sharoitlarini baholash, asosiy ko'rsatkichlarning tendentsiyalarini, shuningdek mulk va findagi sifat o'zgarishlarini aniqlashga qaratilgan. kompaniyaning pozitsiyasi. Iqtisodiy hisobot va hisob-kitob tahlili - bu xo'jalik faoliyati natijalari va korxonaning moliyaviy holatini umumiy baholash. Moliyaviy tahlil quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: iqtisodiy samara - faoliyat natijasini tavsiflovchi mutlaq ko'rsatkich va iqtisodiy samaradorlik - bu samaraga erishish uchun sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan ta'sirni taqqoslaydigan tegishli ko'rsatkich.

Moliyaviy natija moliyaviy daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq bo'lib, ularni alohida tahlil qilish kerak. Moliyaviy tahlildan oldin umumiy tizim tahlili

o‘tkazilishi kerak, morfologik tahlil usulidan foydalanish mumkin, bu muammo haqida oz miqdordagi ma'lumot mavjud bo‘lganda muvaffaqiyatli bo‘ladi. Vaziyatni nazorat qilish va tashxislash va kompaniyaning rivojlanishini bashorat qilish uchun axborot tahlilini o‘tkazish mumkin.

"Moliyaviy tahlil ustun qismda bu nisbat tahlili bo‘lib, uning mohiyati balans moddalariga oddiy matematik formulalarda qarashdir. Ushbu moliyaviy toifalarni o‘zaro taqqoslashda, oqimlarni, ma'lum bir vaqt ichida erishilgan natijalarni (daromadlar to‘g‘risidagi hisobot toifasiga ko‘ra) va oqimlarni, balansni ifodalovchi moliyaviy toifalarni taqqoslashdan izchil natijalarga erishib bo‘lmasligiga e'tibor berish kerak. ma'lum bir kundagi pozitsiyalar. Moliyaviy tahlil bu muammoni bir necha ketma-ket muddatlarda birja pozitsiyalarini olish orqali ko‘proq yoki kamroq muvaffaqiyat bilan hal qiladi va shu bilan ularning soni va tizimligiga qarab, ularni kamida taxminiy oqimlarga aylantiradi, ular bilan to‘plangan natijalarni (oqimlarni) ifodalaydi. ma'lum vaqt oralig‘ida[6].

(\$ in millions)	Year 1	Year 2	Year 3	Year 1	Year 2	Year 3	Year 1	Year 2	Year 3
Revenue	51,585	53,494	55,749	100%	100%	100%	NA	4%	4%
COGS	27,697	28,429	29,200	54%	53%	52%	NA	3%	3%
Gross Profit	23,888	25,065	26,550	46%	47%	48%			
SG&A	5,877	6,006	6,144	11%	11%	11%	NA	2%	2%
Other	1,764	1,931	2,026	3%	4%	4%	NA	9%	5%
EBITDA	16,247	17,128	18,380	31%	32%	33%	NA	5%	7%
Depreciation	2,960	3,196	3,452	6%	6%	6%	NA	8%	8%
Earnings Before Interest and Taxes	13,287	13,932	14,928	26%	26%	27%	NA	5%	7%
Interest Expense	1,488	2,580	2,448	3%	5%	4%	NA	73%	(5%)
Earnings Before Tax	11,799	11,352	12,480	23%	21%	22%	NA	(4%)	10%
Tax	3,155	2,861	3,012	6%	5%	5%	NA	(9%)	5%
Net Income	8,644	8,491	9,468	17%	16%	17%	NA	(2%)	12%

### 1-rasm. Korxonalar faoliyatini gorizontal va vertikal tahlil usullari<sup>3</sup>.

Foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobot tahlilidan shuni ko‘rishimiz mumkinki Aksariyat tahlilchilar moliyaviy hisobot tahlilini daromadlar to‘g‘risidagi hisobotdan boshlaydilar. Tahlilning ikkita asosiy turi mavjud: vertikal tahlil va gorizontal tahlil.

Vertikal tahlil. Ushbu tahlil usuli yordamida biz daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni yuqoriga va pastga qaraymiz (shuning uchun, "vertikal" tahlil) har bir satrning daromad bilan qanday solishtirilishini foiz sifatida ko‘ramiz.

<sup>3</sup> Vučićević D., "Theoretical aspects and basic settings of financial analysis", School of Business 2/2012,(2012),p.2.

Misol uchun, quyida ko‘rsatilgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobotda bizda vertikal tahlilni tashkil etuvchi jami dollar miqdori va foizlar mavjud.

(\$ in millions)	Year 1	Year 2	Year 3	Year 1	Year 2	Year 3
Revenue	51,585	53,494	55,749	100.0%	100.0%	100.0%
COGS	27,697	28,429	29,200	53.7%	53.1%	52.4%
Gross Profit	23,888	25,065	26,550	46.3%	46.9%	47.6%
SG&A	5,877	6,006	6,144	11.4%	11.2%	11.0%
Other	1,764	1,931	2,026	3.4%	3.6%	3.6%
EBITDA	16,247	17,128	18,380	31.5%	32.0%	33.0%
Depreciation	2,960	3,196	3,452	5.7%	6.0%	6.2%
Earnings Before Interest and Taxes	13,287	13,932	14,928	25.8%	26.0%	26.8%
Interest Expense	1,488	2,580	2,448	2.9%	4.8%	4.4%
Earnings Before Tax	11,799	11,352	12,480	22.9%	21.2%	22.4%
Tax	3,155	2,861	3,012	6.1%	5.3%	5.4%
Net Income	8,644	8,491	9,468	16.8%	15.9%	17.0%

## 2-rasm. Korxonalar faoliyatini gorizontal tahlili<sup>4</sup>.

Yuqoridagi misolda ko‘rib turganingizdek, biz har bir qatorni daromadning ulushi sifatida ko‘rib, daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni to‘liq tahlil qilamiz.

Biz ko‘rib chiqadigan asosiy ko‘rsatkichlar:

Sotilgan mahsulot tannarxi (SOGS) daromadning foizi sifatida

Yalpi foyda daromadning foizi sifatida

Daromadning foizi sifatida amortizatsiya

Umumiy va ma'muriy (SG&A) ni daromadning foizi sifatida sotish

Daromadning foizi sifatida foiz

Soliqdan oldingi daromad (EBT) daromadning foizi sifatida

Soliq daromadning foizi sifatida

Daromadning foizi sifatida sof daromad

Gorizontal tahlil

<sup>4</sup> Vučićević D., “Theoretical aspects and basic settings of financial analysis”, School of Business 2/2012,(2012),p.2.

Quyidagi misol uchun, 3-yilda daromad \$55,749, 2-yilda esa \$53,494 edi. Daromadning yillik o'zgarishi  $\$55,749 / \$53,494$  minus birga teng, bu 4,2% ga teng.

(\$ in millions)	Year 1	Year 2	Year 3	Year 1	Year 2	Year 3
Revenue	51,585	53,494	55,749	NA	3.7%	4.2%
COGS	27,697	28,429	29,200	NA	2.6%	2.7%
Gross Profit	23,888	25,065	26,550			
SG&A	5,877	6,006	6,144	NA	2.2%	2.3%
Other	1,764	1,931	2,026	NA	9.5%	4.9%
EBITDA	16,247	17,128	18,380	NA	5.4%	7.3%
Depreciation	2,960	3,196	3,452	NA	8.0%	8.0%
Earnings Before Interest and Taxes	13,287	13,932	14,928	NA	4.9%	7.1%
Interest Expense	1,488	2,580	2,448	NA	73.4%	(5.1%)
Earnings Before Tax	11,799	11,352	12,480	NA	(3.8%)	9.9%
Tax	3,155	2,861	3,012	NA	(9.3%)	5.3%
Net Income	8,644	8,491	9,468	NA	(1.8%)	11.5%

### 3-rasm. Korxonalar faoliyatini gorizontali tahlili<sup>5</sup>.

Moliyaviy tahlil, yuqorida aytib o'tilganidek, boshqaruv, investitsiya va boshqa qarorlar to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida tashkilot faoliyatining moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining asosiy ko'rsatkichlarini o'rganishdir. Moliyaviy tahlil kengroq tushunchalar tarkibiga kiradi, ya'ni kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va iqtisodiy tahlil. Moliyaviy tahlil tashkilotning aktivlari va majburiyatlari, uning to'lov qobiliyati, likvidligi, moliyaviy natijalari va moliyaviy barqarorligini tahlil qilish, aktivlar aylanmasi (tadbirkorlik faoliyati) tahlilini o'z ichiga oladi. Moliyaviy tahlil kompaniya faoliyatining muhim jihatlarini, masalan, bankrotlik ehtimolini ochib beradi. Moliyaviy tahlil auditorlar, baholovchilar va boshqalar kabi ekspertlar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Tahlilchining asosiy vazifalaridan biri moliyaviy hisobotlarni keng tahlil qilishdir.

Tahlil natijasida hisoblangan ko'rsatkich ma'lumotlarini o'rganib chiqish orqali korxonaning moliyaviy holati to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lish mumkin. Shunday qilib, sanoat korxonalarining moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarni o'rganib chiqib, korxonaning quyidagi "og'riqli nuqtalari"ni aniqlash mumkin: tashkilotning iqtisodiy aktivlari va asosiy vositalar miqdorining kamayishi o'z aylanma aktivlari hajmini kamaytirish; asosiy vositalar hajmini qisqartirish va ulardan intensiv foydalanish orqali ma'naviy eskirishining oldini olish; joriy majburiyatlarni joriy aktivlar bilan yetarli miqdorda qoplay olmaslikning oldini olish; joriy likvidlik koeffitsientini ko'tarish; daromadlarning o'sish sur'atlarini oshirish

**Munozara.** "Tahlil" atamasi yunoncha tahlil so'zidan kelib chiqqan bo'lib, parchalanish, butunni qismlarga ajratish degan ma'noni anglatadi. U sintez atamasiga qarama-qarshi atamani ham anglatadi. Tahlil ma'lum bir butunni tarkibiy qismlarga bo'lish va har bir qismni o'zi uchun va ma'lum bir butunning boshqa qismlari bilan

<sup>5</sup> Vučićević D., "Theoretical aspects and basic settings of financial analysis", School of Business 2/2012,(2012),p.2.



bog‘liq holda ko‘rib chiqish orqali haqiqatni ilmiy tadqiq qilish va tushuntirish jarayonini nazarda tutadi[12].

A.P. Levchayev fikriga ko‘ra, moliyaviy hisobotlarning tahlili – bu eng muhim jarayon bo‘lib, unda korxonaning moliyaviy holatini baholash yo‘nalishlari, oxirgi bir necha yillardagi ko‘rsatkichlari hamda kompaniya faoliyatining natijalarini kelajakda korxonaning yanada yuqori ko‘rsatkichlarga erishishida foydalanish jarayonlarini qamrab oladi[14].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, moliyaviy resurslarni tadqiq qilish muammosi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan hal qilindi. Shunday qilib, I. A. Blank "moliyaviy resurslar" tushunchasini aniqlashga quyidagi yondashuvlarni aniqladi[11]:

1. "Kapital" nuqtai nazaridan.
2. "Kelgusi barcha pul tushumlari summasi" nuqtai nazaridan.
3. "Ma'lum bir sanada mavjud bo‘lgan naqd pul miqdori" nuqtai nazaridan.
4. "Investitsiya resurslari" nuqtai nazaridan.
5. "Sof foyda va amortizatsiya" nuqtai nazaridan.

Moliyaviy holat barqarorligini tahlili orqali ma’lum davr mobaynida moliyaviy resurslarni korxonaga qanday boshqarganligiga baho beriladi. Avvalo, moliyaviy resurslar holati bozor va korxonaga rivojlanishining talablariga mos kelishi kerak, chunki moliyaviy barqarorlikni talab darajasidan past bo‘lishi korxonani to‘lovga qobiliyatligini zaiflashtiradi, ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun mablag‘lar yetishmasligiga olib keladi[5].

Moliyaviy tahlil haqida iqtisodchilar turlicha fikrlar bildirishgan M.Raximovning fikricha “Moliyaviy tahlil moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy holatiga iqtisodiy tashxis qo‘yishni ta’minlaydi”[3].

G. B. Polyakning fikriga ko‘ra, moliyaviy resurslar korxonaga tomonidan amalga oshiriladigan takror ishlab chiqarish jarayonining moliyaviy natijasini miqdoriy jihatdan tavsiflash uchun mo‘ljallangan va asosiy vositalarning yo‘q qilinishini qoplash, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish uchun ajratilgan mablag‘lardir[16].

Xorijlik olimlardan S.I.Krilovning fikricha “Moliyaviy tahlil - moliyaviy natijalar va tashkilotning moliyaviy holatini o‘rganish bilan bog‘liq iqtisodiy tahlil turidir”[13].

E.V.Astaxova va O.Y.Starovoytovalarning fikricha tashkilotning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini baholash jarayoni (masalan, balans yoki daromadlar to‘g‘risidagi hisobot). Moliyaviy hisobotlar moliyaviy ma’lumotlarni qayd etadi, odatda har xil ko‘rsatkichlar yordamida baholanadi moliyaviy nisbatlar va usullar[8].

S. V. Barulinning nazariyasiga ko'ra, moliyaviy faoliyatni amalga oshirish va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan va amalda ishlatilgan mablag'lar to'plami moliyaviy resurslar hisoblanadi[9].

Darhaqiqat, o'tgan biznes voqealarini tahlil qilish "biznesni boshqarishning oldingi qarorlarini baholash va kelajakda kompaniyani saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan biznes qarorlarini loyihalash uchun tegishli barcha ma'lumotlarni olish uchun hisoblab chiqilgan"<sup>6</sup>.

Iqtisod fanlari doktori professor M.Q.Pardayev tomonidan moliyaviy tahlilga quyidagicha ta'rif beriladi. «Moliyaviy tahlil – xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga bag'ishlangan tahlildir»[15].

"Moliyaviy tahlil, so'zning bugungi ma'nosida, o'tmishdagi va/yoki hozirgi moliyaviy natijalarni baholash orqali, kompaniyaning istiqbollarni baholash uchun asos sifatida, o'tmish va hozirgi davrning kombinatsiyasi hisoblanadi. Moliyaviy tahlilning avtonom maqsadlari yo'q, lekin ular tahlilchilar va uning natijalaridan foydalanuvchilarning manfaatlarini bilan belgilanadi[2].

Korxonaning moliyaviy barqarorligi tahlili haqida so'z borar ekan, iqtisodchi olim M.Q.Pardayev "Korxonaning moliyaviy barqarorligi deganda uning faoliyatini moliyaviy jihatdan bir maromda uzluksiz ta'minlab turishi tushuniladi. Moliyaviy jihatdan ta'minlanish faqatgina moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish emas, balki uning juda ko'p qirralari, tomonlari mavjud. Chunki xo'jalik faoliyatining uzluksiz sodir bo'lib turishi uchun birgina moliyaviy resurslar yetarli emas. Bu resurslarning ta'minlanishi uchun boshqa moddiy, mehnat kabi bir qancha resurslarning ham yetarli miqdorda bo'lishi lozim [1].

### Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, korxonalaridagi moliyaviy resurslarni tahlil qilishda mavjud muammolarni hal qilish uchun va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1) Moliyaviy resurslar bo'yicha yuqori hajmdagi xarajatlarni kamaytirish (ularni optimallashtirishni maksimal darajada oshirish). Bu tadbirlar foydaning pasayishini to'xtatishga yordam berishi kerak. Xarajatlarni samarali nazorat qilish tizimini yaratish xarajatlarni kamaytirishning juda samarali usuli hisoblanadi.

2) Korxonaning aktivlaridan samarali foydalanish borasida moliyaviy resurslardan foydalanishda yuzaga keladigan ayrim turdagi xarajatlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish orqali xarajatlarni optimallashtirish. Bunda ishlab chiqarish jarayonidagi rolga qarab moliyaviy resurs zaxiralari konsentratsiyasini o'zgartirish orqali faoliyat turg'unligini oshirish kerak. Moliyaviy resurslar korxonaning faoliyatiga

<sup>6</sup> Ranković J.: "Financial Management of Enterprises", IV edition, Center Belgrade, (1989), p. 174

to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qilishini inobatga olib, ulardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqish.

3) Moliyaviy tahlil muvaffaqiyatli va mazmunli bo‘lishi uchun, avvalo, moliyaviy hisobotlarni, ya‘ni tahlil qilish uchun axborot bazasini tayyorlash kerak. Bu balans ma‘lumotlaridan foydalanish qulayligini, ya‘ni xarajatlar va daromadlarni hisob-kitob davrlariga taqsimlashning muntazamligi va pul o‘zgarishlarining ta‘sirini hisobga olish darajasi kabi qo‘llaniladigan balanslash tartib-qoidalarining yetarliligini hisobga olishni nazarda tutadi. Keyinchalik daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni birlashtirish va balans ma‘lumotlarini tasniflash kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. World Scientific Research Journal, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>
2. Рахимов М.Ю. Иқтисодий субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма.-Т.;“Иқтисод-Молия”, 2013. -390 б.
3. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>
4. Rahimov M.Yu. (2013). An analysis of the financial condition of economic entities. Educational manual. -Т.: Finance.
5. Tulaev, M. (2021). МҲХС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.
6. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1).  
извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
7. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta‘sir etuvchi omillar. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 8, 71-77
8. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
9. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
10. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 6, 134 -138.
11. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>

12. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
13. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
14. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
15. Ibragimov G. (2022). Introduction of digital solutions to the economy of Uzbekistan: problems and solutions. *International Journal of Research in IT and Management (IJRIM)*, 12(9), 34-39. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRIM2Sep22-Uzb-1.pdf>
16. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационный журнал, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>
17. Ibragimov G. (2022). Keeping records of imported goods while improving customs administration in Uzbekistan. *International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM)*, 12(11), 30-34. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM3Nov22-Uzb.pdf>
18. Қурбонов Муҳиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>
19. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
20. Асаналиевна, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>
21. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>
22. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>

23. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from [https://bmpublgroup.com/assets/1\\_26\\_4\\_1.pdf#page=75](https://bmpublgroup.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75)
24. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting"*, (2), 2181-2186.
25. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>
26. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>
27. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN*, 2249(0892).
28. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
29. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. *Эконмока и бизнес: теория и практика.* 4-2 (74). ISSN 2411 0450.
30. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. *Web of scientist: International scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2*
31. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>.
32. Якубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(4), 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>.
33. Файзиев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 426-434. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2099](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099)
34. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>

35. Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)
36. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
37. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
38. Пардаев Файзулла Гаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Курбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>
39. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
40. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>
41. Мухиддин Абдуллаевич Курбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
42. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
43. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
44. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>

45. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
46. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>
47. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.
48. Asanalievna, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>
49. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>
50. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>
51. Ибрагимов, Г. А. (2023). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 68-73.
52. Ibragimov, G. A. (2021). Business Analysis In The Digital Economy. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7), 4543–4549.

## EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

*Ibragimov Gayratjon Artikovich,  
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent  
Toshkent moliya instituti  
Tel. +998 90 112 80 81  
E-mail: [Gibragimov63@gmail.com](mailto:Gibragimov63@gmail.com)*

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish hisobiga valyuta tushumlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytirishni ham nazarda tutadi. Natijada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish ko'lamlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Jahon bojxona tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, eksport-import bilan shug'ullanadigan korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish ustidan nazorat qilish bojxona to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha risklarni kamaytirishning samarali usulidir. Buning uchun bojxona xizmati va davlat soliq organlari o'rtasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning savdo va vositachilik operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni almashish tartibi taklif qilinmoqda.

**Kalit so'zlar:** Buxgalteriya hisobi hujjatlari, dastlabki hujjatlar, tashqi savdo operatsiyalari, "erkin muomala" rejimi, soliq solinadigan baza, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari shaffofligi.

Respublikamizda tashqi savdo erkinligini ta'minlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish ko'lamlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Shu bilan birga, bojxona ma'muriyatchiligini shakllantirish va joriy etish amaliyoti, rivojlangan mamlakatlarda to'plangan tajribani nazariy jihatdan o'rganish, Jahon bojxona tashkiloti tomonidan tavsiya xarakterida ishlab chiqilgan va taqdim etilgan takliflarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu takliflar risklarni boshqarish tartibiga asoslangan va bu holat xalqaro savdo operatsiyalarining so'nggi yillardagi sezilarli o'sishi va faollashishi natijasidir. Risklarga asoslangan muvofiqlikni boshqarishning ishlab chiqilgan yondashuvini qo'llashda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni tavakkalchilik darajasi va boshqa xususiyatlariga qarab ham farqlash mumkin. Shu bilan birga, bojxona va soliq xizmatlarining cheklangan resurslarini samarali taqsimlash mumkin bo'ladi. Bojxona ma'muriyatchiligiga eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish va bojxona to'lovlari bo'yicha summalarni undirish samaradorligini oshirish, shuningdek, jarayonlarni soddalashtirish, tezlashtirish va xarajatlarini kamaytirish imkonini beruvchi modelni qo'llashni taklif etamiz. Ushbu model bojxona ma'muriyatchiligini qo'llash va isloh qilishning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda yuritiladigan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari shaffofligini ta'minlashga ta'sirini inobatga olib, bojxona organlariga eksport-import bilan shug'ullanadigan korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish ustidan nazorat qilish imkoniyati berilishini nazarda tutadi.



Ushbu yo'nalishda respublikamizda huquqiy asoslar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-son Farmonining 5-bandiga asosan bojxona organlariga tovar va transport vositalari ustidan ular saqlanadigan va sotiladigan joylarga chiqqan holda, bojxona auditini amalga oshirish, shuningdek, olib kiriladigan va (yoki) olib chiqiladigan tovarlar va transport vositalari hisobi, jumladan, buxgalterlik hisobi va hisoboti hujjatlari, shuningdek, dastlabki hujjatlar yuritilishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish huquqlari berildi.

Mazkur qoidani bojxona organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar – tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari ish amaliyotida qo'llash tartibini ko'rib chiqamiz. Bu yo'nalishda, birinchi navbatda, qonun hujjatlarini buzmagani, bojxona va soliq organlariga moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun ularning buxgalteriya hisobi tizimidan ixtiyoriy ravishda masofaviy foydalanish imkoniyatini taqdim etayotgan tadbirkorlik sub'yektlari o'zlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda huquqbuzarliklarning mumkin bo'lgan xavfi(riski)ni minimallashtirishga, shuningdek import yoki eksport qilinayotgan mahsulotlarni bojxona postlari orqali olib o'tishda amalga oshiriladigan nazorat amallarining intensivligini pasaytirilishiga ishonch hosil qiladigan sharoitlarni yaratish zarur. Hozirgi vaqtda mahsulotlarning xalqaro harakatini boshqaradigan eng zamonaviy tizimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning qo'llanilishi mahsulotlarni davlat chegaralarini kesib o'tish vaqtida nazorat qilish bilan bir qatorda, import qiluvchi mamlakat ichida kontragentlarning yurisdiksiyasiga, shu jumladan chakana savdoga o'tish bo'yicha harakatlanishining barcha bosqichlarida uzluksiz kuzatib borishni ta'minlashga qaratilgan. Bunda kichik va o'rta biznes, startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy dasturlarni amalga oshirish, innovatsion yechimlarni joriy etish nuqtai nazaridan moliyaviy vositalardan foydalangan holda raqamli asosda texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishga doimiy e'tibor qaratish zarur (Ibragimov G. (2022)).

Bunda import qiluvchi mamlakatga mahsulot olib kirish shartlarini chuqur o'rganish, aniqlash va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar oldindan taqdim etilishi kerak. Savdo operatsiyasining mazmunini tavsiflovchi va hisob-kitoblarni amalga oshirish va bojxona to'lovini to'lash uchun zarur bo'lgan batafsilroq ma'lumotlar mahsulot erkin aylanish rejimiga chiqarilgandan keyin taqdim etiladi.

Jahon bojxona tashkiloti ushbu tartibni tashqi savdo faoliyatining qonunga so'zsiz itoat etuvchi ishtirokchilari uchun bojxona organlari tomonidan yetarli darajada nazorat darajasini saqlab qolgan holda qulay shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini beruvchi chora-tadbirlardan biri sifatida qaraydi. Janubiy Koreya, Kanada, shuningdek, boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning bojxona organlari import qilingan mahsulotlar to'g'risida tekshirilgan, ammo to'liq bo'lmagan ma'lumotlar asosida mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarishni nazarda tutuvchi bojxona tartiblarini qo'llaydilar. Mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar ular "erkin muomala" rejimida ro'yxatdan o'tkazilganligi sababli mamlakat hududiga chiqarilishi bilan taqdim etiladi va bojxona organlari tomonidan tekshiriladi. Tekshiruv davomida ushbu ma'lumotlar import qiluvchi korxonalarining buxgalteriya hisobidan olingan ko'rsatkichlar bilan ham taqqoslanadi. Taqqoslashda mahsulot chiqarilgandan keyin bojxona to'lovlari uchun o'tkazilgan summalarni ham hisobga olish nazarda tutilgan.

Mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarishga bojxona organi tomonidan, qoida tariqasida, kelgusida to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining hisoblangan summasidan kamroq miqdorda bo'lgan moliyaviy kafolat olinganidan keyin ruxsat etiladi. Ta'kidlash joizki, bojxona organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning bojxona va soliq organlari bilan o'zaro munosabatlari tarixi chuqur o'rganilgandan so'ng, moliyaviy-xo'jalik faoliyati faktlarini hisobga olish bo'yicha ishlarni tashkil etish bojxona organlari talablarini qanoatlantiradigan darajaga to'g'ri keladigan holatda import qiluvchi korxonalariga bunday ishonch bildiriladi.

Davlat soliq inspeksiyasi soliq deklaratsiyasida yoki hisob-kitoblarda aks ettirilmagan eksport-import operatsiyalarini aniqlash uchun soliq to'lovchilarning transhegaraviy operatsiyalari to'g'risidagi bojxona organlari ma'lumotlaridan foydalanishi mumkin. Bu tartib xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat bojxona xizmati ko'rsatkichlarini solishtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'z navbatida, bojxona organlari davlat soliq xizmati organining ma'lumotlaridan tahliliy maqsadlarda foydalanadilar, ular orqali har bir import yoki eksport qiluvchi korxonaning sotish va xaridlarining choraklik yoki oylik umumiy summalari asosida noqonuniy savdo aylanmalari aniqlanadi.

O'zaro hamkorlik tadbirlariga yana bir misol sifatida bir qator mamlakatlar bojxona xizmatlari va soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan import va eksport deklaratsiyalari hamda qo'shilgan qiymat solig'i summalarini hisoblash va to'lash deklaratsiyalarida aks ettirilgan ma'lumotlar almashinuvi tartibini keltirish mumkin. Asosiy farqlovchi jihati shundaki, import va eksport deklaratsiyasi bitimlar asosida shakllantiriladi, qo'shilgan qiymat solig'i deklaratsiyasini to'ldirish esa boshqa soliq to'lovchilarga har chorakda yetkazib berilgan jami mahsulot hajmidan kelib chiqadi. E'tibor berish zarur bo'lgan jihati, har bir import va eksport deklaratsiyasini qo'shilgan qiymat solig'i deklaratsiyasi bilan solishtirish qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha firibgarlikning har bir holatini avtomatik ravishda aniqlash imkonini bermaydi, lekin korxonalar uchun g'ayritabiiy deb hisoblash mumkin bo'lgan tranzaksiyalarni aniqlashga yordam beradi.

Bojxona xizmati organlari va davlat soliq organlari o'rtasida savdo va vositachilik operatsiyalari, vositachilik tashkilotlarining har oy yoki choraklik oldi-sotdi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda almashish tartibini taklif qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasida raqamlashtirish sur'atlarini jadallashtirish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish komponentlari: keng polosali internetdan foydalanishni yanada qulayroq qilish, onlayn-do'konlardan xarid qilinadigan tovarlarni yetkazib berishni ta'minlovchi infrastruktura tarkibiy elementlarini takomillashtirish va boshqa shu kabi omillardan foydalanishni kengroq taklif etish zarur (Ибрагимов, Г. А. (2023)).

Shu bilan birga, joriy etilayotgan bojxona va soliq organlarining axborot almashinuvining avtomatlashtirilgan tizimlari elektron shaklda ro'yxatga olingan savdo va vositachilik operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlardan tizimli tahlilda foydalanish uchun sharoit yaratib, soliq solinadigan baza to'g'risidagi ma'lumotlar almashinuvi esa surishtiruv maqsadlari va qamrovini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin bo'lsada, shu bilan bir vaqtda, bojxona va soliq to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlashni kafolatlash imkonini bermaydi.

Bojxona xizmati va davlat soliq inspeksiyasi tomonidan foydalaniladigan ko'rsatkichlarning bir xilligini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratishi shart bo'lgan buxgalteriya hisobi vositasida olingan ma'lumotlardan bojxona ma'muriyatchiligi tizimida foydalanish masalasi import va eksport qilinadigan mahsulotlarni, shuningdek, ular bilan amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalarni hisobga olish tizimlarini tekshirish tartibini bojxona nazorati organlarining amaldagi chora-tadbirlar tizimiga kiritishni talab qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, buxgalteriya hisobi tizimi uchun undan olingan ma'lumotlardan bojxona ma'muriyatchiligida foydalanish imkoniyatiga erishishni, shuningdek, mahsulot import qilingan paytdan boshlab uni sotganligi yoki o'z iste'moli uchun foydalanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kuzatish imkonini kafolatlashni ta'minlaydigan minimal talablarni belgilash zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, bojxona rasmiylashtiruv jarayonida qayd qilingan ko'rsatkichlarni soliq tushumlarini nazorat qilish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar bilan taqqoslanuvchanligi mahsulotlarning miqdoriy hisobini yuritish orqali ta'minlanadi. Bunda zarur hollarda ma'lum bir davr mobaynidagi mahsulotlarni olib kirish, deklaratsiyalash va undan keyin mamlakat ichida foydalanishning (shu jumladan, qayta ishlashdan keyingi foydalanish) butun tarixni tiklash imkonini beradigan buxgalteriya hisobi shaklidan foydalanish kerak.

Agar buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan mahsulotlar va ular bilan tuzilgan bitimlar bo'yicha boshqa ma'lumotlar o'rtasida mos kelmaslik holatlari mavjud bo'lsa, qonun hujjatlariga fiskal organlarga ma'lum bir mahsulot guruhlari uchun maksimal stavkalarda bojxona to'lovlarini to'lashni talab qilish huquqini beradigan o'zgartirishlar kiritish zarurati paydo bo'lishi mumkin. Yuqoridagi tartiblar amalga oshirilgandan so'ng import qiluvchi korxonalar tomonidan olingan mahsulotlarning buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirilishi, hisob-kitoblarning asosiligi tasdiqlanishi va bojxona to'lovlarining hisoblangan summalarini korxonalar tomonidan tegishli budjet daromadlari hisobraqamlariga o'tkazilishi bilan import qilinadigan mahsulotlarni bojxona rasmiylashtirilishi yakunlanadi. Demak, bojxona ma'muriyatchiligi tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar davlat bojxona organlarining mahsulotlarni bevosita nazorat-o'tkazish punktlarida nazorat qilish imkoniyatini saqlab qolgan holda, mahsulotlarni olib kirishdan to buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirishgacha kuzatib borilishini ta'minlaydi. Nazoratni amalga oshirishning ushbu imkoniyati xavf(risk)ning ayrim turlari aniqlanganda dolzarb bo'lib qoladi. Shu sababli, bojxona tekshiruv, bojxona ko'zdan kechiruv va (yoki) bojxona ko'rigi bunday xavf(risk)larni minimallashtirishning samarali choralari bo'ladi, deb aytish mumkin. Mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarish uchun asos sifatida xizmat qiluvchi, bojxona organlariga taqdim etilgan moliyaviy kafolat mahsulot yoki tovarlarni import qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan ushbu tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobi schyotlarida hisobga olish majburiyatlarini bajarilishi, bojxona to'lovlari to'g'ri hisoblanishi hamda tegishli budjet hisobvaraqlariga o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash vazifalarini bajarishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibragimov G. (2022). Introduction of digital solutions to the economy of Uzbekistan: problems and solutions. *International Journal of Research in IT and Management (IJRIM)*, 12(9), 34-39. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRIM2Sep22-Uzb-1.pdf>
2. Ибрагимов, Г. А. (2023). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 68-73.
3. Ibragimov, G. A. (2021). Business Analysis In The Digital Economy. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7), 4543–4549.
4. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from [https://bmpubgroup.com/assets/1\\_26\\_4\\_1.pdf#page=75](https://bmpubgroup.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75)
5. Ibragimov G. (2022). Keeping records of imported goods while improving customs administration in Uzbekistan. *International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM)*, 12(11), 30-34. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM3Nov22-Uzb.pdf>
6. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>
7. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>
8. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>
9. Rahimov M.Yu. (2013). An analysis of the financial condition of economic entities. *Educational manual. -Т .: Finance.*
10. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. *Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби*, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
11. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
12. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>
13. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
14. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN, 2249(0892).
15. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>

16. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. Эконмока и бизнес: теория и практика.. 4-2 (74). ISSN 2411 0450.
17. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>
18. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. Журнал Инновации в Экономике, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>
19. Рахимов М.Ю. Иқтисодий субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма.-Т.; "Iqtisod-Moliya", 2013. -390 б.
20. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. Web of scientist: International scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2
21. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. World Scientific Research Journal, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>
22. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>
23. Якубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(4), 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>
24. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
25. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 4 (20)-сон, 170-175.
26. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
27. Файзиев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. Gospodarka i Innowacje., 42, 426-434. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2099](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099)
28. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>
29. Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)
30. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
31. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
32. Асаналиевна, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>

33. Пардаев Файзулла Гаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Курбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>
34. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
35. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>
36. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>
37. Мухиддин Абдуллаевич Курбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
38. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
39. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
40. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>
41. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
42. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>
43. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.
44. Asanaliyeva, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>
45. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>

46. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>
47. Tulaev, M. (2021). МҲХС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.
48. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
49. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 8, 71-77
50. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ . *World Scientific Research Journal*, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
51. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 6, 134 - 138.

## TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI

*Gayratjon Ibragimov,*  
*iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*  
*Toshkent moliya instituti*  
*E-mail: [gibragimov63@gmail.com](mailto:gibragimov63@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Bank tizimiga joriy etilayotgan innovatsion yechimlar tahlili raqamlashtirish bo'yicha ma'lum ishlanmalarni qo'llash xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, faoliyat samaradorligini ko'tarishga imkon berishini tasdiqladi. Asosiy yechim sifatida banklar va mijozlar bog'lanadigan barcha aloqa kanallari va savdolari avtomatlashtirishni nazorat qilishga imkon beradigan, usbu jarayonlar statistikasini real vaqt sharoitida olib borish imkonini beradigan "Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish" tizimini joriy etishni taklif etish mumkin. U orqali tijorat banklari mijoz-bank munosabatlari arxitekturasini mijozlar faolligining barcha jihatlari hisobga olinadigan tarzda qura oladilar. Maqolada bank faoliyatida MBMBni qo'llash uchun tegishli taktika va strategiya taklif qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari, MS Excel elektron jadvallari, tezkor messenjerlar, texnologiyalar integratsiyasi, mijozlar bazasi, tranzaktsiyalar.

So'hggi yillarda iqtisodiy rivojlangan davlatlar bank tizimida qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar yechimlari mamlakatimiz banklari faoliyatiga raqamlashtirish bo'yicha ma'lum ishlanmalarni joriy etish bo'yicha takliflar kiritishga imkon beradi. Chunki, bank tizimida mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish amalda qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalarga chambarchas bog'liq.

Banklar va mijozlar bog'lanadigan barcha aloqa kanallari va savdolari avtomatlashtirishni nazorat qilishga imkon beradigan, usbu jarayonlar statistikasini real vaqt sharoitida olib borish imkonini beradigan "Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish" - MBMB (inglizcha "Customer Relationship Management" - CRM) tizimini joriy etish muhim yechim sifatida ko'rilishi mumkin. Bunda ilgari foydalanilgan MS Excel elektron jadvallari, tezkor messenjerlar, ko'p sonli hujjatlar o'rniga yagona xizmat ko'rsatish servisi qo'llaniladi. U mijozlar ma'lumotlarini yig'ish, bitim va kelishuvlarni boshqarish, menejerlarni kuzatish, tahlil va prognoz qilish bo'yicha dasturlarni o'z ichiga oladi. Natijada og'ir va murakkab ishlar soddalashtiriladi, to'g'ri qaror qabul qilish uchun sarflanadigan vaqt qisqaradi va xato qilish ehtimoli bartaraf qilinadi.

Mijozlar bilan ishlashni doimiy nazorat qilish, ular bilan aloqalarni yaxshilash va barqarorlashtirish zarurati bank faoliyatining asosiy vazifasidir. MBMB tizimini joriy



etish orqali tijorat banklari mijoz-bank munosabatlari arxitekturasini mijozlar faolligining barcha jihatlari hisobga olinadigan tarzda qura oladilar.

Tizimning joriy etilishi bank mijozlari qaysi tovarlar va xizmatlarga qiziqish bildirayotgani, ularning faoliyati qaysi davrlarda faollashishi, qanday moliyaviy imkoniyatlarga ega ekanligi haqidagi savollarga javob topishga imkon beradi. Ushbu yo'nalishlardagi statistik ma'lumotlar va munosabatlar tarixi MBMB tizimi orqali ikki tomonga foydali hamkorlik yo'llari va shakllarini topishga imkon beradi.

Bank MBMB tizimlari tijorat banklariga xodimlar faoliyatini bosqichma-bosqich rejalashtirish uchun yangi imkoniyatlar beradi. Boshqa xodimlarga vazifalarni topshirishda, yangi xodimlarni ish jarayoniga kirishishida tizim ularni barcha kerakli ma'lumotlar bilan tanishtiradi va harakatlar algoritmini taklif qiladi. Xodimlar ish joyida bo'la olmaganida ularni boshqa xodimlar bilan almashtirishga bog'liq bo'lgan muammolar vujudga kelmaydi.

Quyidagi komponentlar bilan ta'minlangan MBMB tizimi operatsion va tahliliy yo'nalishi bank xizmatlarini boshqarish funktsiyalarini bajarishga yordam beradi: jismoniy va huquqiy shaxslar uchun alohida profilga ega, manzillar bilan uyg'unlashtirilgan mijozlar bazasi; barcha mahsulotlar bazasi; sotishni boshqarish va tahlil qilish; marketing vositalari; xodimlar ustidan nazorat; call-markazlar faoliyatini tashkil etish; qarzni undirish mexanizmini nazorat qilish; berilgan kredit arizasini ko'rib chiqish; tahliliy funktsiyalar.

Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish bankni mijozlar ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ilg'or dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlashga qaratilgan harakat strategiyasini va avtomatlashtirish tizimini joriy etish uchun barcha sharoitlarni yaratishga imkon beradigan darajada bo'lishi kerak.

Bank faoliyati uchun quyidagi taktika va MBMB strategiyasi taklif qilinadi:

- ma'lum bir xizmat yoki mahsulot turini sotish jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida yuzaga keladigan munosabatlar (tranzaktsiyalar);

- birinchisi bandga qo'shimcha ravishda, maslahatlashuvlar va tushuntirishlar o'tkazish imkoniyatining paydo bo'lishi mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni kengayishiga imkoniyat yaratadi (odatda tovarlar va xizmatlarning bir nechta turlarini qamrab oladi);

- mijoz bank tomonidan ko'rsatiladigan barcha xizmatlardan foydalanishni chuqur biladi degan nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda MBMB tizimini qo'llash, bu holda to'liq hamkorlik qilish nazarda tutiladi.

Tijorat banklarida MBMBni joriy etish ommaviy marketing va ommaviy sotish strategiyasini mijozlarning shaxsiy talablariga javob beradigan bank xizmatlarini sotishning individual strategiyasiga aylantirish imkonini beradi. Bu o'zgarish bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni uzoq muddatli rivojlanish uchun mo'ljallangan yanada qulay va samaraliroq munosabatlariga aylantirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, MBMB tizimining joriy etilishi xodimlarga mijozlar haqidagi barcha

ma'lumotlarni bir zumda olish imkonini beradi. Hujjatning qog'ozdaci nusxalarini qidirish, ularning amal qilish muddatini nazorat qilish va boshqa shu kabi ishlarga zarurat qolmaydi.

Ushbu masalada xorij tajribasi o'rganilgan. Agar mamlakatlar bo'ylab qaralsa, raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlashning turli shakllari va usullari mavjud edi. Ko'pgina hollarda, sinergik ta'sirga olib keladigan vositalar va yuqori darajadagi markazlarni jalb qilish uchun ishlab chiqilgan, ular orasida raqamli tadqiqot platformalari markaziy bo'lgan (Ibragimov, G. A. (2021)).

Fikrimizcha, tijorat banklarida keng miqyosli MBMB yechimini joriy etishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri uning mavjud texnologiyalarga integratsiyalash bo'ladi. Sababi, har bir bo'lim mijozning ehtiyojlarini o'ziga xos tarzda tasavvur qiladi. Muammoni bartaraf etish uchun mavjud ish jarayonlarini optimallashtirish yoki yangi ish jarayonlarini yaratish, yangilangan me'yoriy hujjatlar va standartlarni ishlab chiqish zarur. Ushbu jarayonlarda quyidagilarga imkon beruvchi qoidalarga rioya qilishga alohida e'tibor qaratish lozim:

1) bankning asosiy maqsadlariga erishish va xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan yagona biznes siyosatni amalga oshirishga intilish;

2) mijoz bilan o'zaro munosabatlar jarayonlari va ma'lumotlar tizimda qolishi hisobiga mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun mas'ul bo'lgan bank xodimlari ishdan bo'shatilganda mijozlarni bankda olib qolish.

Ilgari ta'kidlaganimizdek, birinchi navbatdagi masala boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi faoliyatining joriy etilayotgan texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilayotgan xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq (Ibragimov G. (2022)). Ushbu jihatni o'rganish va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari funktsiyalari tahlil qilish natijalari tijorat banklarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir nechta tizimlarni tanlash imkonini berdi.

1. InvestGlass.com - bank savdolarini avtomatlashtirish uchun tayyor andozalarga ega dasturiy ta'minot. 2. Monday.com - jamoaviy ishni amalga oshirishga mo'ljallangan MBMB dasturiy ta'minoti bo'lib, ko'p funktsiyali bozorlar uchun o'rnatilgan vosita sifatida oldindan tayyorlangan andozalarni taklif qiladi. 3. Salesforce Sales Cloud - savdo bo'limini avtomatlashtirish, sotish tsiklini kamaytirish va sotish jarayonini boshqarishga mo'ljallangan MBMB dasturi. 4. Sugar MBMB - bu bank faoliyati uchun zarur bo'lgan mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish funktsiyasini yaratadigan to'laqonli MBMB vositasi. 5. Creatio yoki Bpm'online - MBMB va biznes jarayonlarini boshqarish (BJB) uchun past kodli platforma. 6. Microsoft Dynamics 365 - elektron pochta marketingini, sotishni avtomatlashtirishni va ijtimoiy media platformalari zarur bo'lgan moliyaviy institutlar uchun Microsoftning MBMB yechimi.

Shuningdek, alohida ish sharoitlariga moslashtirilgan quyidagi MBMB tizimlarini tijorat banklarida joriy etish uchun taklif qilish mumkin: Oracle MBMB, potentsial

mijozlar to'g'risida ma'lumot to'playdigan yirik moliyaviy institutlar uchun mukammal ravishda mos keladi; Zendesk MBMB, aloqalarni boshqarish va marketingni avtomatlashtirish dasturi.

Ta'kidlash joizki, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish maqsadida tijorat banklari uchun MBMB yechimini tanlash birinchi navbatda, tizimlarning funktsional imkoniyatlariga (mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, shu jumladan ularning xizmatlar portfelli; ish oqimini avtomatlashtirish, moliyaviy xizmatlar, elektron marketing, investitsiya vositalari; portfelni boshqarish vositalari), ikkinchidan, bulutli (bulutli texnologiyalar (yoki bulutli hisoblashlar, cloud computing) - raqamli ma'lumotlarni tarqatilgan qayta ishlash texnologiyalari, uning yordamida kompyuter resurslari internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida taqdim etiladi yoki mahalliy dasturiy ta'minotni tanlashning ustuvor yo'nalishlariga, MBMBni sozlash, sotishni prognoz qilish, hisobotlarni tuzish, mijozlar tajribasini kerakli mobil ilovalarga moslashtirish uchun ishlaydigan xodimlar soniga bog'liq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimov, G. A. (2021). Business Analysis In The Digital Economy. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(7), 4543–4549.
2. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS), 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>
3. Ibragimov G. (2022). Introduction of digital solutions to the economy of Uzbekistan: problems and solutions. International Journal of Research in IT and Management (IJRIM), 12(9), 34-39. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRIM2Sep22-Uzb-1.pdf>
4. Ибрагимов, Г. А. (2023). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 68-73.
5. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from [https://bmpublgroup.com/assets/1\\_26\\_4\\_1.pdf#page=75](https://bmpublgroup.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75)
6. Ibragimov G. (2022). Keeping records of imported goods while improving customs administration in Uzbekistan. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 12(11), 30-34. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM3Nov22-Uzb.pdf>
7. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS), 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>
8. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В

МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>

9. Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)
10. Pardayevich, K. V. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
11. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
12. Пардаев Файзулла Гаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Курбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>
13. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
14. Rahimov M.Yu. (2013). An analysis of the financial condition of economic entities. Educational manual. -Т .: Finance.
15. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>
16. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>
17. Асаналиевна, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>
18. Мухиддин Абдуллаевич Курбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
19. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1),

- 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
20. Курбонов Муҳиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
21. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>
22. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). Retrieved from <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
23. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>
24. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>
25. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.
26. Asanalievna, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>
27. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>
28. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>
29. Tulaev, M. (2021). МҲҲС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.
30. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). Retrieved from <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
31. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 8, 71-77

32. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
33. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 6, 134 -138.
34. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Ақтуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
35. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
36. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>
37. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. Журнал Инновации в Экономике, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>
38. Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув кўланма.-Т.; "Iqtisod-Moliya", 2013. -390 б.
39. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>
40. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилининг ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
41. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN, 2249(0892)*.
42. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
43. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. Экономка и бизнес: теория и практика.. 4-2 (74). ISSN 2411 0450.

44. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. Web of scientist: International scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2
45. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>.
46. Якубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(4), 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>.
47. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
48. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
49. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
50. Файзиев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 426-434. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2099](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099)
51. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>

**MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH:  
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

*Ibragimov Gayratjon Artikovich,  
Toshkent Moliya instituti  
“Iqtisodiy tahlil” kafedrası, i.f.n., dotsent*

**Annotatsiya.** Atrof-muhit bilan bog'liq muammolar, jumladan, global iqlim o'zgarishlari barqaror rivojlanish yo'llarini izlashni muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi. Tabiiy resurslarning cheklanganligi va iste'molning nazoratsiz o'sishini matematik modellashtirish natijalari iqtisodiyotda o'sish chegaralari mavjudligi haqida tushunchani shakllanishiga olib keldi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi tuzilishi esa barqaror rivojlanish haqida ilk qarashlar paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy o'sish, ijtimoiy mas'uliyat va ekologik muvozanat mavjud bo'lgan holdagina mumkin bo'ladi. Mamlakatimizda barqaror rivojlanish vazifalarini hal etish muqobil iqtisodiyot sifatida yashil iqtisodiyotni shakllantirish vositasida amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy tizimlar, yashil iqtisodiyot, ekologik muhit, tabiiy resurslarning cheklanganligi, barqaror rivojlanish, ekologik omillar.

Maksimal foyda olishga va xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan, boshqa fundamental asoslarga ega bo'lmagan, uzoq muddat davomida global rivojlantirilgan iqtisodiyot turli mamlakatlarda tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy muhitni tubdan o'zgartirib yubordi. Atrof-muhit bilan bog'liq muammolar, global iqlim o'zgarishlari, ijtimoiy tengsizlik o'tgan asrning oxiri va ushbu asrning boshlarida mamlakatlar, korporatsiyalar va kishilar duch kelgan global muammolar va inqirozlarning tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqdi. Ushbu holat dunyoga qarashning global nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish va barqaror rivojlanish yo'llarini izlashni muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Tabiiy resurslarning cheklanganligi va iste'molning nazoratsiz o'sishini cheklash zarurligi haqidagi fikrlarni dastlab qadimgi yunon faylasuflari bildirishgan. Ammo, odatda barqaror rivojlanish kontseptsiyasi ingliz ruhoniysi va iqtisodchisi Tomas Robert Maltus bilan bog'lanadi. 18-asrning boshlarida Maltus aholining o'sishi geometrik progressiyada, oziq-ovqat va resurslar ishlab chiqarishning o'sishi esa arifmetik progressiyada amalga oshadi, bu esa uzoq muddatli istiqbolda ocharchilik, urushlar va hatto inqiloblar kabi falokatlariga olib keladi degan gipotezani ilgari surdi.

Tabiiy resurslarning cheklanganligi, ongli ishlab chiqarish va iste'molning ahamiyati haqidagi g'oyalarning shiddatli rivojlantirilishi Maltusning birinchi asarlari nashr etilgandan keyin oradan 170 yil o'tgach sodir bo'ldi. 1972-yilda “Rim klubi” xalqaro jamoat tashkiloti aholi sonining o'sishi tufayli tabiiy resurslarning kamayib



ketishini matematik modellashtirish natijalari bo'yicha birinchi ma'ruza – mashhur “O‘shish chegaralari”ni (The Limits to Growth) e’lon qildi. Model 12 xil rivojlanish stsenariysini o'z ichiga olgan bo'lib, ulardan beshtasi iste'molning haddan tashqari o'sishi tufayli aholi sonining 1-3 milliard kishigacha halokatli qisqarishini tavsiflagan, yettitasi esa ularga nisbatan insonparvarroq bo'lib, insoniyatning ekologik, demografik va ijtimoiy xabardorligini oshirishga tayangan.

Aynan 1972 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi tuzildi va u ekologik muammolarni global miqyosda muhokama qilishni boshlanishiga asos soldi. Shu paytdan boshlab barqaror rivojlanish haqida ilk qarashlar paydo bo'la boshladi.

Barqaror rivojlanish haqidagi hozir qo'llanilayotgan tushuncha 1983 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Butunjahon komissiyasini chaqirilganida tasdiqlandi. Komissiya tomonidan tasdiqlangan “barqaror rivojlanish” atamasi va uni avlodlar aloqasi orqali tushuntirish bugungi kungacha keng qo'llanib kelinmoqda.

Barqaror rivojlanish - bu atrof-muhit va resurslarni saqlab qolgan holda, ya'ni kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga zarar yetkazmasdan, insonning hozirgi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Barqaror rivojlanish uchta asosiy komponent o'zaro muvozanatda bo'lgan holdagina mumkin bo'ladi: iqtisodiy o'sish, ijtimoiy mas'uliyat va ekologik muvozanat. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015 yildagi “Barqaror rivojlanish kun tartibi” dasturiy hujjatiga muvofiq 17 ta barqaror rivojlanish maqsadi belgilangan. Maqsadlarning barchasi ham dunyoning turli burchaklarida bir xil darajada dolzarb emas, lekin umuman olganda ushbu maqsadlarga erishish hozirgi va kelajak avlodlarning hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni ekologik jihatdan yangi sifat darajasiga ko'tarish harakatining davom etishi “yashil iqtisodiyot” atamasidan keng foydalanilishiga olib keldi. Ushbu atamani global qo'llash esa 2012 yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish bo'yicha konferentsiyasiga tayyorgarlik ko'rish paytida va ayniqsa, konferentsiyaning "Biz xohlagan kelajak" deb nomlangan yakuniy hujjati nashr etilgandan keyin boshlandi. Rio+20 konferensiyasi uchun tayyorlangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining “O‘tish davridan transformatsiyaga: Yevropa va Markaziy Osiyoda barqaror va keng qamrovli rivojlanish” nomli ma'ruzasida ikkita bo‘lim “yashil” iqtisodiyotga bag‘ishlangan va u asosan aholining kambag'al qatlamlari va sog'liqni saqlash sohasi uchun mo'ljallangan edi.

Yashil iqtisodiyot - bu iqtisodiyot fanining XX-asr oxirlarida shakllangan yo'nalishi bo'lib, u inson iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligidan kelib chiqib, har qanday to'lov evaziga iqtisodiy o'sishga emas, atrof-muhit uchun minimal xavf bilan barqaror rivojlanishga qaratilgan. Ushbu

yo'nalish tarafdorlari iqtisodiyotni o'zi faoliyat yuritadigan va tarkibiy qismi bo'lgan tabiiy muhitning unga qaram bo'lgan komponenti deb hisoblashadi.

Yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi iqtisodiyot fanining ekologik iqtisodiyot va atrof-muhit iqtisodiyoti kabi sohalari bilan chambarchas bog'liq.

Yashil iqtisodiyot nazariyasi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta'sir doirasini cheksiz kengaytirish mumkin emas;
- cheklangan resurslar sharoitida cheksiz o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- yer yuzidagi hamma narsa o'zaro bir-biriga bog'liq.

Yashil iqtisodiyotni o'rganish va iqtisodiy modellashtirishning asosiy ob'ektlari qatoriga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiyotni boshqarish va sayyoramizning ekologik muhiti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;

— ekologik va ijtimoiy omillarni o'z ichiga olgan va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga zararini minimallashtirishga yordam beradigan iqtisodiy tizimlarni boshqarish usullari;

- ishlab chiqarish va umuman boshqaruv sohasida yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda asoslanish kerak bo'lgan, atrof-muhitga zararni minimallashtirishga qaratilgan tamoyillar.

Respublikamizda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar ijobiy o'rin tutadi. O'z vaqtida qayd etganimizdek, ma'muriy rejalashtirish va taqsimlash tizimidan bozorga yo'naltirilgan tizimga o'tish boshqaruvning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy sharoitlarni o'zgartirdi va ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi sektori shakllandi (Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015)). Ushbu sektor yashil iqtisodiyotni yaratishda "lokomotiv" vazifasini bajarishi mumkin bo'lgani uchun, yashil iqtisodiyot haqidagi fan bo'yicha tushunchalarni aniqlashtirib olish zarur.

Yashil iqtisodiyot haqidagi fanning yuqoridagi umumlashtirilgan ob'ektlariga asoslanib, mazkur holda iqtisodiyot fanining boshqa fanlar bilan kesishishini hisobga olib, yashil iqtisodchilarga ko'p mavzuli metodologiya xos degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday qilib, ilmiy bilish usullarini va strategiyani tanlashda yashil iqtisodchilar asoslanadigan eng muhim tamoyillarga:

- cheklangan resurslar sharoitida odamlarning yashash muammolarini hal qilishda ekologik omillarning ustuvorligi;
- konseptual, mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy darajada amalga oshiriladigan yashil iqtisodiyotni amalga oshirish darajalarini ajratish;
- muayyan texnologiyalarni joriy etishning asosliligi kiradi.

Iqtisodiy tizimlarni "yashillashtirish"ning turli usullarini, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish jarayonida yashil iqtisodiyot ushbu ishlanmalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan:

- atrof-muhitga yetkaziladigan zararning ruxsat etilgan chegaralarini aniqlashda belgilangan chegaralarni asoslanganligiga, ularni buzish oqibatlarining to'liq tasavvurini shakllantirilishi;

— hisob-kitoblarning matematik qat'iyliigi, tahlil va ishlanmalarning bir necha fanlarga bog'liqligi tamoyillariga rioya qilishi kerak.

Yashil iqtisodiyot fani faoliyatining to'rtta darajasini belgilash mumkin.

Birinchi, konseptual darajada yashil iqtisodiyot eng umumiy harakatlar strategiyasini ishlab chiqadi, iqtisodiy tizimni rivojlantirishda "yashil" yo'nalishlarni belgilab beradi.

Аксарият хўжалик юритувчи субъектлар иш фаолиятидаги барча жараёнларнинг бухгалтерия ҳисобини юритишда автоматлаштирилган 1-С ёки 1-UZ дастурий маҳсулдан фойдаланмоқда. Хўжалик субъектининг бухгалтерия ҳисоби хизмати ходимларига ўзларининг дастурий маҳсулида акс этган активларни, айниқса асосий воситалар, хом-ашё ва товарлар қолдиқларини қўшимча равишда ДСҚнинг “E-aktiv” автоматлаштирилган ахборот тизимига бирма-бир қўлда киритиш кўп вақт ҳамда иш ҳажми талаб этиши муайян қийинчилик туғдирмоқда.<sup>17</sup>

Юқорида келтирилган муаммоларни бартараф этиш ва тадбиркорлик субъектларига қулайлик яратиш мақсадида “E-aktiv” автоматлаштирилган ахборот тизими бошқа дастурий маҳсуллар (1-С ёки 1-UZ ) билан интеграция қилиш ҳамда унинг ёрдамида мавжуд маълумотларни бевосита 1-С ёки 1-UZ дастурий маҳсулидан юклаб олиш тизимини яратиш, шунингдек корхона баланси қолдиғида ҳисобда турган товар моддий бойликларини электрон кўриниш (Excel файл)да юклаш имконини берадиган тизимни ишга тушириш мақсадга мувофиқ бўлади.

### Хулосалар:

1. Солиқ сиёсатининг асосий йўналишидан бири сифатида “Яшил иқтисодиёт”ни ривожлантириш, “яширин иқтисодиёт”ни қисқартиришга қаратилган солиқ ва божхона сиёсатини амалга ошириш учун қўшимча зарур Чора-тадбирларни ишлаб чиқиш;

<sup>15</sup> Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iktisodiyotni kamaytirishda eksport-import operatsiyalarini takomillashtirish yo'llari. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 269–275. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884> dan olindi

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 сентябрдаги 595-сон қарори

<sup>17</sup> Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)



2. Товарларни импорт қилувчи хўжалик юритувчи субъектларнинг товарлар импортини амалга оширилган пайдан бошлаб ҚҚС тўлашга ўтиш тартибини белгилаш;

3. ҚҚС тўловчи ҳисобланган тадбиркорлик субъектларнинг устав фондини шакллантириш жараёнини онлайн кузатиш ва таҳлил қилиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, Адлия вазирлиги ҳузуридаги Давлат хизматлари агентлиги ва Давлат солиқ қўмитаси ахборот тизимларни интеграция қилиш ва таъсисчилар улушини шакллантиришнинг аниқ муддатларини белгилаш лозим.

4. Хўжалик юритувчи субъектлар томонидан фойдаланилаётган дастурий маҳсуллар (1-С, 1-UZ ) Давлат солиқ қўмитасининг “E-aktiv” автоматлаштирилган ахборот тизими билан интеграция қилиш, корхона маълумотларини уларнинг дастурий маҳсулидан юклаб олиш ҳамда балансдаги қолдиқда ҳисобда турган товар моддий бойликларни электрон кўриниш “Excel” файлда юклаш имконини берадиган тизимни яратиш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
2. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>
3. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>
4. Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
5. Қурбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)
6. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. World Scientific

- Research Journal, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
7. Пардаев Файзулла Гаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Курбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>
  8. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
  9. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
  10. Файзиев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 426-434. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2099](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099)
  11. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>
  12. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
  13. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
  14. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ. World Scientific Research Journal, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
  15. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Ақтуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
  16. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. Эконмока и бизнес: теория и практика.. 4-2 (74). ISSN 2411 0450.

17. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. Web of scientist: International scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2
18. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
19. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS), 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>
20. Tulaev, M. (2021). МҲХС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.
21. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
22. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN, 2249(0892)*.
23. Асаналиевна, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>
24. Klichev, V. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
25. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from [https://bmpublgroupp.com/assets/1\\_26\\_4\\_1.pdf#page=75](https://bmpublgroupp.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75)
26. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ОПЕРАЦИОН ЦИКЛ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 16(1), 196–203. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2718>
27. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>
28. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS), 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>
29. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.

30. Asanalievna, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>
31. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>
32. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>
33. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
34. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
35. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 8, 71-77
36. Ибрагимов, Г. А. (2023). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 68-73.
37. Ibragimov, G. A. (2021). Business Analysis In The Digital Economy. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7), 4543–4549.
38. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 6, 134 -138.
39. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>
40. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>
41. Якубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(4), 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>.
42. Ibragimov G. (2022). Introduction of digital solutions to the economy of Uzbekistan: problems and solutions. *International Journal of Research in IT and*

- Management (IJRIM), 12(9), 34-39. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRIM2Sep22-Uzb-1.pdf>
43. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
44. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Экономика и туризм" *международный научно-инновационный журнал*, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>
45. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>
46. Рахимов М.Ю. Иқтисодий субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма.-Т.; "Iqtisod-Moliya", 2013. -390 б.
47. Ibragimov G. (2022). Keeping records of imported goods while improving customs administration in Uzbekistan. *International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM)*, 12(11), 30-34. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM3Nov22-Uzb.pdf>
48. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>
49. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>
50. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). извлечено от  
<https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
51. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>.

## ЖОРИЙ АКТИВЛАРНИ БОШҚАРИШДА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ МУҲИМЛИГИ

У.А. Нурманов – ТМИ “Иқтисодий таҳлил”  
кафедраси профессори в.б., и.ф.д.

**Аннотация.** жорий активларни самарали бошқариш бошқарув ходимлари учун мураккаб ва масъулиятли вазифадир. Ушбу тезисда корхонанинг жорий активларини таҳлил қилиш воситалари ўрганиб чиқилган ва жорий активларни бошқаришда тизимли ёндашиш алгоритми тақдим этилган. Ушбу алгоритмдан фойдаланиш орқали жорий активлар айланишини тезлаштиришга, кассадаги фарқни камайтиришга ва корхонанинг тўлов қобилиятини оширишга ёрдам беради.

**Аннотация.** Эффективное управление оборотными средствами является сложной и ответственной задачей для управленческого персонала. В данной дипломной работе изучены инструменты анализа оборотных средств предприятия и представлен алгоритм системного подхода к управлению оборотными средствами. Использование данного алгоритма способствует ускорению текущей оборачиваемости активов, сокращению кассового разрыва и повышению платежеспособности предприятия.

**Annotation.** effective management of current assets is a complex and responsible task for management staff. In this thesis, the tools for analyzing the current assets of the enterprise are studied and the algorithm of a systematic approach to the management of current assets is presented. Using this algorithm helps to speed up the current asset turnover, reduce the cash gap and increase the solvency of the enterprise.

**Калит сўзлар:** жорий активлар, жорий активларни бошқаришда тизимли ёндашиш алгоритми, жорий активлар ҳажми, жорий активларнинг таркибий қисмларидан самарали фойдаланиш, жорий активларнинг айланиши.

**Ключевые слова:** оборотные активы, алгоритм системного подхода к управлению текущими активами, объем оборотных активов, эффективное использование компонентов оборотных средств, оборачиваемость оборотных средств.

**Keywords:** current assets, algorithm of systematic approach to current asset management, current asset volume, efficient use of current asset components, current asset turnover.

Бугунги кунда Республикамизда қурилиш соҳасини ва қурилиш материалларини ишлаб чиқариш комплексини янада ривожлантириш, ҳудудларда аҳоли учун арзон уй-жойлар қурилишини таъминлаш, уй-жой қурилиши бозорида талаб ва таклиф номуносивблигини қисқартириш мақсадида кўплаб ижобий ишлар олиб борилмоқда.

Бу борада Президентимиз Ш.Мирзиёев томонидан 2022 йил 21 февралдаги “Уй-жойлар қурилишини ва қурилиш материаллари саноатини қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-139-сон Қарори тасдиқланди. Ушбу қарорга кўра республикамизнинг туманларида хом ашёни қазиб олишдан уни қайта ишлаш, лаборатория текширувидан ўтказиш, тайёр қурилиш ва пардозбоп материаллар ишлаб чиқаришгача қўшилган қиймат занжирини яратувчи қурилиш материаллари кластерларини ташкил этиш; республиканинг туман ва шаҳарларида бошқа ҳудудлар билан саноат кооперациясини ташкил қилиш орқали қурилиш материаллари ишлаб чиқарилишини йўлга қўйиш; ҳар бир ҳудудда камида биттадан қурилиш материалларини ишлаб чиқаришдан қурилиш объектларини лойиҳалаштириш ва тайёр кўп қаватли уй-жойлар қуришгача қўшилган қиймат занжирини яратувчи уй-жой қурилиши кластерларини ташкил этиш; шунингдек 2022 йилда янги ташкил этиладиган қурилиш материаллари ва уй-жой қурилиши кластерларини ташқи муҳандислик-коммуникация тармоқлари билан таъминлаш тўғрисида вазифалар белгиланган.<sup>1</sup>

Шу сабабли қурилиш материаллари ишлаб чиқариш хўжалик субъектлари иш фаолиятида, жумладан жорий активларини бошқаришда янгича ёндашувлардан фойдаланишни тақозо этади, яъни замонавий бошқарув назарияси ютуқлари ва уни амалий қўллаш тажрибаларига асосланади. Бундан кўринадики, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш хўжалик субъектларида жорий активларни бошқариш жараёнларини такомиллаштирмасдан самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш мумкин эмас. Маълумки, хўжалик юритувчи субъектларида жорий активлар ҳажмини шакллантириш ва тартибга солишда уларнинг зарур даражадаги қисмини сақлаб қолишга, харажатларни оптималлаштиришга ва хўжалик субъектининг даромадини оширишга ёрдам беради.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига асосан «Жорий активлар одатий операцион цикл давомида сотиладиган, истеъмол қилинадиган ёки пулга айлантириладиган (товар-моддий захиралар ва савдо бўйича дебиторлик қарзлари каби) активларни ўз ичига олади, бунда ҳаттоки уларнинг ҳисобот давридан сўнг ўн икки ой мобайнида пулга айлантирилиши кутилмаса ҳам.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 февралдаги “Уй-жойлар қурилишини ва қурилиш материаллари саноатини қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-139-сон Қарори

Жорий активлар асосан савдо учун мўлжалланган активларни (масалан, 9-сон МХХСдаги сотиш учун мўлжалланган активлар таърифига жавоб берадиган айрим молиявий 73 активлар) ва узоқ муддатли молиявий активларнинг жорий қисмини ҳам ўз ичига олади».<sup>2</sup>

Ўзбекистон Республикаси БҲМСнинг «Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос»<sup>3</sup> номли стандартига асосан «Активлар – субъект назорат қиладиган, келгусида улардан даромад олиш мақсадида аввалги фаолият натижасида олинган иқтисодий ресурслардир»<sup>4</sup>.

Профессор А.Сотиволдиев, Д.Сотиволдиева, Д.Шодибековаларнинг фикрларига кўра «Актив – маълум бир санага пул кўрсаткичида корхонанинг маблағлари, уларнинг таркиби ва жойланишини акс эттирувчи бухгалтерия балансининг қисми»<sup>5</sup> ҳисобланади.

И.Исмановнинг фикрича, «Хўжалик юритувчи субъектнинг фаолиятида иштирок этадиган ресурслар бугунги бухгалтерия ҳисоби амалиётида активлар деб эътироф этилиб, уларни шартли равишда узоқ муддатли (асосий капитал) ва жорий активлар (айланма капитал) каби гуруҳларга ажратилади»<sup>6</sup>.

Шунингдек, жорий активларни бошқаришда тизимли ёндашувни ишлаб чиқиш орқали жорий активлардан унумли фойдаланиш ҳисобига корхонанинг молиявий-иқтисодий ҳолатини яхшилашга қаратилади. Мазкур ишлаб чиқилган тизимли ёндашув хўжалик юритувчи субъектнинг жорий активларини самарали бошқариш воситаси бўлиши зарур.

Хўжалик юритувчи субъектнинг мол етказиб берувчи ва пудратчилар билан ўзаро муносабатларини асосий шартларидан бири жорий активларни бошқаришда пухта ўйланган тизимли ёндашувига боғлиқлиги, мол етказиб берувчилар, суғурта захиралар миқдори, кредиторлик қарзларни тўлаш қобилияти ва бошқалар ҳисобланади. Хўжалик фаолиятининг статистик маълумотлари асосида молиявий таҳлилда хўжалик субъектининг хусусиятлари келиб чиққан ҳолда аниқланган омиллар, уларни жорий активлар таркибига таъсири, хўжалик субъектининг ҳар бир турдаги активларга бўлган эҳтиёжи таҳлил қилинади ва жорий активларнинг мавжуд ҳажмига нисбатан самарадорлиги бўйича дастлабки баҳо берилади. Шу билан бирга жорий активларни самарали бошқариш стратегиясини ишлаб чиқишда янги

<sup>2</sup> Каримов А.А., Ибрагимов А.К., Ризаев Н.К., Имамова Н.М. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари. / Дарслик – Т.: «MOLIYA», 2021. – Б. 72.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари тўплами. Тошкент.: «NORMA», 2010. – Б. 13.

<sup>4</sup> Сотиволдиев А. ва бошқалар. Бухгалтернинг изоҳли луғати. Тошкент.: «NORMA», 2010. – Б. 9.

<sup>4</sup> Исманов И.Н. Узоқ муддатли активларнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш масалалари.и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферати. Т.: 2008. – Б. 19.



замонавий тажрибаларни ҳисобга олиш, яъни бугунги иқтисодий шароитда пайдо бўлган замонавий буюртмалар бўйича оммавий ишлаб чиқаришдан мослашувчан саноат ишлаб чиқаришига ўтишни белгилаш ҳамда маҳсулотлар ассортименти кенгайтириш ва бошқалар ҳисобланади.

Унга кўра хўжалик субъекти жорий активларини бошқаришда тизимли ёндашиш алгоритмини ишлаб чиқиш ва қуйидаги кетма-кетликда таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ, яъни:

жорий активларнинг ҳажмини ва уларнинг таркибий қисмларини, шу жумладан улардан фойдаланиш самарадорлигини тавсифловчи асосий кўрсаткичларни таҳлил қилиш;

хўжалик юритувчи субъект фаолиятини узлуксизлиги ва қарзларни ўз вақтида тўлаш учун зарур бўлган жорий активлар ҳажмини, уларнинг таркибий қисмларидан самарали фойдаланишни ҳамда унинг умумий миқдори ва алоҳида турлари бўйича аниқлаш;

жорий активлардан самарали фойдаланишни таъминлаш; жорий активларни шакллантиришга йўналтирилган ресурслардан фойдаланиш ҳолати ва самарадорлигининг мониторинг қилиш тизимини шакллантиришдир.

Юқорида кўрсатиб ўтилган илк босқичда жорий активлар ҳажми, унинг таркибий қисмларини тузилиши ва улардан фойдаланиш самарадорлигини тавсифловчи асосий кўрсаткичларни ҳисоблаш орқали таҳлил қилинади. Бу босқичда товар-моддий захиралар ва дебиторлик қарзлари ҳажмига катта эътибор берилади. Товар-моддий захиралар ва дебиторлик қарзларини бошқариш самарадорлиги жорий активлар таркибини таҳлил қилиш ва айланма коэффициентларини аниқлаш орқали аниқланади. Товар-моддий захираларнинг ҳолатини таҳлил қилишда уларнинг динамикасини ва ҳақиқий қолдиқларини режалаштирилган эҳтиёжларга мувофиқлигини текширишдан бошлаш зарур. Бунинг учун товар-моддий захиралар айланиш кўрсаткичларини ҳисоблаш ва захиралар таркибини таҳлил қилиш лозим. Дебиторлик қарзларини таҳлил қилиш, амалдаги тартибга кўра қуйидаги кетма-кетликда амалга оширилади: дебиторлик қарзларининг ҳолати, тузилиши ва ҳаракатининг мутлақ кўрсаткичларини таҳлил қилиш; айланиш кўрсаткичларини ҳисоблаш; дебиторлик ва кредиторлик қарзларининг нисбатини таҳлил қилиш. Хўжалик субъектларда одатда қисқа муддатли кредиторлик қарзлари қисқа муддатли дебиторлик қарзларини тўлиқ қопласа ижобий ҳолат ҳисобланади. Бу эса хўжалик субъекти раҳбариятига қўшимча молиялаштириш манбаларини жалб қилмасдан ўз кредиторларини тўлаш имконини беради. Бошқарув жараёнида энг асосий эътибор дебиторлик қарзлари бўлганлиги учун унинг таркибидаги муддати ўтган дебиторлик қарзларини таҳлил қилиш муҳимдир. Шу сабабли дебиторлик қарзлари таркибидаги шубҳали дебиторлик қарзларининг улуши таҳлил қилинади. Шубҳали қарзлар бўйича товар-моддий захирани ҳисоблаш ва

пул оқимлари прогноз кўрсаткичи дебиторлик қарзларини башоратли таҳлил қилиш жараёнида қўлланилади.

Тизимли ёндашувнинг навбатдаги босқичида корхонанинг узлуксиз ишлаши, қарзларни ўз вақтида тўлаш учун зарур бўлган уларнинг таркибий қисмларини умумий миқдори, индивидуал турлари бўйича оптимал ҳажми ва жорий активларнинг мақсадли зарурий ҳажми аниқланади.

Навбатдаги босқичда жорий активлардан самарали фойдаланиш таъминланади. Яъни уларнинг айланишини тезлаштириш, активларнинг рентабеллигини ошириш бўйича комплекс чора-тадбирлар шакллантирилиши, шунингдек, корхонанинг тўлов қобилияти, ликвидлиги ва молиявий барқарорлигини таъминлаш ҳисобланади. Ушбу босқичда тўлов вақти (календарь)ни яратиш ва захираларни бошқариш алгоритмини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Тўлов вақти маълум бир календарь даври учун пул оқимлари жадвалини шакллантиришга ёрдам бериб, барча зарур тўловларни тўлашни кафолатлаш, ҳисоб рақамидаги ортиқча нақд пулларни минималлаштириш ва нақд пул бўшлиқларини олдини олади. Шу билан бирга товар-моддий захираларни бошқариш алгоритми захиралар ҳажмини оптималлаштиришга ёрдам беради, захираларни шакллантириш билан боғлиқ харажатларни минималлаштириш ва ишлаб чиқариш жараёнининг узлуксизлигини таъминлайди. Демак, жорий активлардан самарали фойдаланишни таъминлашда: тўлов календарь вақти яратилади, муайян календарь даври учун пул оқимлари жадвали шакллантирилади, барча зарур тўловлар тўланилишини кафолатлайди, ҳисоб рақамидаги ортиқча нақд пулларни минималлаштирилади, нақд пул бўшлиқларини олди олинади, хом ашё ва материалларнинг меъёрлаштирилган захираси шакллантирилади.

Энг сўнгги босқичда эса жорий активларни шакллантиришга йўналтирилган ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги ҳолатининг мониторинг қилиш тизими режалаштирилади.

Бундан ташқари хўжалик юритувчи субъектларда жорий активлардан самарали фойдаланишни таъминлаш алгоритмини ҳам ишлаб чиқиш зарур бўлиб, унда эса қуйидагилар ўз ичига қамраб олинади:

жорий активларни тўлов даври учун тақвимини яратиш;

муайян давр учун пул оқимлари жадвалини шакллантириш;

барча зарур тўловларни тўлашни кафолатлаш;

ҳисоб рақамидаги ортиқча нақд пулларни минималлаштириш;

нақд пул бўшлиқларини олдини олиш;

хом ашё ва материалларни меъёрлаштирилган захирасини шакллантириш;

турли прогнозлар асосида маблағларнинг тушумлари ва харажатларини, маълум бир вақт ичида (масалан, бир ой) компаниянинг пул оқимлари учун энг тўғри ва ягона режани шакллантириш;

корхона даромадлари ва харажатларининг энг мақбул нисбатига эришиш, яъни ижобий ва салбий пул оқимлари натижасини синхронлаштириш;

молиявий ресурсларни сарфлашда уларнинг устуворлигини таъминлаш учун молиявий натижаларга ва юқори кўрсаткичларга эришишда ижобий таъсир кўрсатадиган тўловларни аниқлаш;

компаниянинг пул маблағлари оқимининг ликвидлигига эришиш, яъни тўлов қобилиятининг зарур даражасини таъминлаш;

молиявий фаолиятнинг оператив жорий мониторингини амалга ошириш, молиявий фаолиятни мониторинг қилишнинг умумий тизимига пул оқимларини бошқаришни киритиш ва бошқалар.

Хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, хўжалик субъектининг жорий активларини бошқаришга тизимли ёндашувнинг ишлаб чиқилган алгоритми мантиқий ҳаракат йўналиши ҳисобланиб, хўжалик субъектининг жорий активлар айланишини тезлаштиришга, шу билан бирга тўлов қобилиятини оширишга ва корхонада нақд пул танқислигини камайтириш қаратилган восита бўлиб хизмат қилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Экономика и туризм" *международный научно-инновационной журнал*, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>
2. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>
3. Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма.-Т.; "Iqtisod-Moliya", 2013. -390 б.
4. Асаналиева, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>
5. Ибрагимов, Г. А. (2023). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 68-73.
6. Ibragimov, G. A. (2021). Business Analysis In The Digital Economy. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7), 4543–4549.
7. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Ақтуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
8. Ibragimov G. (2022). Introduction of digital solutions to the economy of Uzbekistan: problems and solutions. *International Journal of Research in IT and*

- Management (IJRIM), 12(9), 34-39. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRIM2Sep22-Uzb-1.pdf>
9. Ibragimov G. (2022). Keeping records of imported goods while improving customs administration in Uzbekistan. *International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM)*, 12(11), 30-34. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM3Nov22-Uzb.pdf>
  10. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>
  11. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
  12. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>
  13. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from [https://bmpubgroup.com/assets/1\\_26\\_4\\_1.pdf#page=75](https://bmpubgroup.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75)
  14. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>
  15. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>
  16. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
  17. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN, 2249(0892)*.
  18. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
  19. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. *Эконмока и бизнес: теория и практика.. 4-2 (74). ISSN 2411 0450*.

20. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. Web of scientist: International scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2
21. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>.
22. Якубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(4), 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>.
23. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. *Молия*, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
24. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
25. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
26. Файзиёв, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 426-434. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2099](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099)
27. Файзиёв Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>
28. Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. *Экономика И Образование*, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)
29. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
30. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
31. Пардаев Файзулла Ғаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Курбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>

32. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
33. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>
34. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>
35. Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
36. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
37. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
38. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>
39. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
40. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>
41. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.
42. Asanalievna, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>

43. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>
44. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>
45. Tulaev, M. (2021). МҲҲС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.
46. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). Извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
47. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 8, 71-77
48. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ . *World Scientific Research Journal*, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
49. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 6, 134 -138.

ИШЧИЛАР ҚЎНИМСИЗЛИГИ ТАҲЛИЛИ

АНАЛИЗ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ

ANALYSIS OF EMPLOYEE TURNOVER RATE

*Қличев Бахтиёр Пардаевич*

*Тошкент молия институти*

*“Иқтисодий таҳлил” кафедраси*

*катта ўқитувчиси*

*e-mail: b\_qilichev@tfi.uz*

*ORCID: 0000-0001-6938-7897*

**Аннотация:** Мазкур мақолада кадрлар қўнимсизлиги кўрсаткичи, унинг иқтисодий аҳамияти ўрганиб чиқилган. Ривожланган давлатларда кадрлар қўнимсизлиги даражалари келтирилган, уларнинг ўзаро фарқланиши асослаб берилган. Ўзбекистонда ишчилар қўнимсизлиги даражасининг ҳозирги ҳолати танқидий ўрганилган ва қўнимсизлик даражасини пасайтириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Аннотация:** В данной статье исследованы показатель текучести кадров и его экономическое значение. В развитых странах приведены уровни текучести кадров и обоснованы их различия. Критически анализировано ситуация с уровнем текучести работников в Узбекистане и разработаны предложения и рекомендации по снижению уровня текучести кадров.

**Abstract:** This article examines the employee turnover rate and its economic significance. In developed countries, the levels of staff turnover are given and their differences are justified. The situation with the level of employee turnover in Uzbekistan was critically analyzed and proposals and recommendations were developed to reduce the level of employee turnover.

COVID-19 пандемиясидан кейин жаҳон миқёсида рўй берган “Буюк истеъфолар” фониди меҳнат бозорида ишчи кучининг ҳаракати ва кадрлар қўнимсизлигининг ошиб бориш тенденцияси 2023 йилда ҳам кузатилди. Сўнгги йилларда АҚШ, Европа ва Осиёдаги йирик компанияларнинг HR-менежменти олдидаги энг муаммоли вазифалардан бири малакали ишчиларнинг содиқлик даражасини ушлаб туриш ва ишчи кучини ривожлантириш бўлиб қолмоқда. Бунинг муаммоли жиҳатларидан биринчиси, ишчиларнинг юқори маошли касбда ишлашга бўлган иштиёқининг юқорилиги бўлса, иккинчи муаммоли жиҳати, “Буюк истеъфолар” натижасида ишчи кучларининг иш жойининг ўзгартиришга табиий мажбур бўлганлиги, ишчиларда иш жойини ўзгартиришга бўлган иккиланиш ва кўрқув ҳиссиётига қарши иммунитетнинг шаклланганлиги билан боғланмоқда (Қличев, Б. (2022)). Бугунги кунда жаҳон миқёсида қурилиш,



меҳмонхона, савдо, молия ва суғурта соҳаларидаги етакчи компанияларнинг HR мутахассисларининг компания ишчилари ўртасида ўтказган сўровнома якунларига кўра, ҳозирги вақтда ишчилар учун иш жойини ўзгартириш пандемиядан олдинги вақтлардагидек иккиланадиган ва кўрқинчли жараён эмас ҳамда ишчилар бундай ҳолат юзага келганда жуда хотиржам муносабатда бўлишларини билдиришган (Қличев, Б. (2021)).

Албатта, айтиб ўтилган мазкур натижалар ходимларни ушлаб туриш, ишчиларнинг содиқлик даражасини ошириш ва қўнимсизлик даражасини туширишни мақсад қилган компанияларнинг HR мутахассислари учун муҳим огоҳлик вазифасини бажариб берди. Энди компаниялар малакали ишчиларга эга бўлиш ва уларни сақлаб қолиш учун креатив ёндашишлари, янгича рағблантириш механизмларини ишлаб чиқиши лозим бўлади (Klichev, B. (2014)).

2023 йилда бутун жаҳон миқёсида 2020-2022 йилларга нисбатан ишчиларнинг ишдан бўшаши ва қўнимсизлик даражасини пасайиб бориши пандемиядан кейинги меҳнат бозорининг нисбатан сокинлашганлиги ва HR-менежментнинг яхши ишлаётганлиги билан боғлашимиз мумкин. Жумладан, 1-жадвалда АҚШ, Австралия, Европа, Россия каби давлатларда ишчиларнинг ўртача қўнимсизлик даражасини ва тармоқлар кесимидаги қўнимсизлик даражасини кўришимиз мумкин.

1-жадвал

#### Хорижий давлатларда 2023-йилда ишчилар қўнимсизлиги даражалари

	Кўрсаткичлар	АҚШ <sup>1</sup>	Австралия <sup>2</sup>	Европа <sup>3</sup>	Россия <sup>4</sup>
1.	Ўртача қўнимсизлик даражаси	3,8	9,5	12,6	16
	Шунингдек, айрим тармоқлар ва соҳалар кесимида				
2.	Қишлоқ хўжалиги	5,2	5,9	13,8	11,2
3.	Саноат	3,4	9,8	13,2	14,7
4.	Қурилиш	5,1	9,6	14,1	17
5.	Ахборот, телекоммуникация	3,1	10,1	14,4	15
6.	Меҳмонхона	5	19,1	16,1	6
7.	Иқтисод ва молия	2,3	10	9,2	20

<sup>1</sup> <https://data.bls.gov> маълумотлари асосида

<sup>2</sup> <https://www.abs.gov.au/statistics/labour/jobs/job-mobility/latest-release> маълумотлари асосида

<sup>3</sup> <https://www.statista.com/topics/4095/employment-in-europe> маълумотлари асосида

<sup>4</sup> <https://www.forbes.ru/svoi-biznes/491452-rossiane-stali-reze-uvol-nat-sa-vpervye-s-2020-goda>

8.	Соғлиқни сақлаш	3,4	9,7	8,2	19,5
9.	Таълим	2,5	6,4	7,8	7,6
10.	Савдо	3,5	7,6	10,4	21,4

Афсуски, Ўзбекистонда етарлича меъёрий асослар мавжуд бўлсада, корхона ва ташкилотларда кадрлар ҳаракати, ишчиларни ишга қабул қилиш, ишдан бўшатиш ва қўнимсизлик даражалари бўйича статистика деярли юритилмайди. Жумладан, Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 28 июлдаги 207-сон “Давлат улуши бўлган акциядорлик жамиятлари ва бошқа хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезонлари тўғрисида” ги қарорида самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари (СМК) таркибига ходимлар қўнимсизлиги коэффиценти ҳам киритилган (Қличев, Б. (2021, ноябрь 19)). Бундан ташқари, Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 декабрдаги 775-сон қарорига мувофиқ, ташкилотлар ҳар чорақда СМК бажарилишини ҳисоблаши ва эълон қилиши белгилаб қўйилган. Афсуски, республикамиздаги корхона ва ташкилотлардаги ишчи кучининг ҳаракат кўрсаткичлари ва кадрларнинг қўнимсизлик даражаси тўғрисидаги статистик маълумотлар алоҳида ҳам, топшириладиган молиявий ҳисоботларда ҳам эълон қилинмаяпти.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотларда, қабул қилинаётган меъёрий ҳужжатларда ишчи-ходимларга бўлган ёндашувни ўзгартириш, корхоналарни бошқариш тизимини ривожлантиришда малакали ва ташаббускор кадрларни рағбатлантириш механизмларини такомиллаштириш талаб этилмоқда (Қличев, Б. (2021, сентябрь 30)). Барчамиз биламизки, компанияларнинг рақобатбардошлик даражаси компаниядаги кадрларнинг малакаси, унумдорлиги, интелекти ва таълим маълумотига боғлиқ бўлади. Ишчилар малакаси тоифалари ва уларнинг унумдорлиги ишчиларнинг йиллар давомида тўплаган иш тажрибалари, кўникмалари асосида ошиб боради. Халқаро тажрибалардан келиб чиқиб хулоса қилишимиз мумкинки, Ўзбекистонда ҳам компанияларнинг HR мутахассислари олдидаги асосий вазифалардан бири сифатида ходимлар қўнимсизлигини пасайтириш, унумдорлиги ва иш стажи юқори бўлган кадрларни сақлаб қолиш масалалари қўйилиши керак. Бунинг учун раҳбарлар компанияларнинг меҳнат жамоаси орасидаги ички ва ташқи муҳит, ижтимоий, иқтисодий ва ташкилий муаммолар, рағбатлантириш ва бошқа мотивацион омилларни доимо эътибор марказида ушлаб туриш керак.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>

2. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
3. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
4. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting"*, (2), 2181-1016.
5. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
6. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. *Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби*, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
7. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. *Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари*. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
8. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. *Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни*. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
9. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
10. Tulaev, M. (2021). МҲХС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.
11. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
12. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 8, 71-77

13. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
14. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 6, 134 -138.
15. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. *Эконмока и бизнес: теория и практика..* 4-2 (74).
16. Асаналиевна, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>
17. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. *Web of scientist: International scientific research journal* ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2
18. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>
Қуйида биз ана шундай муаммоларнинг биттаси яъни лойиҳа бошқарувининг муҳим дастаги ҳисобланган бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудитга тегишли бўлган айрим жиҳатларига тўхталиб ўтамиз:

1. Янги лойиҳанинг дастлабки ва кейинги йиллари бўйича тўлиқ қувватдан фойдаланиш даражасига боғлиқ бўлмаган амортизация (эскириш) харажатларини ҳисобга олинишнинг амалдаги тартиби ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот бирлиги таннархининг ошиб кетишига сабаб бўлмоқда.

Янги лойиҳанинг дастлабки, тўлиқ қувватга эришилмаган йилларида, ортиқча амортизация(эскириш) харажатлари ва маҳсулот бирлиги таннархининг ошиб кетмаслиги учун, белгиланган йиллик амортизация(эскириш) нормаларини шу йилги ишлаб чиқариш ҳажмининг тўлиқ қувватдаги улушига боғланган ҳолда ҳисоблаш тартибини (корхона ҳисоб сиёсатида қайд этган ҳолда) амалга ошириш тартибини белгилаш лозим.

Янги лойиҳада, тегишли харажатлар ҳақиқий миқдори ишлаб чиқариш қувватининг кўзда тутилган нормаларини ( $Q_n$ ) амортизация (эскириш) ҳисобланадиган активлар бўйича белгиланган норма( $A_n$ )га кўпайтириш орқали топилади. Натижада: янги лойиҳалар бўйича ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг таннархи тўғри шаклланади ҳамда бозор қийматидан ошиб кетишининг олди олинади.

2. Янги лойиҳаларда атроф-муҳитни ифлослантириш билан боғлиқ фавқулодда ҳолатлар оқибатларини бартараф этишга ва (ёки) фаолиятнинг охирида асосий восита объектини демонтаж қилиш ва олиб ташлаш ҳамда у жойлашган жойдаги табиий ресурсларни қайта тиклаш учун қилинадиган харажатлар бўйича захираларни (кейинги ўринларда “Резервлар”) хусусий капитал ҳисобварақларида акс эттирилмоқда.

IAS-37 "Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар" халқаро стандарти асосида янги лойиҳалар бўйича “резервлар” ҳисобини 8910 "Келгуси харажатлар ва тўловлар резервлари" ҳисоб варақасида эмас, балки янги 7930 - "Келгуси харажатлар ва тўловлар резервлари бўйича мажбуриятлар" ҳисоб варақасида юритиш лозим, чунки ушбу “резервлар” моҳиятан мажбурият. Шунингдек, мазкур “резервлар”ни молиявий ҳисоботларда хусусий капитал таркибида эмас, балки мажбуриятлар таркибида акс эттириш лозим.

Натижада:

биринчидан, янги лойиҳалар бўйича “резервлар” мажбурият сифатида акс эттирилиб, молиявий ҳисоботда мажбуриятларни камайтириб кўрсатишнинг олди олинади;

иккинчидан, янги лойиҳалар бўйича “резервлар” мажбурият сифатида акс эттирилиб, молиявий ҳисоботда хусусий капиталнинг ошириб кўрсатишнинг олди олинади;

учинчидан, фойдаланувчиларга ишончли молиявий ҳисобот тақдим этилади.

3. Янги лойиҳанинг ишга туширилишига қадар амалга оширилган экологик харажатлар лойиҳанинг умумий қийматида ҳисобга олинмасдан, давр харажатларида акс эттирилмоқда. Бу эса ўз навбатида даромадлар ва харажатларнинг номувофиқлигига олиб келмоқда.

Янги лойиҳанинг ишга туширилишига қадар амалга оширилган экологик харажатларни, капитализация қилинган харажатлар сифатида, асосий воситалар қийматида акс эттириб, амортизация ҳисоблаш орқали лойиҳанинг бутун даврида харажатларга мунтазам тақсимлаш амалиётига ўтиш лозим.

Натижада:

биринчидан, янги лойиҳаларни амалга ошириш даврида даромадлар ва харажатлар мувофиқлиги таъминланади;

иккинчидан, ҳисобот давридаги даромадлар ва харажатларнинг мувофиқлиги тамойили талаблари бажарилишига эришилади;

учинчидан, янги лойиҳа ишга тушишидан олдин молиявий ҳисоботларда давр харажатларининг ошиб кетишининг олди олинади.

Атроф муҳитга таъсир даражасининг юқори ва ўртача хавф-хатар тоифаларига мансублиги бўйича янги лойиҳанинг “Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш захиралари”ни ташкил этиш лозим.

Атроф муҳитга таъсир кўрсатишнинг юқори ва ўртача хавф-хатар тоифаларига мансублиги бўйича янги лойиҳа субъектлари, фаолият жараёнида ишлаб чиқариш чиқиндиларини йўқ қилиш, фавқулодда вазиятлар оқибатларини бартараф этиш, атмосферага зарарли моддаларнинг чиқиши ёки ифлослантирувчи моддаларнинг (ер ёки сув)га тасодифий тўкилиши каби оқибатларини бартараф этиш мажбуриятини олади. Мазкур мажбуриятлар бўйича (IAS) 37 "Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар" халқаро стандарти талабларидан келиб чиқиб захиралар шакллантириш лозим.

4. Корхона фаолиятининг охирида асосий восита объектини демонтаж қилиш ва олиб ташлаш ҳамда у жойлашган жойдаги табиий ресурсларни қайта тиклаш учун қилинадиган харажатлар бўйича мажбуриятни ушбу харажатларнинг дастлабки ҳисоб баҳоси бўйича (IAS- 37) лойиҳа бошида асосий восита объектининг бошланғич қийматига киритиш (IAS-16 "Асосий воситалар").

Натижада:

биринчидан, янги лойиҳалар ишлаб чиқариш фаолияти жараёнида корхона ишлаб чиқариш чикиндиларини йўқ қилиш ва фавқулодда вазиятларнинг оқибатларини олиш бўйича харажатлар (ҳисоб баҳоси бўйича мажбуриятлар) захира яратиш даврида харажатларга мунтазам олиб борилиши таъминланади;

иккинчидан, атроф-муҳитни ифлослантириш билан боғлиқ фавқулодда ҳолатлар оқибатларини бартараф этишга ва (ёки) фаолиятининг охирида асосий восита объектини демонтаж қилиш ва олиб ташлаш ҳамда у жойлашган жойдаги табиий ресурсларни қайта тиклаш учун қилинадиган харажатларга маблағлар етишмаслиги рискиннинг олди олинади, чунки ушбу мақсадлар учун захирлар шаклланган бўлади;

учинчидан, “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.10.2019 йилдаги ПФ-5863-сон Фармони талаблари бажаришга эришилади.

5. Янги лойиҳалар иқтисодий самарадорлигини аниқлашнинг кўпгина усуллари соф жорий қийматни (NPV - Net Present Value) ҳисоблашга асосланади. Янги лойиҳалар аудитини ўтказишдаги таҳлилий амалларнинг ҳеч бир усулида лойиҳани амалга ошириш даврида вужудга келиши мумкин бўлган атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари харажатлари учун захиралар ҳисобга олинмайди.

Янги лойиҳа самардорлигига хулоса беришда, коэффициентларини ҳисоблаш учун асос қилиб олинган кўрсаткичлар, уларга таъсир этувчи омиллар ва хатарларни баҳолаши ҳамда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари харажатлари учун захираларни қуйидаги кўрсаткичларни ҳисоблаш учун амалга ошириладиган таҳлилий амалларда ҳисобга олиши лозим:

- "оддий" ўзини оқлаш муддати (PP - Payback Period);
- дисконтланган ўзини оқлаш муддати (DPP - Discounted Payback Period);
- инвестицияларнинг рентабеллик коэффициенти (ROI — Return on Investment);
- инвестицияларнинг фойдалилик индекси коэффициенти (PI — Profitability Index);
- ички рентабеллик даражаси (IRR — Internal Rate of Return)
- соф жорий қиймат (NPV - Net Present Value).

Натижада:

биринчидан, янги лойиҳанинг ҳақиқий самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаш имкони вужудга келади;

иккинчидан, аудитор томонидан атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари харажатлари учун захираларни ҳисобга олган ҳолда самарасиз бўлган лойиҳага ижобий хулоса беришнинг олди олинади;



учинчидан, давлат томонидан атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чоратadbирлари харажатлари учун захираларни ҳисобга олган ҳолда самарасиз бўлган лойиҳани танлаб олишнинг олди олинади;

тўртинчидан, инвестор томонидан атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чоратadbирлари харажатлари учун захираларни ҳисобга олган ҳолда самарасиз бўлган лойиҳага инвестиция киритишнинг олди олинади.

6. Янги лойиҳаларни ишга тушириш билан боғлиқ харажатлар аудитини ўтказиш учун махсус режа ва дастурнинг амалиётда мавжуд эмаслиги.

Янги лойиҳаларни ишга тушириш билан боғлиқ харажатлар аудитини ўтказиш учун махсус режа ва дастурнинг намунавий шакллари ишлаб чиқилди ҳамда уларни амалиётга жорий этиш зарурлиги асосланди.

Натижада: аудиторлик ташкилотлари томонидан янги лойиҳаларни ишга тушириш билан боғлиқ харажатларни аудитдан ўтказиш жараёни такомиллаштирилди ҳамда аудит ўтказиш учун сарфланадиган вақт қисқаришига, шунингдек, аудит натижаларининг самарадорлиги ошишига эришилади.

7. Бухгалтерия дастурларида янги лойиҳаларни амалга ошириш бўйича харажатларни тезкор молиявий-бошқарув ахборотлари ва статистик ҳисоботларни олишнинг имкони йўқ. 1с дастурининг 3.0 конфигурация учун янги лойиҳалар харажатлари бўйича тезкор молиявий-бошқарув ахборотлари ва статистик ҳисоботларни яратиш бўйича техник топшириқ ишлаб чиқилди. Мазкур техник топшириқда тезкор молиявий-бошқарув ахборотлари ва статистик ҳисоботларни яратиш учун тегишли “справочник” ва “документ”ларга қўшимча реквизитлар қўшилди.

Натижада: ҳар бир янги лойиҳа харажатлари бўйича молиявий-бошқарув ахборотлари ва статистик ҳисоботларнинг қуйидаги маълумотларини автомат тарзда олиш имкони вужудга келади:

- янги лойиҳа учун жами жалб қилиниши керак бўлган маблағлар суммаси (манбалари бўйича);

- янги лойиҳа учун жами жалб қилинган маблағлар (манбалари бўйича) суммаси, шу жумладан жорий йил бошидан;

- янги лойиҳалар бўйича жами харажатлар суммаси, шу жумладан жорий йил бошидан;

- янги лойиҳалар йўналишлари бўйича харажатлар суммаси, шу жумладан жорий йил бошидан:

- машина ва ускуналарга;

- бино ва иншоотларга (қурилиш-монтаж ишларига);

- бошқа капитал харажатлар (масалан дастурий таъминот);

- лойиҳанинг бошқа йўналишларига харажатлар.

### Хулоса (Conclusion)

Янги лойиҳаларнинг инвестициялар киритиш ва танлаб олиш жараёнида уларнинг ҳақиқий самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаш, улар ҳисобини юритиш, аудитини ўтказиш, таҳлил натижаларидан фойдаланиш бўйича таклифлар натижасида қуйидагиларга эришилади:

1. Янги лойиҳанинг дастлабки, тўлиқ қувватга эришилмаган йилларида ишлаб чиқарилаётган маҳсулот бирлиги таннархининг ошиб кетмаслиги учун ишлаб чиқариш ҳажмининг тўлиқ қувватдаги улушига боғланган ҳолда амортизация ҳисоблаш, амортизация харажатларининг ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг таннаригига янги лойиҳаларнинг амалга оширилишига мутаносиб ўтказилиши лойиҳанинг самарали йўлга қўйилишига имконият яратади.

2. Даромадлар ва харажатларнинг даврий мувофиқлигини таъминлаш учун янги лойиҳанинг ишга туширилишига қадар амалга ошириладиган экологик харажатларни капитализация қилиш ва рухсат берувчи экологик ҳужжатларнинг муддатидан келиб чиққан ҳолда амортизация ҳисоблаш орқали лойиҳанинг бутун даврида харажатларга мунтазам тақсимлаб бориш, янги лойиҳаларни амалга ошириш мобайнидаги ҳисобот даври даромадлари ва харажатлари мувофиқлигини таъминлашга ҳамда молиявий натижаларнинг тўғри шакллантирилишига хизмат қилади.

3. Янги лойиҳанинг фаолият жараёнида экологияга келтириладиган зарарлар оқибатларини бартараф этиш ва табиий ресурсларни қайта тиклаш учун амалга ошириладиган харажатларни қоплаш мақсадида фойдаланиладиган резервларни яратиш, янги лойиҳанинг фаолияти давомида ишлаб чиқариш чиқиндиларини йўқ қилиш, атроф-муҳитни ифлослантириш билан боғлиқ фавқулодда ҳолатлар оқибатларини бартараф этиш, лойиҳа якунида асосий восита объектларини демонтаж қилиш ҳамда у жойлашган жойдаги табиий ресурсларни қайта тиклаш учун амалга ошириладиган харажатларни молиялаштиришнинг манбасини шакллантиришга хизмат қилади. Шунингдек, чиқитсиз ва атроф-муҳитга зарари кам бўлган лойиҳаларни танлаб олишни рағбатлантириш имкониятини яратади.

4. Янги лойиҳаларнинг атроф-муҳитни ифлослантиришини олдини олиш билан боғлиқ харажатлар бўйича шакллантириладиган резервларни узоқ муддатли мажбуриятлар таркибидаги 7930 - "Келгуси харажатлар ва тўловлар резервлари бўйича мажбуриятлар" номли ишчи сўҳтда ҳисобга олиш, янги лойиҳалар ташаббускорларининг атроф-муҳитни ифлослантиришни олдини олиш билан боғлиқ харажатлари бўйича шакллантириладиган "резервлар" ҳисоб маълумотлари ва ҳисобот ахборотларида уларнинг мажбуриятлари сифатида акс этириш имкониятини беради. Шунингдек, молиявий ҳисоботда мажбуриятларни камайтириб кўрсатишнинг, хусусий капиталнинг ошириб кўрсатишнинг олди олинади, фойдаланувчиларга ишончли молиявий ҳисобот

тақдим этилишига эришилади.

5. Янги лойиҳаларни ишга тушириш билан боғлиқ харажатлар аудити бўйича ишлаб чиқилган махсус режа ва дастури янги лойиҳаларни эркин иқтисодий зона дирекциясига қабул қилиш жараёнида уларни ишга тушириш билан боғлиқ харажатларни аудитдан ўтказиш такомиллаштирилади ҳамда аудит ўтказиш учун сарфланадиган вақт қисқаришига, шунингдек, аудит натижаларининг самарадорлигининг ошишига эришилади.

6. Янги лойиҳалар самарадорлигини аниқлаш кўрсаткичлари ("Оддий" ўзини оқлаш муддати (PP - Payback Period), дисконтланган ўзини оқлаш муддати (DPP - Discounted Payback Period), инвестицияларнинг рентабеллик коэффициенти (ROI — Return on Investment), инвестицияларнинг фойдалилик индекси коэффициенти (PI — Profitability Index), ички рентабеллик даражаси (IRR — Internal Rate of Return), соф жорий қиймат (NPV — Net Present Value))да экологик харажатлар, шунингдек улар бўйича резервларнинг шакллантирилганлигини ҳисобга олган ҳолда таҳлил қилиш орқали аудиторлик хулосасини бериш натижасида янги лойиҳанинг ҳақиқий самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаш имкони вужудга келади ҳамда аудитор томонидан атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари харажатлари, шунингдек улар бўйича резервларни ҳисобга олган ҳолда самарасиз бўлган лойиҳага ижобий хулоса беришнинг олди олинади, дирекция томонидан атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари харажатлари, шунингдек улар бўйича резервларни ҳисобга олган ҳолда самарасиз бўлган лойиҳани танлаб олишнинг олди олинади, инвестор томонидан атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари харажатлари, шунингдек улар бўйича резервларни ҳисобга олган ҳолда самарасиз бўлган лойиҳага инвестиция киритишнинг олди олинади.

7. 1С дастурида янги лойиҳаларни амалга ошириш бўйича харажатлар ҳисобини юритиш билан узвий боғлиқ ҳолда улар юзасидан тезкор молиявий-бошқарув ахборотларини олиш ва статистик ҳисоботларни шакллантириш натижасида, 1С дастурида ҳар бир янги лойиҳа бўйича жами жалб қилиниши зарур бўлган маблағлар (манбалари бўйича) суммаси, жорий йил бошидан ва жами жалб қилинган маблағлар (манбалари бўйича) суммаси, жорий йил бошидан ва жами амалга оширилган харажатлар суммаси, жорий йил бошидан ва лойиҳа бўйича машина ва ускуналарга, бино ва иншоотларга (қурилиш-монтаж ишларига), бошқа капитал харажатлар (жумладан, дастурий таъминот)га йўналтирилган жами харажатлар суммасига оид молиявий-бошқарув ахборотларини автоматик тарзда олиш, шунингдек, статистик ҳисоботларни автоматик шакллантириш имконияти яратилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. World Scientific Research Journal, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>
2. Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма.-Т.;“Iqtisod-Moliya”, 2013. -390 б.
3. Rahimov M.Yu. (2013). An analysis of the financial condition of economic entities. Educational manual. -Т .: Finance.
4. Асаналиевна, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>
5. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
6. Tulaev, M. (2021). МҲХС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.
7. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
8. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 8, 71-77
9. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
10. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 6, 134 -138.
11. Klichev, V. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
12. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
13. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
14. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World

- Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
15. Ibragimov G. (2022). Introduction of digital solutions to the economy of Uzbekistan: problems and solutions. *International Journal of Research in IT and Management (IJRIM)*, 12(9), 34-39. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRIM2Sep22-Uzb-1.pdf>
  16. Ibragimov G. (2022). Keeping records of imported goods while improving customs administration in Uzbekistan. *International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM)*, 12(11), 30-34. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM3Nov22-Uzb.pdf>
  17. Қурбонов Муҳиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>
  18. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
  19. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>
  20. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>
  21. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from [https://bmpubgroup.com/assets/1\\_26\\_4\\_1.pdf#page=75](https://bmpubgroup.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75)
  22. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>
  23. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ОПЕРАЦИОН ЦИКЛ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . *World Scientific Research Journal*, 16(1), 196–203. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2718>

24. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>
25. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN, 2249(0892)*.
26. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
27. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. *Эконмока и бизнес: теория и практика.. 4-2 (74)*. ISSN 2411 0450.
28. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. *Web of scientist: International scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2*
29. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 14*, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>.
30. Якубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(4)*, 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>.
31. Файзиев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 426-434. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2099](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099)
32. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>
33. Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. *Экономика И Образование*, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)
34. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. *International Journal on*

- Economics, Finance and Sustainable Development, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
35. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
36. Пардаев Файзулла Ғаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>
37. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
38. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>
39. Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
40. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
41. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
42. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>

43. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). Извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
44. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>
45. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.
46. Asanalievna, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>
47. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>
48. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>
49. Ибрагимов, Г. А. (2023). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 68-73.
50. Ibragimov, G. A. (2021). Business Analysis In The Digital Economy. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7), 4543–4549.
51. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Экономика и туризм" *международный научно-инновационной журнал*, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>
52. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>



АНГЛО - САКСОН МОДЕЛИГА МАНСУБ ДАВЛАТЛАРДА  
ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА  
ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ACTIVITY OF INVESTMENT FUNDS  
IN COUNTRIES BELONGING TO THE ANGLO-SAXON MODEL

**Султанов Махмуд Ахмедович**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети Тўрткўл факултети,  
«Умумкасбий, ижтимоий-гуманитар ва аниқ фанлар» кафедраси доценти

E-mail: [makhmud.sultanov@bk.ru](mailto:makhmud.sultanov@bk.ru)

Моб: +998 97 760-01-64.

**Аннотация.** Мақолада англо-саксон моделига мансуб давлатларда инвестиция фондларининг ташкилий-ҳуқуқий шакли, ташкилий моделлари, турлари, иқтисодиёт тараққиётидаги аҳамияти ва фаол иштироки, шунингдек инвестиция фондлари индустриясини яратиш масалалари тадқиқ этилган.

**Таянч иборалар:** молиявий сектор, қимматли қоғозлар бозори, инвестиция фондлари, континентал (Европача, германча), англо-саксон, гибрид (аралаш), ислом модели, инвестиция фондлари индустрияси.

**Abstract.** The article examines the organizational and legal form, organizational models, types, importance and active participation of investment funds in the development of the economy, as well as issues of creating the investment fund industry in the countries belonging to the Anglo-Saxon model.

**Key words:** financial sector, stock market, mutual funds, continental (European, German), Anglo-Saxon, hybrid (mixed), Islamic model, mutual funds industry.

**Кириш.** Исталган мамлакат иқтисодиётида уни ҳаракатга келтирадиган ва ресурслар тақдим этадиган рақобатбардош-молиявий сектор муҳим роль ўйнайди. У капитални қайта тақсимлайди ва энг фаол суръатлар билан ривожланаётган тармоқларга етказиб беради. Молия тизими доирасида маблағлар кўчирилишида инвестиция фондлари коллектив инвестициялаш институтларининг бир тури сифатида қатнашади.

Жаҳон молия бозорида жозибадор ҳисобланган инвестиция фондлари Ўзбекистон қимматли қоғозлар бозорида ўз мавқеини йўқотиб бормоқда. Республикамиз фонд бозорида инвестиция фондларининг рақобатбардош эмаслиги, уларнинг акцияларига эгалик қилаётган акциядорлик жамиятлари ўртасида эркин бозор механизмининг етарли даражада ишламаётганлиги инвестиция фондларининг ривожланишига тўсқинлик қилмоқда. Шу сабабли давлатнинг қимматли қоғозлар бозорини ташкилий моделига мансублиги, жумладан, англо-саксон моделига мансуб давлатларда инвестиция

фондларининг ташкилий-ҳуқуқий шакли, ташкилий моделлари, турлари, иқтисодиёт тараққиётидаги аҳамияти ва фаол иштироки бўйича ривожланган давлатлар тажрибасига таяниш муҳим аҳамият касб этади.

Жаҳон иқтисодиётида инвестиция фондлари нафақат маълум бир давлат иқтисодиётини ривожлантиришда, балки минтақалар иқтисодиётига, ҳалқаро инвестиция фондлари эса дунё миқёсидаги иқтисодиётга таъсир кўрсатишга қодир. Маълумки, жаҳон иқтисодиётида фонд бозорининг ривожланиш тенденцияларини асосан уларнинг ташкилий моделлари белгилайди. Шу боис, инвестиция фондларининг ривожланишида англо-саксон моделига хос АҚШ тажрибаси ўрганиш миллий инвестиция фондлари фаолиятини такомиллаштиришга хизмат қилиши мумкин.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Инвестиция фондлари бошқа коллектив инвестициялаш институтлари сингари ташкилий-ҳуқуқий шакли, ташкилий моделлари, турлари бўйича тавсифланади. Жаҳон амалиётида инвестиция фондларини ташкилий-ҳуқуқий шакллари назарий ва амалий жаҳатлари Россиялик иқтисодчи-олим А.Е.Абрамов Ю.Б.Рубин ва В.И. Солдаткинлар, шунингдек, маҳаллий олимларимиздан Ш.Ш.Шоҳаъзамийларнинг илмий ишларида очиб берилган. Россия Федерациясининг “Инвестиция фондлари тўғрисида” ги Қонунида инвестиция фондлари икки хил ташкилий-ҳуқуқий шаклда: акциядорлик инвестиция фонди, яни очик акциядорлик жамият бўлиб, фаолиятининг моҳияти мол-мулкни қимматли қоғозларга ёки бошқа объектларга инвестициялаш ҳисобланади; пай инвестиция фонди – мустақил мулкӣ мажмуа бўлиб, бошқарувчи компанияни ишончли бошқарувига берилган мол-мулқидан ташкил топади. Пай инвестиция фонди юридик шахс ҳисобланмайди. Пай инвестиция фондини ташкил этувчи мол-мулк инвестиция пай эгаларининг умумий мулки бўлиб, ушбу мулк улуш ҳуқуқи асосида барчага тегишли ҳисобланади.

Қозоғистон тажрибасига кўра, инвестиция фондларининг ташкилий-ҳуқуқий шакли акциядорлик инвестиция фонди ва пай инвестиция фондларига ажралади. Ю.Б.Рубин ва В.И. Солдаткинлар инвестиция фондларини ташкилий-ҳуқуқий шакли акциядорлик жамияти ёки маъсулияти чекланган корпорациялар асосида яратилишини таъкидлайдилар.

**Таҳлил ва натижалар.** 2015 йил 25 августида қабул қилинган “Инвестиция ва пай фондлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни мамлакатимизда инвестиция фондлари тараққиётининг янги босқичига асос солди. Унинг хусусиятли белгиларидан бири – инвестиция фондлари фаолияти учун ҳуқуқий асоснинг яратилгани бўлди. Мазкур қонунда “инвесторларнинг пул маблағларини жалб этиш ва уларни инвестиция активларига қўйиш мақсадида акциялар чиқаришни амалга оширувчи юридик шахс — акциядорлик жамияти инвестиция фондидир” - дейилган. Шунингдек, инвестиция

фондини, ўзи чиқарган акцияларни қайтариб сотиб олиш мажбуриятига эга бўлган ва бўлмаган инвестиция фонди турларига ажратилган. Республикамиздаги иқтисодий тараққиёт шунингдек, пай фондларини юзага келиши зарурлигини кўрсатсада, қонуннинг уларга бағишланган 3-боби 2017 йил 1-июлидан кучга кириши таъкидланган. Унга кўра “инвестиция фаолиятини амалга ошириш мақсадида икки ва ундан ортиқ шахсларнинг — инвесторларнинг ўзи ишончли бошқарувга берган пул маблағлари йиғиндиси пай фондидир” шунингдек, у юридик шахс бўлмайди.

Ҳозирги вақтда инвестиция фондлари халқаро миқёсда капитал ҳаракатидаги интеграцион жараёнларда тобора муҳимроқ ўрин тутмоқда. Дунё мамлакатлари бўйича инвестиция фондларининг тақсимланиши нотекислигига қарамай, бу масала юзасидан муҳим икки қонуният кузатилади:

1) мамлакат қанчалик бой ва унинг ривожланиш даражаси қанчалик юқори ва ўсиш суръатлари барқарор бўлса унда инвестиция фондлари ривожланиши учун зарур имкониятлар мавжуд;

2) инвестиция фондлари ривожланишига оид тарихий тажриба қанчалик катта бўлса ҳам, давлат томонидан яратилаётган шароит ва дастаклар юксалишнинг белгиловчи омили бўлиб қолаверади.

Жаҳон амалиётида инвестиция фондларининг ташкилий моделларини континентал (Европача, германча), англо-саксон, гибрид (аралаш), ислом, шунингдек айрим манбалар да компаниялар оиласи сифатида бирлашган тизим модели турларига ажратиб ўрганилмоқда. Маълумки, инвестиция фондлари ташкилий моделлари қайси мамлакатга оид эканлиги билан, унинг ривожланганлиги даражаси билан, ундаги жамият томонидан танланган йўналиш ва мавжуд менталитет (анъаналар) билан, улардаги ички ва ташқи омиллар таъсирининг қонуниятлари ва даражаси билан фарқланади. Лекин моделларнинг барчаси қайси мамлакатда бўлишидан қатъий-назар ўзларининг иқтисодиётдаги ва глобаллашув шароитларидаги роли ва функцияларини маълум даражада бажаради.

Инвестиция фондларининг ташкил этилиши англо-саксон модели мансуб бўлган мамлакатлар қаторига АҚШ, Канада, Буюк Британия, Австралия ва Янги Зеландия каби давлатларни мисол қилиш мумкин. Мазкур модел қатнашчилари консервативлик даражаси камроқ ва рискларга кўпроқ мойил. Буларнинг барчаси англо-саксон модели асосидаги молия бозорларининг либераллигини, очиқлигини, фаоллигини, аммо инқирозларга таъсирчанлигини белгилайди. Ҳозирда мавжуд моделларнинг ичида энг ривожлангани, дунё бозоридаги улуши ва мукаммали ҳам англо-саксон модели ҳисобланиб, унинг таркибида АҚШ фаол саналади.

АҚШ инвестиция компанияларининг (биздаги инвестиция фондлари АҚШда инвестиция компаниялари деб юритилади) бир қанча турлари мавжуд бўлиб, улар орасида бошқарувчи компаниялар кенг тарқалган. Бу компаниялар акционерлик жамиятлари шаклида бўлиб, уларга акцияларни сотиб олган ҳолда маблағ киритилади. Акционерлар дивиденд кўринишида ҳамда акциялар қийматининг ўсиши ҳисобига даромад оладилар. Бошқарувчи компаниялар очик инвестиция компанияларига, ҳамкор (ўзаро) фондларга, очик ва ёпиқ турдаги инвестиция фондларига, ёпиқ турдаги трастларга ва индекс фондларига бўлинади. Улар таркибида тараққий этгани ўзаро фонд (mutual fund) ёки ўзаро инвестиция фонди (mutual investment fund) ҳисобланади. Ўзаро фондлар атамаси одатда очик турдаги инвестиция компаниясининг бир тури бўлиб, у ерда ўзаро фонд акцияларининг олди соттиси амалга оширилади. Бундай фондлар чиқарадиган акциялар сони чегараланмаган. Ўзаро фонд асосан-молиявий институт (инвестиция компанияси)нинг бир тури бўлиб, ўз акциядор (улуш)лари пулини, улар номидан турли хил қимматли қоғозларга жойлаштирадилар. АҚШ фонд бозори хусусиятларини ифодаловчи У. Шарп ўз асаида “инвестиция компанияси – молиявий воситачиликнинг бир тури бўлиб, улар инвесторлар маблағларини жалб этиб, акция ва облигациялардек молиявий активларни сотиб оладилар. Шу билан бирга инвесторлар компания томонидан харид қилинган активлар ва улардан келадиган даромадларга нисбатан маълум бир ҳуқуқга эга бўладилар - деган фикрни билдирган. Таърифни янада аниқлаштирадиган бўлсак, АҚШда инвестиция компанияси пай инвестиция фондининг синоними сифатида қўлланилади.Шунинг учун ҳам ўзаро фондларнинг қимматли қоғозларига ёки пай (улуш)ига қилинган инвестициялар, мазмунан (туб маънода), профессионал бошқарувчи тасарруфидаги қимматли қоғозлар портфелидаги улушга мос равишда, мулк ҳуқуқига эга бўлади. Ўзаро фондларда иштирок этиш ҳуқуқини сотиб олган инвесторлар ушбу фонд портфели эгаларидан бирига айланади.

АҚШда инвестиция фондларининг фаолияти “Инвестиция фондлари тўғрисида”ги қонун билан тартибга солинади. Бу қонун инвестиция компанияларининг ҳар бир тури учун 100 000 АҚШ долл. га тенг бўлган минимал миқдордаги активларни назарда тутди. Инвестиция фондларининг яна бир тури ҳисобланган бошқарувчи компаниялари очик ҳамда ёпиқ турдаги компаниялар каби диверсификацияланган ва диверсификацияланмаган бўлиши мумкин. Инвестиция фондларнинг даромадлигини таъминлаш учун унинг маблағлари бир қанча корхоналарга қўйилиши бошқарувчи компанияларининг ишончилигини оширади, яъни бирор-бир компания касодга учраса, йўқотишлар бошқа корхоналарнинг даромадлари билан қопланади. Диверсификациялашган компания мавқеига эга бўлиш учун компания (мулк) активларининг 75 фоизи шундай инвестицияланган бўлиши керакки, компания активлари ҳар қайси

корхона улушига 5 фоиздан кам бўлмаган ва корхонанинг 10 фоиздан кўпроқ овоз бериш акциялари компанияга тегишли бўлмаслиги керак.

Диверсификациялашмаган компаниялар бу каби жиддий чекловларга эга эмас, шунинг учун бундай компанияларга қўйилмалар киритиш жуда қалтис, бироқ айнан улар янада кўпроқ даромад келтириши мумкин. АҚШ инвестицион компанияларининг келтирилган икки туридан ташқари юнит-траст деб номланувчи ўзига хос фондлари ҳам мавжуд. Компания ташкил топган пайтда қўйилмалар киритиш тузилмаси қатъий белгиланган бўлиб, у ҳеч қачон ўзгартирилмайди. Улар камроқ жамғармага эга бўлган бир қанча фуқароларнинг бирлашиб, қимматли қоғозларнинг катта пакетларига эга бўлиш имконини беради. Булар қимматли қоғозларни арзонроқ сотиб олишда ҳамда битимларни расмийлаштириш ва сақлаш бўйича қўшимча харажатларни тежаб, бошқарувчига ажратиладиган мукофотларнинг мавжуд эмаслиги билан бошқа фондлардан фарқланади.

АҚШда акционерлар директорлар кенгашини сайлаш, инвестиция сиёсатининг йўналишларини ҳамда бошқарувчилар билан тузиладиган шартномаларни тасдиқлаш билан боғлиқ масалалар бўйича овоз бериш ҳуқуқига эгадирлар. 1940 йилдаги қонунга мувофиқ - «директорлар кенгашига компания бошқарувчиси ҳисобланмайдиган директорлар (ташқи директорлар)нинг камида 40 фоизи кириши керак. Фондни бевосита бошқариш жисмоний ёки юридик шахс ҳисобланувчи бошқарувчи компанияга юкланади, у ўз хизматларини кўрсатиши эвазига, одатда, фонд активларининг соф қийматидан келиб чиқувчи ҳажмга нисбатан мукофот олади. Фонд таъсисчилари, асосан, бошқарувчи компания ҳисобланади. Унга бериладиган мукофотлар миқдори эмиссия проспектида белгилаб қўйилади ва соф активларнинг 0,25-3 фоизини (одатда, 0,5-1 фоизини) ташкил этади. Бошқарувчиларга бериладиган мукофотлар фонд харажатларининг асосий қисмини ташкил этади. Бошқарувчилар билан муносабатлар ҳар йили директорлар кенгаши ҳамда акционерларнинг умумий йиғилиши томонидан маъқулланган шартнома асосида тузилади».

Америкаликларда маблағлар киритишнинг энг оммавий усули ўзаро фондларнинг ёки очиқ инвестиция компанияларининг акцияларини харид қилиш ҳисобланса, Буюк Британияда ўзаро фондларнинг юнит-трастлар (ёки пай трастлар)и, очиқ инвестиция компанияларининг муқобили–инвестиция трастлари кенг тарқалган.

Англо-саксон модели қатнашчилари консервативлик даражаси камроқ ва рискларга кўпроқ мойил бўлиб, мавжуд моделларнинг ичида энг ривожланагани, дунё бозоридаги улуши юқори ва мукаммали ҳисобланиб, молия бозорларининг очиқлигини, фаоллиги, аммо инқирозларга таъсирчанлигини билан фарқланади.

Инвестиция фондлари ташкилий моделларини ўрганиш ҳар қандай мамлакат учун муҳим аҳамият касб этади, чунки ҳар қайси моделга оид

инвестиция фондларининг ривожланиш қонуниятлари, давлат тартибга солиш тадбирлари самарадорлиги, инвестицион муҳит ва унинг рағбатлари тизими, ривожланиш истиқболлари учун туртки бўла оладиган жиҳатларни ижобий ўзлаштириш мумкин.

Инвестиция фондлари тараққиёти нафақат мамлакатда иқтисодий ўсиш барқарорлигига, аҳоли даромадлари ва турмуш даражасининг ўсишига, иқтисодиёт реал сектори ривожланиш истиқболларига, молия бозори тараққиёти ҳолатига, балкишу билан бирга ушбу масаланинг давлат учун аҳамиятли долзарб вазифа эканида ва бу жараёнда давлат иштироқи муҳимлигига ҳам бевосита боғлиқдир.

**Хулоса** сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, АҚШ инвестиция фондларининг ривожланишида банклар таркибида тузилган инвестиция фондларининг тоифалари шакллантириш муҳим аҳамият касб этган. Шу сабабли Республикамизда ҳам пай инвестиция фондларини замонавий инфратузилмага эга тижорат банклари таркибида тузиш замон талаби ҳисобланади. Шу орқали «Инвестиция ва пай фондлари тўғрисидаги» қонунда эътироф этилган инвестиция фондларининг янги тури – пай инвестиция фондларидан амалиётда фойдаланиш имконияти юзага келади.

#### Фойдаланган адабиётлар рўйхати.

1. Султанов, М. (2022). ФОНД БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИКНИ ОШИРИШ ЗАРУРИЯТИ. *Архив научных исследований*, 2(1). Извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/735>
2. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>
3. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN*, 2249(0892).
4. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>
5. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>

6. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.
7. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. *Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби*, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
8. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. *Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари*. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
9. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. *Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни*. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
10. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 6, 134 -138.
11. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. *Молия*, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
12. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
13. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
14. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. *Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш*. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
15. Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. *Экономика И Образование*, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)
16. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. *International Journal on*

- Economics, Finance and Sustainable Development, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
17. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
  18. Пардаев Файзулла Гаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>
  19. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ОПЕРАЦИОН ЦИКЛ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 16(1), 196–203. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2718>
  20. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
  21. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>
  22. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2023). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarishning maksimal hajmi tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 5 (2023), 187–192.
  23. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>
  24. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>
  25. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>



26. Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
27. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
28. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
29. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
30. Asanalievna, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>
31. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>
32. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>
33. Tulaev, M. (2021). МҲҲС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.
34. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
35. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 8, 71-77

